

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

Ashirboyev Samixon

O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi "5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)" ta'lif yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etgan

TOSHKENT – 2021

Ushbu darslik bakalavriatning “5120100-filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)” ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va “O‘zbek dialektologiyasi” fan dasturi asosida tayyorlandi hamda talabalarga o‘zbek tilining qarluq, o‘g‘uz va qipchoq lahjalaridagi fonetik, grammatik va leksik xususiyatlar to‘g‘risida bilim va malaka berish ko‘zda tutilgan. Darslikda ilmiy tadqiqot natijalari va hozirga qadar amalda bo‘lgan darslik va qo‘llanmalar an’analaridan foydalanilgan. Uning mundarijasidan dialektologiyaga oid umumiy-nazariy masalalar, amaliy mashg‘ulotlar uchun shevalardan yozib olingan matnlar, test namunalari va o‘quv amaliyoti mazmuni o‘rin olgan, har bir mavzu so‘ngida tayanch tushunchalarning izohi va uning rus va ingliz tilidagi tarjimalari berib borilgan. Darslikda dialektologiyaga oid xorijiy adabiyotlar, axborot manbalaridagi nazariy va amaliy bilimlarga ham e’tibor berilgan. Darslikdan magistrantlar va ilmiy xodimlar ham foydalanishlari mumkin.

Данный учебник подготовлен на основе учебного плана направления бакалавриата “5120100-филология и преподавание языков (узбекский язык)” и учебной программы по “Узбекской диалектологии” и рассчитан на получение студентами бакалавриата знаний и навыков об особенностях карлукского, огузского и кипчакского наречий узбекского языка. В нем учтены результаты научных исследований, а также традиции предыдущих учебников и учебных пособий по этой дисциплине. Учебник содержит общетеоретические материалы, образцы текстов, записанные из говоров для практической работы и содержание учебной практики по дисциплине. В конце каждой темы даны ключевые слова на узбекском, русском и английском языках. В учебнике также учтены материалы зарубежных изданий и массовой информации. Учебником также можно пользоваться магистранты и начные сотрудники.

This textbook was prepared on the basis of the curriculum for the direction of the bachelor's degree "5120100-Philology and Teaching Languages (Uzbek Languagy)" and the curriculum for "Uzbek Dialectology" and is designed to provide bachelor students with knowledge and skills about the peculiarities of the Karluk, Oguz and Kipchak dialects of the Uzbek language. It takes into account the results of scientific research, as well as the traditions of previous textbooks and teaching aids in this discipline. The textbook contains general theoretical materials, sample texts written from dialects for practical work and the content of educational practice in the discipline. At the end of each topic, keywords are given in Uzbek, Russian and English. The textbook also takes into account materials from foreign publications and mass media. The textbook can also be used by undergraduates and beginners.

Taqrizchilar: **Abdiyev Murodqosim**, filologiya fanlari doktori, Samarqand davlat universiteti professori;

Enazarov Tolib, filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

Kirish

“O‘zbek dialektologiyasi” o‘zbek millati tilining bir ko‘rinishi bo‘lgan uning shevalari to‘g‘risidagi fandir. Har bir xalq o‘z mahalliy shevalarida muloqot yuritadi, binobarin, xalq o‘z shevasi bilan birga yashaydi va sheva ham xalqning butun borlig‘ini, moddiy va ma’naviy dunyosini, his-tuyg‘ularini ifoda qiladi hamda bu jarayonda u to‘xtovsiz rivojlanish sari faoliyatda bo‘ladi va boyib boradi. Uning boyligi fonetik, grammatik va leksik sathlarda namoyon bo‘ladi. “O‘zbek dialektologiyasi” fani shevalarimizning barcha qirralari bo‘yicha talabalarda bilim, malaka va ko‘nikmalar hosil qiladi va shu orqali til bilimlari to‘g‘risidagi tasavvurlarini kengaytiradi.

“O‘zbek dialektologiyasi” sotsiolingvistika fanlaridan biri bo‘lib, o‘zbek mahalliy shevalarini o‘rganadi. **Dialektologiya** so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to‘g‘risidagi bilim degan ma’noni bildiradi. O‘zbek dialektologiyasi o‘zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalish chegaralarini hamda shevalarning faoliyatda bo‘lishi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadi.

Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u **milliy-ma’naviy qadriyat** hisoblanadi. Aslida ona tili deganda, shevalarni tushunish haqiqatga yaqindir, shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur.

Shevalar to‘g‘risidagi fanni o‘rganish talabalarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash imkoniyatini tug‘diradi. Bu borada prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning: “.... o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, **shevalari** (ta’kid bizniki – A.C.), tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish...”¹ haqidagi fikri e’tiborlidir. To‘g‘ri, har bir madaniyatli shaxs rasmiy doiralarda o‘zbek adabiy tilida muomala qilishi shart, lekin bu o‘z shevasini unutishi kerak degan ma’noni anglatmaydi. Aksincha, har bir shaxs o‘z fikrini erkin ifodalashda ixtiyor-beixtiyor o‘z shevasi yoki o‘zlashtirgan shevasiga

¹ Мирзиёев Sh.M. Миллий ўзлигимиз ва мустакил давлатчилигимиз тимсоли. “Ўзбекистон овози”, 2019 йил 22 октябрь.

murojaat qilishga majbur bo‘ladi. Buning asosiy sababi ona tili – shevasi uning ruhiyatidan mustahkam o‘rin olganligidir.

Mannuniyat bilan qayd qilish kerakki, keying davrdagi yangi ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda shevalarga bo‘lgan munosabat ijobiy tomonga o‘zgardi va bu ma’naviy boylikni keng o‘rganishga yo‘l ochildi. *Dialektologiyaning sohalari. Tasviriy dialektologiya*. Har bir tildagi shevalarining muayyan davrdagi holatini o‘rganuvchi fan *tasviriy dialektologiya* deb yuritiladi. O‘zbek dialektologiyasi hozir tasviriy dialektologiya bosqichidadir.

Tarixiy dialektologiya. Bu fan boshqa tilshunoslik fanlarining, shu jumladan, til tarixining o‘rganilishida muhim manba ekanligi hisobga olinsa, bu jarayonda tarixiy dialektologiya to‘g‘risida ham fikr yuritish lozim bo‘ladi. Tilning rivojlanishi ayni o‘rinda shevalarning ham tarixiy rivojlanishi hisoblanadi. Bu esa *tarixiy dialektologiyaning* tekshirish obyektidir. O‘zbek tilshunosligida tarixiy dialektologiya o‘zbek tili tarixi va shevalar tavsifi jarayonida endigina shakllanib kelmoqda.

Ta’kidlash lozimki, bizgacha yetib kelgan o‘zbek tili manbalari o‘z davrining adabiy tilida yozilgan bo‘lsa-da, ayni zamonda, o‘sha davrning shevalariga xos xususiyatlarni ham aks ettirgan va ular hozirgi shevalarimizda o‘z izlarini qoldirgan. Turkiy va o‘zbek tilining ilk yozma yodgorliklaridan biri bo‘lgan “Devonu lug‘atit turk” asarida qayd qilingan til hodisalarining aksariyati hamon shevalarimizda yashab qolmoqda. Bu borada Sh. Shoabdurahmonov quyidagilarni qayd qiladi:

oyil (Toshkent) ~ oyul (Farg‘ona), oyul (DLT);

ojin(Toshkent) ojun (Farg‘ona), ojun (DLT);

očā:(Toshkent) očāq (Farg‘ona), očāq (DLT);

čigit (barcha shevalarda), čigit (DLT)

A. Matg‘oziyev XIX asr yodnomalarida bir qator sheva elementlarini qayd qiladi:

- fonetik dialektizmlar: teng-tushingiz bilan ~ *deŋ-dušiňiz bilä* (Roqim), achchiq ~ *a:ži* (Ogahiy);

- morfologik dialektizmlar: holimga ~ ***halīma*** (Uzlat), dushman orqasiga ~ ***dushman arqasına*** (Uzlat); - leksik dialektizmlar: ranjitma ~ ***inžitma***, chumoli ~ ***qarıńča*** (Ogahiy)².

Ma'lum bo'ladiki, turli hududlarda yaratilgan yozma yodgorliklar tilida dialektal o'ziga xosliklar aks etgan bo'ladi, chunki asar mualliflari yoki uni ko'chiruvchilar muayyan shevaning vakillari bo'lganligi tufayli ham ularning shevasi u yoki bu tarzda badiiy, tarixiy asarlarda aks etmay qolmas edi. Bu holat til tarixi asarlarining o'ziga xosligini ta'minlagan.

Hozirgi sheva faktlari til tarixini tushunish uchun ham xizmat qiladi, chunki, avval aytilganidek, tilimiz tarixiga oid so'zlar, fonetik va grammatic unsurlar tamoman yo'qolib ketmagan, balki muayyan darajada shevalarimizning birida o'z ma'nosida yoki qisman ma'nosи o'zgaran holda saqlanib qoladi, bu esa til tarixidagi ayrim so'z ma'nolarini oydinlashtirishga xizmat qilishi mumkin, masalan, "Devonu lug'atit turk" asaridagi ***anach*** so'zi ~ ***anač*** tarzida (qizlarni erkalash shakli) shimoliy o'zbek shevalarida, ***atiz*** so'zi ***atīz*** (ekin maydoni) tarzida Xorazmda, ***avdidi*** (terdi) so'zi ***ävdädi*** tarzida shimoliy o'zbek shevalarida, ***kızladi*** (yashirdi) so'zi ***gizlädi*** tarzida Xorazmda va shimoliy o'zbek shevalarida hozir ham qo'llanadi. ***Kashur*** so'zi "Devon"da ***turp*** ma'nosini anglatgan bo'lsa, Xorazm shevalarida ***gäšir*** variantida ***sabzini*** bildiradi. Demak, bu so'zda ham fonetik, ham ma'no o'zgarishi yuz bergen. Bu kabi hodisalarini tarixiy dialektologiya o'rganadi.

Folklor dialektologiyasi (u *lingvofolkloristika* deb ham yuritiladi). Bu fan folklor asarlari tilini, xususan, uning tilidagi shevalarga xos qatlamni o'rganadi. Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi asarlari tili shaklan adabiy tilni va mazmunan shevalarni ko'proq aks ettiradi. Ayniqsa, unung doston janrida jirovlarimiz o'z shevalariga xos bo'lgan fonetik, leksik va grammatic unsurlardan unumli foydalananadilar. Bu esa doston tilini xalqqa yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodi tili adabiy til va shevalarni birlashtiradi. Shu tufayli folklor asarlari tili o'ziga xosligini saqlaydi. Folklor asarlarini muayyan sheva vakillari bo'lgan

² Матғозиев А. XIX аср ёзма ёдгорликлари тилида шева элементлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1975, 3-сон. – Б. 40 – 41.

jirovlar ijro etishgan. Shu tufayli ham, ayniqsa, dostonlar tilida jirov shevasiga xos shunday fonetik, leksik, grammatik (morfologik) unsurlar uchraydiki, ularni har doim ham tushunish oson emas, ular o‘zbek shevalarining o‘ziga xos qatlamini hosil qiladi. Jumladan, Z. Xolmonova “Shayboniyxon” dostonida (Po‘lkan shoir) *y//j* (yol // jol), *s//ch* (*sanch* // *chanch*) tovush mosligini, *yig’la* // *jila* so‘zlaridagi tovush tushishi, so‘zlarning qipchoq shevalariga xos ma’no o‘zgachaligi *tart* (chalmoq), *chal* (bog‘lamoq), shevaga xos *o’r* (o‘jar), *cher* (dard) so‘zlarini; G. Jumanazarova “Shirin bilan Shakar” dostonida (Fozil Yo‘ldosh) *satta* (nuqul), *so ‘ta* (tayoq), *ena*, *checha*, *ul* so‘zlarini; A. Xoliqov “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” doctonida (Po‘lkan shoir) *g//y* (egasi // iyasi), *t//d* (tovush // dovush) fonetik hodisalarini, tushum kelishigida *-di//ti* affikslarining, *-dir* o‘rnida *-di* variantining kelishi, *qashoq* (qashlag‘ich), *bovr* (jigar, qarindosh)³ kabi dialektizmlarni keltirishadi. Bunday holat boshqa o‘rganilmagan va o‘rganilgan xalq og‘zaki ijodi asarlariga ham xosdir.

J. Eltazarov va Sh. Mahmadiyevlar “Ravshan” dostonida *qing* (qiling), *ul* (og‘il) kabi fonetik; “Qunduz bilan Yulduz”dagi *adra* (ardona), *borbay* (oyog‘i yo‘g‘on) kabi leksik dialektizmlarni keltiradilar.

Adabiyotlarda folklor asarlari tili adabiy til va shevalar oralig‘idagi tilni aks ettirishi va shevalar ustida joylashgan *koyne* deb qaraladi hamda shevalar folklor asarlarining tilining jonli voqeligi, uning mavjudligini ta’minlaydigan va rivojlanishiga xizmat qiladigan manba ekanligi ta’kidlanadi. Hatto folklor asarlari tilini shevalarning yashovchanligini ta’minlovchi adabiy shakl deb ham ta’riflanadi⁴.

Demak, xalq og‘zaki ijodi asarlarining dialektal xususiyati folklor dialektologiyasida o‘rganiladi.

³ Bu misollar ilmiy manbalarda qanday berilgan bo‘lsa, shundayligi saqlandi, faqat lotin yozuviga ag‘darildi.

⁴ Десницкая А. В. Наддиалектные формы устной речи и их роль в истории языка. Ленинград: Наука, 1970. - С. 39-40.

1-mavzu. “O‘zbek dialektologiyasi” faninig maqsad va vazifalari Reja

1. “O‘zbek dialektologiyasi”ning maqsad va vazifalari.
2. Fanning nazariy va amaliy ahamiyati.
3. Dialektologiyaning shakllanishi.
4. Til va sheva munosabati.
5. “O‘zbek dialektologiyasi”ning o‘rganilishini davrlashtirish.

Matn

“O‘zbek dialektologiyasi” fanini o‘rganishdan *maqsad* o‘zbek shevalarining eng muhim xususiyatlari – fonetik, leksik, morfologik va, qisman, sintaktik xususiyatlari hamda areal lingvistika (lingvistik geografiya) haqida talabalarga zaruriy bilimlarni berishdir. Bu esa quyidagi *vazifalarni* keltirib chiqaradi:

- talabalarga o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha zaruriy bilimlarni berish va, shu jumladan, fanning tayanch tushunchalari bilan tanishtirish;
- o‘zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik qurilishi haqida ma’lumot berish;
- jahon tajribasidagi dialektologik bilimlar bilan quollantirish;
- shevalarni yozib olishda qo‘llanadiga transkripsiya tizimini o‘rgatish hamda dialektologiyada qo‘llanadigan metodlarni o‘zlashtirish va sheva vakillaridan sheva xususiyatlarini yozib olish malakasini hosil qilish;
- shevalarning tasnif qilinishi va uning tarixini o‘rganish;
- adabiy til va sheva munosabatlari to‘g‘risida zaruriy bilimlarni berish;
- shevalar adabiy tilni boyitishning asosiy manbasi, dialektizmlar badiiy adabiyotda mahalliy koloritni hosil qiluvchi vosita ekanligi to‘g‘risidagi bilimlarini takomillashtirish;
- har bir lahjaning eng muhim xususiyatlari bo‘yicha bilimlarni shakllantirish;
- maktab va akademik litseylar ta’limida dialektal xatolarning oldini olishga nazariy va amaliy tayyorlash.

Fanning nazariy va amaliy ahamiyati. O‘zbeklar hozirgi O‘zbekiston Respublikasi, Markaziy Osiyo mamlakatlarida, Afg‘oniston, Turkiya, Saudiya

Arabistoni, Avstraliya, Xitoy Uyg'uristonida va boshqa mamlakatlarda istiqomat qiladilar. Albatta, ularning tili o'zbek tili bo'lsa-da, o'ziga xos mahalliy xususiyatlarga ega.

O'zbek shevalari o'zbek tilining mahalliy ko'rinishlari bo'lib, uni o'rganish filologiya fani uchun nazariy ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, shevalar o'zbek milliy tilining tarkibiy qismi sifatida adabiy tilning shakllanishi uchun material asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun shevalar fan saoslariда nazariy o'rganilishi zarur. Hozirga qadar milliy tillar bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar u yoki bu darajada shevalar ma'lumotlarisiz amalga oshirilmaydi. Jumladan, hozirgi o'zbek tilidagi fonetik jarayonlar to'g'risida fikr yuritilganda, ya'ni assimilatsiya, dissimilatsiya, metateza, eliziya va boshqa jarayonlar sheva materiallari asosida tushuntiriladi. Bu faqat fonetikada amalga oshirilmaydi, balki til tuzilmasining barcha xususiyatlarini qayd qilish va asoslashda sheva faktlari e'tiborga olinadi yoki nazarda tutiladi. Shevalar to'xtovsiz rivojlanib boradi, bu esa shevalarning doimiy ravishda nazariy jihatdan o'rganb borishni taqazo etadi va ilmiy-nazariy ahamiyatini keltirib chiqaradi.

O'zbek shevalarini o'rganish amaliy ahamiyatga ham ega. "O'zbek dialektologiyasi" fani bilimlari ta'lim jarayonida ham zarur. Bo'lajak til va adabiyot o'qituvchisi uchun bu fanning bilimlari amaliy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, albatta, o'quvchilarga adabiy til namunalarini singdirish chog'ida zarur bo'ladi. Barchaga ma'lumki, umumiyo o'rta ta'lim o'qituvchilari bevosita sheva vakillari bo'lgan o'quvchilar bilan birga faoliyat yuritadi. Bunda ona tili va adabiyot o'qituvchisining vazifasi o'quvchilar og'zaki va yozma nutqida adabiy til normalarini tarkib toptirish bo'ladi. Buning uchun esa u aholi shevasining xususiyatlarini, uning nazariy asoslarini, shevalarning adabiy til bilan munosabatini yaxshi bilishi asosida o'quvchilar nutqidagi shevaga xos unsurlarning tabiatidan kelib chiqib, ularda adabiy til ko'nikmalarini hosil qilishi mumkin bo'ladi. Til madaniyati o'quvchilarda maktabdan shakllantirilishi kerak. O'quvchi ham qayerda adabiy tildan, qayerda o'z shevasidan foydalanishga o'rgatilishi lozim. Adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish o'z shevasini unutish

hisobiga amalga oshirilishi mutlaqo mumkin emas. Shuni aytish lozimki, bu o‘rinda o‘quvchilarining o‘z shevalarida o‘quv jarayonidan boshqa vaqtlarida gaplashish erkinligini bo‘g‘ib qo‘yish talab qilinmaydi. Sheva ham milliy boyligimiz hisoblanadi, lekin ta’lim jarayonida, ommaviy majlislarda, bir necha sheva vakillari uchrashgan joyda, nutq so‘zlashda adabiy til me’yorlaridan chiqib ketmaslikni ta’kidlash zarur bo‘ladi.

Dialektologiyaning shakllanishi. Tishunoslik fani shevalarni o‘rganishdan boshlangan. Turkologiyada shevalarni o‘rganish XI asrda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asaridan boshlanganligi e’tirof etiladi.

Dialektologiya fan sifatida jonli xalq nutqiga qiziqish tufayli XVII asr oxirlarida Germaniyada shakllandi. Bu davrda Germaniyada xalq shevalaridan mahalliy so‘zlar yig‘ilgan va lug‘atlar tuzilgan. Shevalarni ilmiy asoslarda o‘rganish ishi esa XIX asrning ikkinchi yarmida “*Yosh grammatikachilar*” tomonidan amalga oshirildi va shevalar tabiiy, to‘xtovsiz va o‘z-o‘zidan rivojlanish mahsuli hamda til sistemasining qonuniy ravishda turli hududlariga tarqalgan tarkibiy qismi deb qaralgan.

Til va sheva munosabati. Til jamiyatda insonlar o‘rtasida aloqa vositasi, fikr va his-tuyg‘ularini ifodalash quroli vazifasini bajaradi. Bu uning ijtimoiy maqomini bildiradi. Shuningdek, til termini millat, xalq va qabila-urug‘ning aloqa vositasini ham anglatadi hamda shu millat, xalq, qabila-urug‘ nomi bilan yuritiladi. Shu jihatdan jahon tillari bir-biridan farqlanadi. Til bizning davrimizda, xususan, o‘zbek millati faoliyatida milliy til tushunchasiga ega bo‘ldi va shu millat a’zolarining umumiy aloqa vositasi sifatida rivojlanib kelmoqda. Til muayyan millat doirasida shu millat a’zolarining barchasi uchun tushunarli bo‘ladi va u ikki shaklga - adabiy til va sheva shakliga ega bo‘ladi. Milliy tilning tushunarli bo‘lishliligi ko‘proq uning adabiy til shakliga xosdir. Shevalarning tushunarilik darajasi alohida talqinga muhtoj. Turli sheva vakillari ham bir-birini tushuna oladi, lekin shevalarining shunday o‘ziga xos xususiyatlari borki, ularni maxsus izohlar bilangina tushuna oladilar. Masalan, Xorazm shevasi vakillari nutqini Farg‘ona vodiysidagilar va, aksincha, Farg‘ona vodiysi shevasi vakilini Xorazmda biroz

qiynalib tushunadilar. Aslida muayyan millat va xalqning tili uning shevalari hamdir. Boshqacha aytganda, millat va xalq tilining *asosini* uning shevalari tashkil etadi. Milliy tilning asosi sifatida shevalar o‘z mustaqilligini saqlab kelmoqdalar, lekin u adabiy tilning, yondosh tillar va shevalarning ta’siriga ham uchramoqda. Bu jarayonlar dialektologiya va areal lingvistikada ilmiy jihatdan o‘rganilmoqda.

“O‘zbek dialektologiyasi”ning o‘rganilishini davrlashtirish. O‘zbek shevalarining o‘rganilishi uzoq davrlarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa-da, hozirga qadar uning o‘rganilish tarixi davrlashtirilmagan. O‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning mohiyati, jonli til, shevalar qay darajada yoritilishi jihatidan uning quyidagi davrlarini belgilash mumkin:

1. *Qadimgi turkiy til davri shevalarining o‘rganishi.* U XI asrdan boshlab XIII asrning oxiri va XIV asrning boshlarini qamrab oladi. Bu davr deyarli barcha turkiy tillar uchun umumiyydir, binobarin, o‘zbek tilining ham qadimgi davri hisoblanadi. Bu davrda shevalarni o‘rganish til o‘rganish tushunchasi bilan yuritilgan, bu davrda til o‘rganuvchilarni nazariy masalalardan ko‘ra, amaliy masalalar qiziqtirgan. Muhimi, til strukturasining barcha tomonlari *leksikani o‘rganish* markaziga olingan, ya’ni urug‘ va qabilalar tilining fonetikasi, morfologiyasi lug‘at tuzish, leksikani sharhlash jarayonida izohlanadi. Bunga yorqin misol Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asaridir.

Bu davrdagi qipchoq shevalari “Attuhfatuz zakiyat fil lug‘atit turkiya” asarida o‘rganilgan.

2. *O‘rta asrlar o‘zbek shevalarining o‘rganishi.* Bu davr Alisher Navoiy nomi bilan bog‘lanadi. Alisher Navoiy tilshunoslik masalalariga bag‘ishlangan “Muhokamatul lug‘atayn” asarida adabiy tilning xususiyatlarini tavsiflash chog‘ida uning asosi masalasida ikki lahjani e’tiborga oladi: “xoqoni turkcha” va “xorazm turkchasi”.

3. *XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida o‘zbek shevalarining o‘rganishi.* Bu davrda O‘rta Osiyo Rossiya tomonidan ishg‘ol qilingan edi va o‘zbek shevalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar M. Terentev, A. V. Starchevskiy, Z. A. Alekseev, V. Nalivkin kabi rus turkologlari asarlarida uchraydi. Ular o‘zbek

tilining amaliy grammatikasini, lug‘atlarini yaratish chog‘ida bevosita jonli o‘zbek tiliga, ya’ni shevalariga murojaat qilishgan.

4. *XX asrning 20 va 30-yillarida o‘zbek shevalarining o‘rganilishi*. Bu yillarda o‘zbek shevalari qizg‘in o‘rganila boshlangan. Mashhur tilshunoslar prof. Y. D. Polivanov, G‘. O. Yunusov, K. K. Yudaxin, V. V. Reshetovlar mana shu davrdan boshlab faoliyat ko‘rsata boshlagan. Ular o‘zbek tili shevalarining fonetik, grammatik xususiyatlarini tadqiq etishdi, shu asosda shevalarning dastlabki ilmiy klassifikatsiyasi yuzaga keldi.

5. *50-yillar va undan keyingi yillarda o‘zbek dialektologiyasining rivojlantirilishi*. Bu o‘tgan asrning 50-yillaridan O‘zbekiston istiqlol davrlarini o‘z ichiga oladi. Bu davrda o‘zbek dialektologiyasi fan sifatida shakllandi. O‘zbek shevalari keng ko‘lamda o‘rganildi, ularning aksariyati tavsifiy xarakterga ega bo‘lgan. O‘zbek dialektologlarining yangi avlodi paydo bo‘ldi.

Tayanch tushunchalar:

O‘zbek dialektologiyasi [Узбекская диалектология, Uzbek dialectology] – o‘zbek shevalarini ilmiy ravishda o‘rganadigan fan.

Sheva [говор, pronunciation, accent, dialect] – milliy tilning quyi bosqichi, o‘zbek tilining kichik hududdagi muomala vositasi.

Turkologiya [туркология, Turcology] - turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, adabiyoti, folklori va tillarini o‘rganuvchi soha.

“Yosh grammatikachilar” [младограмматики, Junggrammatiker] – qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning bir oqimi bo‘lib, dialektologiya va areal lingvistikaga asos solishgan.

Takrorlash uchun savollar:

1. “O‘zbek dialektologiyasi”ning maqsad va vazifalari deganda nimani tushunasiz?
2. Dialektologyaning nazariy va amaliy ahamiyatini qanda belgilaysiz?
3. Dialektologyaning rivojlanish bosqichlarini tavsiflab bering.
4. Til va sheva tushunchalarini ochiqlab bering.

2-mavzu. “O‘zbek dialektologiyasi” ninig asosiy tushunchalari Reja

1. Sheva, dialekt va lahja tushunchalari.
2. Til egasi va sheva egasi.
3. Mahalliy va ijtimoiy dialekt.
4. Lahja va idiom.
5. Lahja va til variant. Idiolekt.

Sheva, dialekt va lahja tushunchalari. O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. O‘tgan tarixiy davr ichida o‘zbek shevalari to‘xtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlashda *sheva, dialekt, lahja* terminlari qo‘llanadiki, ularning lug‘aviy va terminologik ma’nolarini bilish, albatta, zarur.

Sheva forscha so‘z bo‘lib, *ravish, tarz, yo‘sint* degan ma’nolarni bildiradi va dialektologiya fanida o‘ziga xos leksik, fonetik hamda grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan milliy (xalq) tilning kichik territoriyaga oid qismini anglatadi (1-rasm). J. K. Chambers, Peter Trudgillning belgilashicha, sheva muayyan tilning tarkibiy qismidir⁵.

Dialekt so‘zi yunoncha bo‘lib, *sheva, so‘zlashish* degan ma’nolarni bildiradi va aksariyat til xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan shevalarni birlashtiradi.

⁵ Chambers J. K., Peter Trudgill. Dialectology. Cambridge University Press. 2004. – T. 3.



1-rasm. Sheva tushunchasi mazmuni.

Lahja arabcha so‘z bo‘lib, u *ravish*, *tarz*, *yo ‘sin*, *sheva* ma’nolarini bildiradi. Dialektologik termin sifatida qadimdan o‘zbek tilining taraqqiyotiga asos bo‘lgan sheva va dialektlarning eng yirik to‘dasini anglatadi.

O‘zbek tili o‘z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tarkib topgan. Ular **qarluq lahjasi**, **qipchoq lahjasi**, **o‘g‘uz lahjasidir** (2-rasm).



2-rasm. O‘zbek tili lahjalari tarkibi.

Qarluq lajjasining nomlanishida turlichalik bor. V.V. Reshetov uni *qarluq-chigil-uyg'ur*, Y.D. Polivanov *chig'atoy*, G. O. Yunusov *turk-barlos*, A. K. Borovkov o'rta o'zbek terminlari bilan yuritishgan.

Lahja termini o'zbek, turk tillarida iste'molda bor, lekin turk tilida bi termin qarindosh tillarga nisbatan qo'llanadi. Turklar *sheva* ma'nosida *og'iz* terminidan va *dialekt* ma'nosida *sheva* terminidan foydalanadilar. Boshqa aksariyat millatlar dialektologiyasida ko'proq *dialekt* terminiga murojaat qilinadi. Shuningdek, rus dialektologiyasida *наречие* (lahja), *dialekt*, *govor* (sheva) terninlari qo'llanadi. Ko'rindiki, *sheva*, *dialekt*, *lahjalar* har bir tilning tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi va ular muayyan til negizida amalda bo'ladi hamda "O'zbek dialektologiyasi"ning markaziy masalasi hisoblanadi.

Tilshunoslikda *dialekt* terminini *sheva* va *lahja* ma'nosida qo'llash an'anasi ham bor.



3.Toshkent shahar (tarixiy) shevalari.

Beshyog'och dahasida: *bārsämiz*, *bārdimiz*.

Xadra dahasida: *bārsovuz*, *bārduvuz*.

Eski Jo'va dahasida: *bārso:vuzä*, *bārduvuzä* // *bārdu:z* // *bārduzä*.

Chorsu dahasida: *bārso:/bārsok*, *bārdu(v)*.

Bunday kichik (nozik) farqlarni barcha dialektlar tarkibidagi shevalarda ham ko‘rish mumkin⁶.

Til egasi va sheva egasi. Konkret bir til shu til egalarining tilidir. Til egasi tushunchasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1) muayyan tilda nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs, 2) tildan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs, 3) o‘z millatining milliy-madaniy, ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lug‘at tarkibini egallagan, uni namoyon etuvchi shaxs.

Sheva esa muayyan tilning mahalliy ko‘rinishi, uning asosidir. Shu o‘rinda sheva egasi tushunchasini ham e’tirof etish mumkin: 1) muayyan shevada nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs, 2) shevadan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs, 3) o‘z shevasiga xos bo‘lgan lug‘at tarkibi, fonetik va grammatik xususiyatlarini egallagan hamda undan erkin foydalana oladigan shaxs (4-rasm).

Til egasi	Sheva egasi
1. Muayyan tilda nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs	1. Muayyan shevada nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs
2. Tildan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs	2. Shevadan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs
3. O‘z millattining ruhiy, madaniy, ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lug‘at tarkibini egallagan, uni namoyon etuvchi shaxs	3. O‘z shevasiga xos bo‘lgan lug‘at tarkibi, fonetik va grammatik xususiyatlarini egallagan va undan erkin foydalananadigan shaxs

4. Til va sheva egasi

Bunday qarash aksariyat lingvistik manbalarda aks etgan, jumladan, Buyuk Britaniyaning Kembrij universitetida nashr qilingan “Dialectology” darsligida tilga

⁶ Ularni mashg‘oltolar jarayonida ushbu fan o‘qituvchilari o‘z dialektlari misolida asoslab berishlari lozim bo‘ladi.

o‘zaro aloqa qilish, anglash mezoni, shevaga esa (dialekt) tilning real asosi, ildizi, quyi darajasi, qolipga tushmagan shakli tarzida izoh beriladi⁷. Bu ta’rifdagi “quyi daraja”, “qolipga tushmagan shakl” tushunchalari adabiy tilga nisbatlab aytilganligi sezilib turibdi.

Til va sheva egasi tushunchalaridagi farq shundaki, bir tilga egalik qilgan shaxs (agar maxsus o‘rganmagan bo‘lsa) boshqa tilni tushunmaydi, bir til ichidagi har xil sheva vakillari bir-birini tushuna oladi.

Mahalliy dialektlar va ijtimoiy dialektlar. Fanda ikki xildagi dialekt to‘grisida fikr yuritiladi, ya’ni *mahalliy dialektlar* va *ijtimoiy dialektlar*. *Mahalliy dialekt* umumxalq (milliy) tilining muayyan hududga oid ko‘rinishi, o‘ziga xos namoyon bo‘lishidir. O‘zbek dialektologiyasi mahalliy sheva, dialekt va lahjalarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

Ijtimoiy dialekt esa mahalliy sheva, dialekt va lahjalardan farq qilgan holda, muayyan guruhgaga taalluqli shaxslarning umumxalq tilidagi so‘zlarga o‘z manfaatlaridan kelib chiqib, o‘zgacha ma’no kasb etishlari yoki muayyan soha – kasb-hunar leksikasi, terminologiyasidan faqat shu soha kishilarining o‘zlarigina foydalanishlari asosida vujudga keladi. Ijtimoiy dialekt biror sheva yoki dialektga teng emas, lekin unda ba’zan shevaga oid so‘zlar qatnashishi mumkin. Boshqacha aytganda, ijtimoiy dialektda o‘ziga xos fonetik va grammatik xususiyatlar bo‘lmaydi, lekin tor doiradagi kishilar tushunadigan ayrim leksik o‘ziga xosliklargina bo‘ladi.

Chambers J. K., Peter Trudgillar o‘z asarlarida erkak va ayol jinsi nutqi xususiyatlarini ham ijtimoiy dialekt sifatida qaraydilar.

Ijtimoiy dialekt adabiyotlarda *sotsiolekt* (lotincha *sotsiotas* - *jamiyat* va *dialekt* sozlaridan olingan) termini bilan ham yuritiladi.

O‘zbek dialektologiyasi ijtimoiy dialektni o‘rganmaydi, ijtimoiy qatlamlar “til”i *sotsiolingvistik*ning boshqa bo‘limlari obyektidir.

Xorij dialektologiyasida *idiolekt* (u inglizcha bo‘lib, *individual til* degan ma’noni anglatadi) tushunchasi ham uchraydi. U yakka shaxslarga xos bo‘lgan

⁷ Chambers J. K., Peter Trudgill. Dialectology. Cambridge University Press. 2004. – T. 4

nutqiy o‘ziga xoslikni bildiradi. Aslida har bir shaxs o‘z tili va shevasi meyorlariga rioya qilishga harakat qiladi lekin shu bilan birga, o‘z nutqi tarsi va saviyasiga ko‘ra lug‘at boyligi hamda o‘ziga xos so‘z tanlash imkoniyati bo‘ladi. Bu masalalar ham dialektologiyaning obyekti hisoblangan.

Lahja va idiom. Fanda til, lahja, dialekt, sheva, sotsiolekt (ijtimoiy dialekt) tushunchalari **idiom** termini ostida birlashtiriladi. Boshqacha aytganda, **idiom** qarindosh tillardan bir qator xususiyatlari bilan farqlanadigan mustaqil (alohida) tildir. Aslida u qarindosh tillardan biridir. Idiomning shu ma’nosi keng qo‘llanadi. Shuningdek, adabiyotlarda lahja, dialekt, shevalar *tilning ko‘rinishlari* (разновидность языка) deb ham yuritiadi.

Chambers J. K., Peter Trudgillar idiom va tilning ko‘rinishlari terminiga mos keluvchi **variety** terminidan foydalanadilar.

Lahja va til varianti masalasi (diasistema). Avval aytilganidek, lahja har bir xalqning etnik taraqqiyoti tarixi hosilasidir. Aksariyat tillar bir necha lahjaning birlashuvidan tashkil topadi. Yuqorida ko‘rganimizdek, o‘zbek tili uch lahja - *qarluq* lahjasи, *qipchoq* lahjasи, *o‘g‘uz* lahjasidan tashkil topgan. Ingliz tili *angliya, uels, shotland* dialektlariga ega, lekin ingliz tilining Britaniya, Irlandiya, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi variantlari bor. Bu til variantlari *plyurosentrif* yoki *polisentrif* tillar deb ham yuritiladi. Ayni bir til turli davlatlarda o‘zining davlat maqomiga, standartlar tizimiga ega bo‘ladi va boshqa davlatlardagi ayni shu tildan va *negiz* *tildan*, xususan, keyingi misolimizda Britaniya variantidagi ingliz tilidan so‘z qo‘llash, terminlarning xususiyati, talaffuz meyorlari bilan farq qiladi. Fanda genetik jihatdan bir tilga mansub bo‘lgan tillarning variantlari (turli davlatlardagi ko‘rinishlari) *diasistemani* hosil qiladi.

Ma’lumki, o‘zbeklar O‘zbekistondan tashqari Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘izstonda ham yashaydilar, o‘zbek adabiy tilida ta’lim ishi olib boriladi, gazeta va jurnallar, kitoblar nashr qilinadi, lekin bu davlatlarda o‘zbek tili variant maqomiga ega emas, chunki shu davlatlarning rasmiy davlat tili emas. Afg‘onistonda ham o‘zbeklar yashaydi. Yuqoridagi respublikalardan farq qilgan holda, bu yerda o‘zbek tiliga ham davlat maqomi berilgan. Demak, endi

Afg'onistondagi o'zbek tilini variant deb atash mumkin bo'ladi. Bu mamlakatlardagi o'zbek adabiy tilining va shevalarining O'zbekistondagi adabiy tilga va shevalariga munosabati "O'zbek adabiy tili va dialektlar" mavzusida oydinlashtiriladi.

Tayanch tushunchalar:

Dialekt [диалект, dialect] – o'zaro bir-biriga yaqin shevalar tizimi.

Diasistema [диасистема, Diasystem] – 1) ma'lum bir tilning turli variantlari bir necha dalatlarda davlat tili maqomiga ega bo'lishi; 2) bir davlatda ikki va undan ortiq tillarning davlat tili sifatida qo'llanishi.

Idiom [идиом, idiom] – mustaqil qarindosh tillardan biri.

Lahja [наречие, dialect] – shakllanishi jihatidan umumiylar tarixga ega bo'lgan dialektlar jami.

Sheva [говор, pronunciation, accent, dialect] – o'zbek tilining kichik territoriyadagi muomala vositasi.

Sheva egasi [диалектная личность, dialect personality] – muayyan shevada erkin muomala qiluvchi shaxs.

Til egasi [языковая личность, linguistic personality] - muayyan til amaliyotini egallagan shaxs, ona tili.

Sotsiolekt [социолект, sociolect] – ijtimoiy dialekt.

Til varianti [вариант языка, lingual variant] – ayni bir tilning turli davlatlardagi ko'rinishi va qo'llanishi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sheva deb nimaga aytildi?
2. Dialekt deb nimaga aytildi?
3. Lahja deb nimaga aytildi?
4. Til va sheva egasining farqlari nimada?
5. Ijtimoiy va mahalliy dialekt qaysi belgilariga ko'ra farqlanadi?
6. Sotsiolekt va idiolektga misollar keltira olasizmi?
7. Til varianti va diasistemani qanday izohlaysiz?

3-mavzu. O‘zbek shevalarining tarixiy oqimi

Reja

1. O‘zbek tilining dialektal tarkibi.
2. O‘zbek shevalarining tarixiy oqimi.
3. Shevalarni o‘rganish metodlari.
- 4 “O‘zbek dialektologiyasi”ning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Matn

O‘zbek tilining qarluq, o‘g‘uz va qipchoq lahjaları. Turkiy tillarning aksariyati qadimgi turkiy etnik urug‘ va qabilalarning biri negizida shakllanganligi tarixda o‘z aksini topgan, jumladan, qozoqlar, qirg‘izlar va Sibirdagi turkiy xalqlar tillari qipchoq, ozarboyjon, turkman, turk, gagauz kabi tillar o‘g‘uz, uyg‘urlar esa qarluq urug‘ va qabilalar tili negizida shakllangan bo‘lsa, o‘zbek tili har uchala etnik guruhlar tilining birlashishi asosida tarkib topgan. Shuning uchun ham bugungi o‘zbek tilida har uchala etnik guruh tillariga xos xususiyatlar saqlanib qolmoqda hamda ular o‘zbek tilining uch lahjasini vujudga keltirgan. Bunday yirik dialektal tarkib hech bir turkiy tilda mavjud emas. Bular, avval ta’kidlanganidek, qarluq, o‘g‘uz va qipchoq lahjalaridir.

Sh. Shoadburahmonov o‘zbek tili dialektal rang-barangligini o‘zbek xalqining shakllanish jarayoni bilan bog‘laydi va uning tilida uchraydigan fonetik, leksik va grammatik farqlar turkiy qabilalarning ketma-ket migratsiyasi tufayli yuz bergenligini ta’kidlaydi. Uningcha, dastlab qarluqlar, so‘ng o‘g‘uzlar, undan keyinroq qipchoqlarning Markaziy Osiyoga kelishi o‘zbeklar dialektal takibining shakllanishiga olib kelgan.

O‘zbek shevalarining tarixiy oqimi va uning murakkab dialektal tarkibi. Y. D. Polivanov “O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili” nomli asarida (1933) o‘tgan asrning birinchi choragidayoq o‘zbek tili o‘zining ko‘p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida ma’lumot bergen edi. Keyingi tadqiqotlar buni tasdiqlagan. Uning tub sabablari bir necha omillarga borib taqaladi.

V. V. Reshetov o‘zbek tili dialektal rang-barangligini uning etnogenezisidan qidirish lozimligini uqtiradi.

Tariximizga oid adabiyotlar qadimda turkiy urug‘ va qabilalar miqdori ancha ko‘p bo‘lganligi to‘g‘risida xabar beradi. Ular ichida o‘zbek tili va uning shevalari shakllanishida qarluq, chigil, uyg‘ur, qipchoq, qangli, qatag‘on urug‘ va qabilalari birlashmalarining tarixiy taraqqiyoti katta rol o‘ynagan.

O‘zbek tilining dialektal o‘ziga xosligida qadimgi urug‘ va qabilalarning turli territoriyada alohida-alohida mustaqil yashashlari muhim ahamiyat kasb etgan. Ijtimoiy hayot tarzi, hududiy mustaqilligi, kasb-kori, etnografik xususiyatlari ularning tilida aks etmay qolmas edi va bu holat tilda umumiylilikni saqlab qolgan holda, boshqa hududlarda yashovchi o‘zbeklar tilidan ko‘pgina xususiyatlari bilan farqlanishiga olib kelgan, bu esa shevaning o‘ziga xosligini keltirib chiqargan. Sheva va dialect xususiyatlarining tobora qat’iy lashishida aholi punktlarining bir-biridan uzoq joylashishi muhim rol o‘ynagan. Shu tariqa bir til ichida turli shevalarning shakllanishiga sabab b‘lgan.

Tarixchi olim K. Shoniyofovning ko‘rsatishicha, qarluqlar va ularga qon-qardosh bo‘lgan *chigil*, *xalaj* qabilalari Ile daryosi havzasida, Sirdaryoning janubiy oqimlari, Isfijobda va Farg‘ona vohasiga tarqalgan keng hududlarda yashaganlar. *Turgesh* qabilalari ittifoqi Yettisuvni egallagan. 766-yilda bu hududlar *qarluqlar* tomonidan ishg‘ol qilingan. IX-X asrlarda o‘g‘uzlar Sirdaryoning quyi va o‘rta havzalarini hamda Orol bo‘ylarini ishg‘ol qilgan. *Qipchoq* qabilalari esa, asosan, Oltoy o‘lkasida, Irtish daryosi bo‘ylarida yashaganlar va keyinchalik ular Sibir, Gurjiston o‘lkalarida, Volga, Dunay daryolari bo‘ylari hamda Markaziy Osiyoga tarqalganlar⁸.

O‘zbek tilida sheva va dialectlarning kuchli farqlanib qolishiga o‘zbek tili boshqa tillardan ajralib mustaqil taraqqiy eta boshlagan davrdan boshlab unga turkiy va turkiy bo‘limgan tillarning, xususan, tojik tilning kuchli ta’siri ham sabab bo‘lgan. Jumladan, Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalariga qoraqalpoq va qozoq tillarining, Toshhovuz o‘zbek shevalariga (Xorazm shevalariga) turkman

⁸Шаниязов К.И. К этнической истории узбекского народа. – Ташкент: Фан, 1974. – С.47.

tilining, shimoliy o‘zbek shevalariga qozoq tilining, Qirg‘izistonidagi o‘zbek shevalariga qirg‘iz tilining, Samarqand, Buxoro, Namangan, Sariosiyo va Tojikistondagi o‘zbek shevalariga tojik tilining ta’siri kuchlidir. Shu tufayli ham bu shevalar boshqa shevalardan farqlanib qolmoqda va o‘ziga xoslikni vujudga keltirmoqda.

Avvalgi satrlarda aytilganidek, o‘zbek tili yirik uchta lahjani qamrab olgan, lekin har bir lahja orasiga qat’iy chegara qo‘yib bo‘lmaydi, ya’ni aksariyat shevalar ayni bir til qonuniyatlariga amal qilishi mumkin, masalan, singarmonizm har uchala (markaziy shahar shevalarini hisobga olmaganda) lahjada uchraydi, shuningdek, unlilarning birlamchi cho‘ziqliklari qarluq va o‘g‘uz lahjalarida ham qayd qilinadi.

O‘zbek shevalarini o‘rganish metodlari. O‘zbek shevalari *tasviriy* (*tavsifiy*), *qiyosiy*, *qiyosiy-tarixiy*, *lingvistik geografiya* metodlarida o‘rganib kelinmoqda.

Tavsifiy (tasviriy) metod muayyan shevaga xos fonetik, leksik va grammatisk xususiyatlarning **hozirgi holatini** maxsus tuzilgan savolnomasi bo‘yicha o‘rganishda qo‘llangan. Bunda sheva faktlari o‘zbek adabiy tili xususiyatlariga nisbatlab olinadi.

Qiyosiy metod. Undan shevaga xos xususiyatlarni yondosh shevalarga, qarindosh tillarga qiyoslab o‘rganishda foydalanilgan. O‘zbek shevalarini o‘rganishda, asosan, *tasviriy* va *qiyosiy* metodlardan foydalanilgan hamda boy material to‘plangan.

O‘zbek shevalarini o‘rganishda XIX asrning oxirlarida paydo bo‘lgan *qiyosiy-tarixiy metoddan* ham foydalanilgan. O‘zbek shevalari materiallari boshqa turkiy tillar, “Devonu lug‘atit turk”, “Qutadg‘u bilig”, Alisher Navoiy asarlari tili va boshqa til tarixi manbalari tiliga qiyoslab o‘rganilgan, lekin bu metod asosiy metod hisoblangan emas, balki tahlil talab o‘rinlarda va ayrim til tarixiga oid maqola va asarlarda uchrab turadi.

Shevalar *lingvistik geografiya* metodi bilan ham o‘rganiladi, Bu haqda “Areal tilshunoslik” mavzusida fikr yuritiladi.

Shevalarni o‘rganishda aslida sheva vakillariga sezdirmagan holda ular nutqini yozib olish lozim bo‘ladi. Bu jarayonda ovoz yozadigan turli texnika vositalaridan ham foydalilanadi. Shu bilan birgalikda, zarur hollarda *anketa metodini* ham qo‘llash mumkin. Anketa (yozma so‘rov) o‘tkazishda shu jarayonni mumkin qadar tushuna oladigan savodxon respondentlar tanlanadi. Anketa respondent shaxsini aniqlashda va yozib olingan matndagi sheva hodisalarini aniqlashtirilshda zarur bo‘ladi.

Dialektologik tadqiqotlarda *dialektometriya metodi* ham qo‘llaniladi. Bu metodda muayyan hududdagi lahja va dialektlar tarkibiga kirgan shevalarning yaqinlik darajasi faktik materiallar asosida hisoblab chiqiladi va ular raqamlarda aks ettiriladi. Shuningdek, sheva hodisalarining statistikasi zarur bo‘lgan o‘rinlarda qo‘llanadi.

O‘zbek dialektologiyasining tilshunoslik va boshqa fanlar bilan aloqasi. O‘zbek dialektologiyasi tilshunoslik fanlaridan biri sifatida, avvalo, “Hozirgi o‘zbek tili” fanining nazariy asoslariga tayanadi. Shuningdek, “O‘zbek tili tarixi” fanining “Qadimgi turkiy til”, “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi”, “O‘zbek adabiy tili tarixi” bo‘limlari uchun ham nazariy, ham amaliy asos vazifasini bajaradi. Aksincha, o‘zbek dialektologiyasi bu fanlarning nazariy va amaliy materiallariga asoslanadi. To‘g‘ri, tilshunoslikning bu fanlari o‘quv rejalarida keyingi kurslardan joy olgan, demak, bu fanlar bo‘yicha nazariy, amaliy ma’lumotlar o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha tegishli mavzularni mustaqil tayyorlash jarayonida, ulardan qo‘srimcha ma’lumotlar olish chog‘ida o‘rganib boriladi.

“O‘zbek dialektologiyasi” fani, ayniqsa, “O‘zbek tili tarixi” fani bilan uzviy bog‘langan. Shevalar va yozuv yodgorliklari til tarixi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Buning boisi shundaki, o‘zbek tili uzoq yillarni boshidan kechirdi, buning natijasi o‘laroq unga asos bo‘lgan shevalar hozirgi O‘zbekiston, shuningdek, Markaziy Osiyo, Afg‘oniston mamlakatlariga yoyilib ketdi. Shevalarning bu hududlarga tarqalishi, so‘zsiz, o‘zbek tili tarixini o‘rganishda o‘ziga xoslikni belgilab beradi.

O‘zbek dialektologiyasi geografiya fani bilan uzviy aloqador, ya’ni har bir sheva haqida ma’lumot to‘planganda, shu sheva vakillari joylashgan hududning ko‘lami, aholisining miqdori, iqlimi va boshqa ma’lumotlar ham e’tiborga olinadi, ya’ni geografik muhiti ham yoritiladi. Ayniqsa, izoglossalarning tarqalishi bilan bog‘liq masalalarda dialektologiya va geografiya umumiylilikka ega.

Shuningdek, o‘zbek dialektologiyasi o‘zbek xalqi tarixi, adabiyoti, folklori, etnografiyasi, san’ati fanlarining ma’lumotlariga ham tayanadi va, ayni o‘rinda, ular uchun ham boy material beradi.

Tayanch tushunchalar:

Tavsifiy metod [синхронный метод, descriptive method] – shevaning hozirgi holatini yozib olish metodi.

Qiyosiy metod [сравнительный метод, comparative method]- qarindosh tillar va til ichidagi sheva qiyoslanadi.

Qarluq lahjasi [карлукское наречие, Karluk dialect] – o‘zbek tilining shu nomlar bilan ataladigan urug‘-qabila ittifoqi negizida shakllangan sheva va dialektlar to‘dasi.

Qipchoq lahjasi [кипчакское наречие, Kipchak dialect] – o‘zbek tilining qipchoq urug‘ va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar to‘dasi.

Qiyosiy-tarixiy metod [сравнительно-исторический метод, comparative historical method] – tillarni ham tarixiy taraqqiyot, ham boshqa qarindosh tillarga qiyoslab o‘rganish metodi, bu metoddan shevalarni o‘rganishda ham foydalанилди.

O‘zbek dialektologiyasi [Узбекское диалектология, Uzbek dialectology] – o‘zbek shevalarini ilmiy ravishda o‘rganadigan fan.

O‘g‘uz lahjasi [огузское наречие, Uguz dialect] – o‘zbek tilining o‘g‘uz urug‘ va qabilalari negizida shakllangan sheva va dialektlar to‘dasi.

Lingvistik geografiya [лингвистическая география, Linguistic geography] – til va sheva hodisalarining kartada ifodalanishini o‘rganadi.

Takrorlash uchun savollar:

1.Sheva deb nimaga aytildi?

2.Dialekt deb nimaga aytildi?

- 3.Lahja deb nimaga aytiladi?
- 4.O‘zbek shevalarining murakkab tarkibi qaysi omillar bilan bog‘langan?
- 5.O‘zbek shevalari qaysi metodlar bilan o‘rganiladi?
- 6.O‘zbek dialektologiyasi fani qaysi fanlar bilan o‘zaro bog‘langan?

4-mavzu. Transkripsiya

Reja

1. Transkripsiya haqida umumiy ma’lumot.
2. Yangi o‘zbek transkripsyasi.
3. An’anadagi o‘zbek transkripsyasi.
4. Diakritik belgilar.


Matn

Transkripsiya haqida umumiy ma’lumot. Transkripsiya lotincha qayta yozish degan ma’noni bildiradi. Transkripsyianing ta’rifi: *Shevalardagi konkret nutq tovushlarini, ya’ni fonemaning variatsiyalari, variantlarini yozuvda ifodalash uchun qo’llaniladigan harflar, ishoralar sistemasiga transkripsiya deyiladi* (5-rasm). Bu ta’rif ayni o‘rinda fonetik transkripsyani anglatadi, chunki konkret nutq tovushini yozib olishda fonetik transkripsyadan foydalaniladi.

Transkripsiya qo’llanish doirasiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1. Xalqaro transkripsiya. Bu transkripsiya lotin alifbosiga asoslanadi. Bu transkripsiya, masalan, ingliz tilini o‘rganish jarayonida qo’llanilmoqda.
2. Milliy transkripsiya. Bu transkripsiya har bir milliy tilning amalda bo‘lgan yozushi tizimiga asoslanadi. O‘zbek shevalarini yozib olishda qo’llanilgan transkription tizim professor V. V. Reshetov tomonidan ishlab chiqilgan va u rus alifbosi asosidagi o‘zbek grafikasiga asoslangan, lekin o‘zbek dialektologlari, garchand, V. V. Reshetov transkripiyasidan foydalanishsalar-da, shevalarni yozib olishda har doim ham unga to‘la rioya qilishmaydi, chunki shevalardagi tovushlarni belgilashda har bir tadqiqotchi ma’lum darajada erkinlikka ega bo‘ladi.

Transkripsiya



5-rasm. Transkripsiya

Transkripsiya xorijiy tillarni va til tarixini o‘rganishda ham qo‘llaniladi. Bunda xorijiy tillardagi va yodgorliklardagi u yoki bu fonemaning talaffuz (artikulatsion-akustik) me’yorini belgilash zaruriyatidan kelib chiqadi.

Transkripsyani *transliteratsiyadan* farqlash zarur. Transliteratsiya bir til doirasida bir yozuv tizimidagi matnlarni ikkinchi yozuv tizimiga o‘girishni bildiradi. Masalan, arab yozuvidagi matnlarni kirilga, kirildan lotin yozushi asosidagi o‘zbek yozuvga ko‘chirish transliteratsiyadir.

Transkripsyyaning fonetik va fonematik turlari bor. Fonematik transkripsiya tildagi fonemalarning talaffuz normalarini belgilaydi hamda yuqorida ta’kidlanganidek, bunday transkripsiya xorijiy tillarni va til tarixini o‘rganishga joriy etiladi. Fonetik transkripsiya esa nutqdagi fonemaning variatsiyasi bo‘lgan konkret nutq tovushlarini yozib olishda qo‘llaniladi. Bu transkripsyadan shevalarni o‘rganishda foydalaniladi.

Translatsiya tushunchasi ham bor. U bir yozuvdagi matnning ikkinchi yozuvga kompyuter dasturi vositasida o‘girilishini bildiradi.

Transkripsiya uchun, odatda, har bir tilda amalda bo‘lgan yozuv asos qilib olinadi, lekin joriyda bo‘lgan yozuvdagi harflar transkripsiya tizimi uchun yetarli

bo‘lavermaydi. Shu jumladan, joriy o‘zbek alifbosidagi harflar ham o‘zbek shevalarini yozib olishda uning turli fonetik xususiyatlarini ko‘rsatish uchun yetarli emas, shu tufayli ham mavjud harflarga qo‘srimcha belgilar qo‘yiladi, ba’zan esa boshqa yozuv tizimidan harf qabul qilinadi. Demak, sheva materiallarini yozib olish chog‘ida har bir dialektolog ijodiy yondashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yangi o‘zbek transkripsiysi. Bunda ko‘p yillardan beri **turkologiyada** qo‘llanib kelinayotgan transkripsiya tizimiga asoslanildi. Bundan buyon dialektologiya bo‘yicha tadqiqot olib boruvchilarga lotin alifbosi asosidagi quyidagi transkripsiya tizimidan foydalanish tavsiya qilinadi.

Unli tovushlarni ifodalashda ishlatiladigan transkripcion belgilar. Unli tovushlar barcha tillarda ham ko‘p qirrali bo‘lib, u o‘zbek shevalarida, ayniqsa, fiziologik jihatdan rang-barangdir. Unlilarni ifoda qilishda o‘zbek dialektologiyasida quyidagi belgilardan foydalaniladi::

a(a) – umumturkiy, orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Singarmonizmni saqlagan o‘zbek shevalari uchun xarakterlidir. Masalan, qipchoq shevalarida: **ana, ata, bala**;

ä (ă) – aksariyat turkiy tillarda qo‘llanadi va old qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi: **äkä, änä, jäšä**. Bu unli barcha o‘zbek shevalarida qo‘llanadi;

ā (ā) – orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan unlini ifoda qiladi. Shahar va shahar tipidagi shevalarda keng qo‘llanadi: **āl, āš, bāl**;

e (e) – old qator, o‘rta-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi, barcha o‘zbek shevalarida mavjud: **el, bel, jel, kel**;

i (i) – indifferent, shahar shevalarida tarixan **i:** va **ï:** unlilarining birlashishi (konvergensiyasi) natijasida hosil bo‘lgan tovushni ifoda qiladi, old qator, yuqoritor, lablanmagan unli. Singarmonizmli shevalarda i: unlisining nisbatan qisqa talaffuz qilinadigan variatsiyasini bildiradi: : **keldi, jetti, bir**;

Shahar shevalarida barcha bo‘g‘inlarda kela oladi: **kirgin, bārdi**;

ï (i) – **ï:** unlisining qisqa talaffuz qilinadigan variatsiyasi, orqa qator, yuqoritor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, faqat singarmonizmli shevalarda qo‘llanadi: **bardi, tiyin, büqin**.

i va *ї* unlilari singarmonizmli shevalarda qisqa tovushni ifodalaydi (*bil*, *qil*), shahar shevalarida *i* unlisi indifferent tovushni ifodalaydi;

i: (*i:*) - old qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, cho‘ziqroq talaffuz qilinadi. Barcha o‘zbek shevalarida mavjud: *i:š*, *ti:l* (Buxoro). *bi:l* (Farg‘ona). Ko‘pincha unga ikki nuqta ham qo‘yiladi;

ї: (*i:*) - orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, cho‘ziqroq talaffuz qilinadi: *qї:z*, *qї:jїq*. Bu unli singarmonizmli o‘zbek shevalarida talaffuzda bor. Bu harfga shu unlining cho‘ziqligini ta’kidlsh uchun ko‘pincha ikki nuqta qo‘yiladi;

u (*u*) – orqa qator, yuqori-tor, lablangan unlini ifoda qiladi, barcha o‘zbek shevalariga xos: *bu*, *ul*, *un*;

ü (*ü*) – old qator, yuqori-tor, lablangan unlini ifoda qiladi, singarmonizmli shevalarda va singarmonizmni yo‘qotgan Buxoro, Navoiy, Samarqand shahar shevalarida qo‘llanadi: *kül*, *bügün*, *tün*, *ün*;

o (*o*) – orqa qator, o‘rta-keng, lablangan unlini ifoda qiladi. Barcha o‘zbek shevalarida talaffuzda bor: *ot* (adabiy orf. **o‘t**), *qol* (adabiy orf. **qo‘l**), *oq* (adabiy orf. **o‘q**), *toq* (adabiy orf. **to‘q**);

ö (*ö*) – old qator, o‘rta-keng, lablangan unlini ifoda qiladi: *böl* (bo‘lmoq - ajratmoq), *köl*, *hönär* (hunar). Singarmonizmli o‘zbek shevalari va Buxoro, Navoiy, Samarqand shahar shevalarida qo‘llanadi;

ε – ko‘proq Namangan shahar shevasida qayd qilinadi. Old qator, o‘rta-keng, lablanmagan: *neme* (nima). *qeneqe* (qanaqa). Iqon, Qarnoq, ayrim Xorazm shevalarida ham qayd qilinadi.

Cho‘ziq unlilar uchun ikki nuqta qo‘yiladi.

An'anadagi o‘zbek transkripsiyasi. Hozirgacha olib borilgan dialektologik tadqiqotlar rus grafikasi asosidagi transkripsiyada amalga oshirilgan. Ular qiyidagilar:

a(a) – umumturkiy, orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi. Singarmonizmni saqlagan o‘zbek shevalari uchun xarakterlidir. Masalan, qipchoq shevalarida: *ана*, *ама*, *бала*;

ə(ə) – aksariyat turkiy tillarda qo'llanadi va old qator, quyi-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi: **əкə, əнə, үәшиә**. Bu unli barcha o'zbek shevalarida qo'llanadi;

ɔ(ɔ) – orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan unlini ifoda qiladi. Shahar va shahar tipidagi shevalarda keng qo'llanadi: **ɔл, ɔи, őɔл**;

e(e) – old qator, o'rta-keng, lablanmagan unlini ifoda qiladi, barcha o'zbek shevalarida mavjud: **eл, бeл, үeл, кeл**;

и(i) – old qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, cho'ziqroq talaffuz qilinadi. Barcha o'zbek shevalarida mavjud: **ии, тиl** (Buxoro). **биl** (Farg'ona). Ko'pincha unga ikki nuqta ham qo'yiladi;

ы(y) – orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, cho'ziqroq talaffuz qilinadi: **кыз, қыйық**. Bu unli singarmonizmli o'zbek shevalarida talaffuzda bor. Bu harfga shu unlining cho'ziqligini ta'kidlsh uchun odatda ikki nuqta qo'yiladi;

ъ(y) – indifferent, shahar shevalarida tarixan и va ы unlilarining birlashishi (konvergensiysi) natijasida hosil bo'lgan tovushni ifoda qiladi, old qator, yuqori-tor, lablanmagan unli. Singarmonizmli shevalarda и unlisining nisbatan qisqa talaffuz qilinadigan variatsiyasini bildiradi: **келдъ, йеттъ, бър**. Shahar shevalarida barcha bo'g'lnlarda kela oladi: **къргън, қолдъ**;

ь(y) – ы unlisining qisqa talaffuz qilinadigan variatsiyasi, orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan unlini ifoda qiladi, faqat singarmonizmli shevalarda qo'llanadi: **бардъ, тъгън, бъкън**;

y(y) – orqa qator, yuqori-tor, lablangan unlini ifoda qiladi, barcha o'zbek shevalariga xos: **бы, ул, ун**;

ყ(y) – old qator, yuqori-tor, lablangan unlini ifoda qiladi, singarmonizmli shevalarda va singarmonizmni yo'qotgan Buxoro, Navoiy, Samarqand shahar shevalarida qo'llanadi: **кул, бүгүн, түн**;

օ(o) – orqa qator, o'rta-keng, lablangan unlini ifoda qiladi. Barcha o'zbek shevalarida talaffuzda bor: **ом** (adabiy orf. **օ'т**), **қол** (adabiy orf. **қо'л**), **օқ** (adabiy orf. **օ'қ**), **моқ** (adabiy orf. **то'қ**);

ө(ө) – old qator, o‘rta-keng, lablangan unlini ifoda qiladi: **бөл** (bo‘lmoq – ajratmoq), **көл**, **хөнәр** (hunar). Singarmonizmli o‘zbek shevalari va Buxoro, Navoiy, Samarqand shahar shevalarida qo‘llanadi;

е(ε) – unlisi **ä** va **e** unlilari o‘rtasida talaffuz qilinadi, old qator, o‘rta-keng, lablanmagan: **ке(л)** (Iqon), **зел** (Xorazm). Bu ma’lumot ko‘rsatilgan shevalarda o‘z kuchini yo‘qotmoqda, faqat Namangan shahar shevasida saqlanib qolmoqda: *nemə* (nima), *qeneqe* (qanaqa), *Helmaxon ettəmən kemədə* (Halimaxon erta bilan kelmadı).

Undosh tovushlarda qo‘llaniladigan transkripsion belgilar. Undosh tovushlarni ifodalashda fanda kirill yozuvidagi undoshlarni ifodalovchi harflardan foydalanilgan. Ular, deyarli, o‘zgarishsiz transkripsiya uchun qabul qilingan. Shunga qaramasdan, ayrim undoshlarni farqlash va o‘ziga xosligini belgilashda transkripsion belgilardan foydalanilgan. Ular quyidagilarda ko‘rinadi:

дј – qorishiq portlovchi tovushni ifodalaydi;

ң - sonor, burun tovushini bildiradi, adabiy orfografiyası *-ng/ng*;

в - lab-tish tovushini ifoda qiladi;

ԝ - lab-lab tovushini ifodalaydi, *cyw*, *qywmaq* kabi so‘zlarda uchraydi;

ғ - lab-tish tovushi uchun ishlataligani va ko‘proq o‘zlashgan so‘zlarda uchraydi;

ғ - lab-lab tovushini ifoda qiladi, aksariyat o‘rinlarda turkiy taqlidiy so‘zlarda qo‘llanadi.

Undoshlar transkriptiyasidagi bu belgilar juda ham qat’iy emas, matnlarda **ԝ** ornida **v** harfini, **ғ** ornida **ɸ** harfini ishlatalish an’anasi bor.

Yangi va an’anadagi o‘zbek transkriptiyasida unlilar mosligi bunday namoyon bo‘ladi: **a ~ a**, **ä ~ ə**, **ă ~ ɔ**, **e ~ e**, **i ~ ı**, **ii ~ ıı** **i: ~ u**, **ii: ~ ııı**, **u ~ y**, **ü ~ ı**, **o ~ o**, **ö ~ ə**, **ɛ ~ ε**.

Yangi transkriptiyada undoshlar quyidagi harflar bilan ifodalanadi: **b**, **d**, **f**, **g**, **h**, **k**, **l**, **m**, **n**, **p**, **q**, **r**, **s**, **t**, **v**, **x**, **z**. Shuninhdek, turkologiya transkriptiyasidagi **γ** (amaldagi **g‘** o‘rnida), **š** (amaldagi **sh** o‘rnida), **č** (amaldagi **ch** o‘rnida), **j**

(amaldagi *y* o‘rnida), *η* (amaldagi *ng* o‘rnida), *᷇* (amaldagi *j* o‘rnida) harflari olindi.

Diakritik belgilar:

- (ikki nuqta) – tovushning cho‘ziqligini bildiradi;
- ‘ (akut) – belgining o‘ng tomoniga qo‘yilsa, palatalizatsiyani, chap tomoniga qo‘yilsa, velarizatsiyani bildiradi;
- > va < – bir tovushning ikkinchisiga o‘tishini ko‘rsatadi;
- II (parallel chiziq) - ikki tovush yoki so‘zning parallel qo‘llanishiga ishora qiladi;
- () – qavs ichidagi harf ifodalagan tovushning ba’zan nutqda talaffuz qilinmasligini bildiradi;
- [] (katta qavs) - matndagi bo‘g‘in, so‘z, transkripsiya qilingan so‘zlarni ajratib ko‘rsatishga xizmat qiladi yoki respondentdan yozib olingan matndagi noaniqliklarning dialektolog tomonidan tiklanganligini bildiradi, masalan: [*Tülkı* ~ Tylk’] ... *nimägä romālni āldiñiz* ... Bu o‘rinda fikr egasini bidirgan so‘z katta qavs ichiga olib ko‘rsatilgan.

Shuni ta’kidlash lozimki, keyinchalik matn bayonida zarur o‘rinlarda so‘z va grammatik ko‘rsatkichlarning adabiy tildagi va turkologiyadagi (ba’zan kirill yozuvi asosidagi) transkripsyasi baravar keltirilib boriladi.

Bu quyidagicha ko‘rinishda aks ettiriladi (6-rasm):

Adabiy tildagi variantlar	Yangi o‘zbek transkripsiysi	An’anaviy transkripsiya
yurak ketayotgan	<i>jüräk // žüräk</i> <i>ketijkän</i>	<i>йүрәк//ðжүрәк</i> <i>кетъйкән</i>

6-rasm. O‘zbek adabiy tili, yangi va an’anadagi transkripsiyada so‘zlarning berilish tartibi⁹

⁹ Adabiy til, yangi va an’anadagi transkripsiyada yozilgan so‘zlar orasiga ~ moslik belgisi qo‘yib boriladi.

Matn transkriptiyasidan namunalar

1. *Qarluq* lahjası shevalaridan namuna.

Yangi o'zbek transkriptiyasida: ...Pāššāni bu gäpi el-jurtti žä qijnäp qojeti. Pāššädän bezär bopti xäläjiq. Bir kämmäyäl šäjir bäräkän. U pāššāni äldigä bäräpti. Pāššä undän, hi gädäj, nägä keldiŋ, dip soräpti. Kämmäyäl šäjir ädämlä tārtivätkän qijinçilijlä:ni, tāmmä-tām olu(v)ni kotärip māzārgä abāriš äzäplärini šiyir qip, pāššägä oqiveripti-de, sängä muni nime pājdäsi vā, dipti.

An'anadagi transkriptiyada: ...Пәшшәнъ бу гәпъ ел-йурттъ джә қъинәп қойыпть. Пәшшәдән безәр боптъ хәләйък. Быр кәммәғәл шәйър бәрәкән. У пәшшәнъ алдъгә бәръпть. Пәшшә ундән, ҳъ гәдәй, нәгә келдъң, дып сорәпть. Кәммәғәл шәйър әдәмлә тәртвәткән қъиңчыльйлә:нъ, тәммә-тәм олу:(в)нъ котәръп мәзәргә әбәръш әзәпләрънъ шъфър қъп, пәшшәгә оқъверъпть-де, сәнгә мунъ нъме пәйдәсъ вә дыпть.

2. *O'g'uz* lahjası shevalaridan namuna.

Yangi o'zbek transkriptiyasida: ...Bir varäkän, bir joqäkän, qadï:m za:manda bir pa:šša bo:an äkän. I:nšu pa:ššanï ä:šikini ä:ldindä bir da:rax va: äkän. I:nšu da:raxnï bir jo:rpayï a:ltünnan, bir jo:rpayï kü:müştän äkän. Gü:llädä bir gü:n är gü:ni bir jo:rpaq joq oladï ämiš. Soñ pa:šša sa:raj a:damnarïnï sa:qčiliq ä:tmäkä qojeti.

An'anadagi transkriptiyada: ...Быр варәкән, быр йоқәкән, қади:м за:манда быр па:шша бо:ан әкән. И:ншу па:шшанъ ә:шъкънъ ә:лдъндә быр да:рах ва: әкән. Бу да:рахнъ быр йа:rпағъ а:лтъннан, быр йа:rпағъ кү:мүштән әкән. Гү:лләдә быр гү:н ҳәр гү:нъ быр йа:rпақ йоқ оладь әмъш. Соң па:шша са:рай а:дамнарънъ са:қчыльқ ә:тмәкә қойыпть.

3. *Qipchoq* lahjası shevalaridan namuna.

Yangi o'zbek transkriptiyasida: ...Qiz ulyajip ^von žaşya žetipti. Žigit ^vorman içidän kätäkän qoryan qurip, qizdi nikäläp apti. Qiz sundajam ciräjli bopti:qo, ^voniň čači zärdän pajda boyandaj. Bir kuni qiz anharya başinï žuvüpti. ^vOniň bir dana čači ^vüzülip ayp ketipti...

An'anadagi transkripsiyada: ...Қыз ^вулғайып ^вон алты джашқа джетъпть. Джъгът ^ворман ъчъдән кәтәкән қорған қурып, қыздың нықәләп апты. Қыз шундайам чөрәйль боптың-ко, ^воньң чачь зәрдән пайда боландай. Быр күнъ қыз анхарға башын джувишті. ^вОнъң бырдана чачь ^вузулъп ағып кетъпть...

Tayanch tushunchalar:

Dialektolog [диалектолог, dialectologist] – shevashunos, shevani о‘рганувчи шахс.

Diakritik belgi [диакритические знаки, diacritic mark] – harflarga qo‘shimcha ravishda qo‘yiladigan belgilar, ishoralar.

Fonematik transkripsiya [фонематическая транскрипция, phonemic transcription] – tildagi fonemalar talaffuzini belgilab beruvchi yozuv tizimi.

Fonetik transkripsiya [фонетическая транскрипция, phonetic transcription] – konkret nutq tovushlarini ifodalaydigan harflar, ishoralar tizimi.

Indifferent [индифферент, indifferent] – oraliq tovush.

Palatalizatsiya [палатализация, palatalization] – undoshlarning yumshoqlashishi.

Transliteratsiya [транслитерация, transliteration] – matnni bir yozuv tizimidan ikkinchisiga o‘girish, masalan, kirildan lotinga.

Transkripsion belgi [транскрикционный знак, transcriptional mark] – har bir nutq tovushi uchun qo‘llaniladigan harf yoki ishora.

Velarizatsiya [веляризация, velarization] – undoshlarning qattiqlashishi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Transkripsiya deb nimaga ataladi?
2. Transliteratsiya deb nimaga ataladi?
3. Old qator unlilarini ifodalashda qaysi belgilar qo‘llanadi?
4. Orqa qator unlilarini ifodalashda qaysi belgilardan foydalilanadi?
5. Diakritik belgilar deb nimaga aytildi?

5-mavzu. O‘zbek shevalarining fonetik xususiyatlari.

Reja

1. O‘zbek shevalarining unlilar tizimi.
2. O‘zbek shevalarining undoshlar tizimi.
3. Kontrast juft unlilar.

Matn

O‘zbek shevalarining murakkab tarkibga egaligi, avvalo, ularning fonetik jihatdan rang-barangligi tufaylidir. O‘zbek shevalari unli va undoshlar miqdori va sifati, fonetik qonunlar, fonetik jarayonlarning o‘ziga xosligi jihatidan o‘zaro farqlanadi va, aksincha, ayrim jihatlariga ko‘ra, ular bir-biri bilan o‘xshashliklarga ham ega bo‘ladi.

Unlilar tizimi (vokalizm). O‘zbek shevalaridagi unli tovushlarning miqdori va sifati munozarali masalalardan biridir, chunki dialektologiyaga oid ishlarda unli fonemalar haqida fikr yuritilganda, ularning miqdori **18**tagacha yetadi, degan ma’lumotlar ham beriladi. Aslida shevalar fonetikasi o‘rganilar ekan, ulardagи fonemalar emas, balki konkret nutq tovushlari e’tiborga olinishi lozimligini qayd qilish o‘rinli bo‘ladi.

Qarluq lahjasidagi dialekt va shevalarda jami **13** ta unli qo‘llanadi. Singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda **6**, **7** ta, singarmonizmli shevalarda esa **11** ta unli qo‘llanadi. Toshkent dialektidagi shevalarda **i**, **e**, **ä**, **ă**, **o**, **u**; Samarqand shahar shevasida **i**, **e**, **ä**, **a**, **o**, **u** unlilari iste’molda bo‘lsa, Qo‘qon, Marg‘ilon, Chust, Qarshi, Sariosiyo kabi shevalarda **ā** unlisi bilan birlilikda **a** unlisi ham uchraydi. Qirg‘izistonning O‘sh, O‘zgan, Jalolobod kabi shevalarida **8** ta – **i**, **e**, **u**, **ü**, **ö**, **ă**, **ä**; Olabuqa, Oqtam, Karavon shevalarida **7** ta – **i**, **e**, **u**, **ä**, **o**, **ă**, **a** unli mavjud.

Shimoliy o‘zbek shevalarida (Turkiston, Shimkent, Sayram) **11** ta: **a**, **e**, **ä**, **i**:
i, **ii**:
ii, **o**, **ö**, **u**, **ü** unli mavjud. Qipchoq va o‘g‘uz lahjasidagi shevalarda ham **11** ta unli tovush qayd qilinadi. Ularni jadvalga quyidagicha joylashtirish mumkin (6-rasm). . Bu unlilar to‘g‘risida transkripsiya izohida to‘liq ma’lumot berildi.

ă unlisi to‘g‘risida. **ă** unlisining o‘zbek tilida va o‘zbek shevalarida paydo bo‘lishi bilan bog‘liq muhim fikrlar bilan tanishtirish lozim bo‘ladi. Ta’kidlash

joizki, bu unli turkiy tillarga xos emas, lekin tatar va boshqird tillarida arab va fors tilidan o'zlashgan so'zlarda qayd qilinadi. O'zbek tilida ham ko'proq shahar tipidagi, ya'ni qarluq lahjası shevalarida qo'llanadi. Qipchoq lahjası shevalarida esa u doimiy emas, balki muayyan vaziyatlarda va tojik tili va adabiy tilning kundalik ta'sirida ko'rinish qoladigan o'rinnari bor, lekin bu unli qipchoq, o'g'uz lahjalari shevalariga xos emas. Qarluq lahjasining shimoliy o'zbek shevalarida ham bu unli qo'llanmaydi. Bu holat **ā** unlisining paydo bo'lishi masalasiiga to'xtalish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Y. D. Polivanov uni forsiy (*eroniy* deb yuritadi) tilning ta'sirida paydo bo'lganligini ta'kidlaydi. Sh. Shoabdurahmonov **ā** unlisining paydo bo'lishini o'zbek tilida keyingi hodisa deb qaraydi hamda bu unli shahar shevalarida lab undoshlari (sāvzi, bārsāvuz) va chuqur til orqa **q**, **g'**, **x** undoshlari (tärāq, qilyān) ta'sirida umumturkiy **a** unlisi o'rnida paydo bo'lgan deb hisoblaydi. Turkologlardan N. Z. Hojiyeva esa tojik shevalarining ta'siri bo'lishi kerak deb taxmin qiladi. Shu bilan birga, **ā** unlisi to'g'risida o'tgan asrning 20-yillarida G'ozi Olim Yunus quyidagi fikrlarni yozib qoldirgan edi:

- **ā** unlisi forsiy emas, forsiy deyilishi yanglish fikrdir;
- bu tovush eronlashgan turk-o'zbek tillaridan ko'ra fors tilining ta'siriga tushmagan shevalarimizda ko'proq ishlatiladir;
- hatto forsiy ta'siri ostida bo'lishidan uzoq bo'lg'an Edil bo'yi tatarlarida bu alif aksariyat-la eshitiladir;
- bu alif asl fors tilida yo'qdir;
- bu turk tili ta'sirida qolg'an forsiy (tojik) lahjasidagina eshitiladir;
- bu tovush chin turk tovushidir.

Albatta, G'ozi Olim Yunusning bu fikrga tanqidiy qaralishi lozim.

Undoshlar tizimi (konsonantizm). O'zbek shevalaridagi sof turkiy so'zlarda **b**, **d**, **g**, **h**, **j**, **k**, **l**, **m**, **n**, **p**, **q**, **r**, **s**, **t**, **v**, **x**, **z**, **γ**, **š**, **č**, **ž**, **η** undoshlari amalda bor. Ularning lingvistik tavsiflari adabiy til bilan aynidir. Shevalarimizda bu undosh fonemalar ikki pag'onali qo'llanadi, ya'ni palatal va vel(y)ar. Bunda old qator unlilar qurshovida undoshlar palatal (yumshoq), orqa qator unlilar qurshovida vel(y)ar (qattiq) tus oladi.



7-rasm. Unlilarining joylashish tartibi

Aslida bu qonuniyat adabiy tilga ham xos. Bu qoida **k**, **g**, **q**, **γ**, **x** undoshlariga tatbiq etilmaydi, chunki bu undoshlarda dominantlik kuchli bo‘ladi va **k**, **g** undoshlari old qator unlilarning, **q**, **γ**, **x** undoshlari orqa qator unlilarning so‘zda qatnashishini talab qiladi. Misollar: kumush ~ **gü:müš** (Xorazm) so‘zida **g** undoshi qatnashgani uchun barch unlilar old qator, qayrog‘och ~ **qarayaš** (shim.o‘zb. shev.) so‘zida **q**, **γ** undoshlari qatnashganligi uchun orqa qator unli takroran kelgan. Boshqa undoshlar esa unlining xarakteriga moslashadi: **beš** so‘zidagi **b**, **š** undoshlari palatal, **baš** so‘zidagi shu undoshlar vel(y)ardir, chunki birinchisi old qator unli, ikkinchisi esa orqa qator unli atrofiga joylashgan (8-rasm).

Lab-lab **f** undoshi undov va taqlidiy so‘zlarda iste’molda bor: **uf**, **tuf**, o‘zlashgan so‘zlarda esa bu undosh **p**, ba’zan **b** undoshiga moyil talaffuz qilinadi, biroq Forish shevasida **f** undoshi mustaqil so‘zlarda ham uchraydi: pichoq ~ **fi:čaq**, pul ~ **ful**, **paxta** ~ **faxta**, **patir** ~ **fätir**.

H undoshi aksariyat shevalarda **x** undoshining fiziologik tabiatiga moslashadi, lekin shimoliy o‘zbek, qipchoq shevalarida bu undosh talaffuzda bor. Shuningdek, arabcha va forscha so‘zlardagi shu tillarga xos bo‘lgan **χ** (*hoyi hutti*), **χ** (*hoyi havvaz*), **ف** (fe) harflarini ifodalaydigan undoshlar o‘zbek tili shevalarining artikulations-akustik xususiyatlariga moslashgan.


Artikulatsiya o‘rni	Sonor	jarangli	jarangsiz	Palatal		Vel(y)ar	
				tovush	qo‘llanishi	tovush	qo‘llanishi
Lab undoshlari	m			m'	m'en'	'm	'ma's
		b		b'	b'er'	'b	'ba'r
		v		v'	č'ev'är'ä	'v	a'va'ra
			p	p'	t'er'	'p	'ta'p
			f	f'	t'üf'	-	
Til oldi undoshlari		z		z'	z'är'	'z	'za'r
		ž		ž'	ž'är'	'ž	'žā'n
		t		t'	t'er'	't	'ta'ra
		s		s'	s'en'	's	'sā'mā'n
		š		š'	š'æk'är'	'š	'ša'x's
		č		č'	č'in'	'č	'čuqu'r
		n		n'	n'äj'	'n	'na'n
		l		l'	l'ä:l'äk	'l	'lä'či'n
		r		r'	t'er'ä(j')	'r	'ra's('t)
Til o‘rta undoshi	j			j'	j'ük	'j	'jo'l
Sayoz til orqa undoshlari	η			η'	s'in'il'	'η	qi'n'nj'r
		g		-		-	
		k		-		-	
Chuqr til orqa undoshlari		γ		-		-	
		q		-		-	
		x		-		-	
Bo‘g‘iz undoshi			h	h'	h'äl'i	'h	'hā'lī

8-rasm. Undoshlar artikulatsiyasi, palataliztsiyasi, vel(y)arizatsiyasi

O‘g‘uz, xususan, Xorazm shevalarida adabiy tildagi **q** undoshi o‘ziga xos artikulatsiyaga ega. Bu undosh mazkur shevalarda adabiy tildagi **k** va **q** undoshlari oralig‘ida talaffuz qilinadi, uni diakritik belgi bilan ‘**k** kabi ifodallah mumkin:

*A:tali'kniiñ ma:lïn ba'ktüm bä:ärdä,
O'zi durmijin u:jatadï sää:ärdä.
Biširän a:şları gö:znüñ ja:şinnan,
Ča'kma'k ta:ş na:nïn bärär nä:ärdä (Qo'shiqdan).*

Kontrast (juft) unlilar. Singarmonizmni saqlagan o‘zbek shevalarida unlilar old qator va orqa qator mavqelarga (pozitsiyalarga) ega bo‘ladi. Ular quyidagilar: *i: ↔ i:, i ↔ ī, ö ↔ o, ü ↔ u, a, ā ↔ ä* (9-rasm). Bundan faqat **e** unlisigina mustasno, uning jufti yo‘q. Shevalarda contrast unlilar ba’zan so‘z ma’nosining farqlanishiga ham xizmat qiladi: *i:s* hidni, *is* qurumni (Qoraqalpog‘iston o‘zb. shev., shim. o‘zb. shev.), *bilüvi* “bilish”ni, *biluvii* “fikr-o‘yi, xayoli”ni anglatadi (Turkiston).



9-rasm. Kontrast (juft) unlilar

Tayanch tushunchalar:

Vokalizm [вокализм, vocalizm] – unlilar tizimi.

Konsonantizm [консонантизм, konsonantizm] – undoshlar tizimi.

Kontrast unli [контрастные гласные, contrast vowel] – old qator va orqa qator xususiyatlariga ko‘ra zidlangan unlilar.

Takrorlash uchun savollar:

1. Qarluq lahjasi shevalarida qaysi unlilar qo‘llanadi?
2. Qipchoq lahjasi shevalaridagi unlilarni tavsiflab bering.
3. O‘g‘uz lahjasi shevalarining miqdori va sifatiga tavsif bering.
4. Ā unlisining o‘zbek tilida va shevalarida tarqalishiga izoh bering.
5. Palatal va vel(y)ar undoshlar deganda nimani tushunasiz?
6. Kontrast unlilar qaysi qonunga xizmat qiladi?
7. 'k, f undoshlariga tavsif bering.

6-mavzu. O‘zbek shevalarining fonetik qonunlari

Reja

1. Singarmonizm.
2. Umlaut.
3. Diftong

Matn

O‘zbek shevalarida bir qator fonetik qonunlar amal qiladi. Ularning shevalarimizda mavjudligi o‘zbek tilining turkiy tillaga daxldorligini anglatib turadi. Jumladah, singarmonizm o‘zbek adabiy tilidan boshqa barcha tyrkiy tillarning asosiy fonetik qonunidir. Bu qonun o‘zbek tilining shahar va shahar tipidagi shevalaridan boshqa barcha shevalarida asosiy fonetik qonun sifatida amaldadir. Shuningdek, umlaut tovsh mosligi kabi qonunlar ham o‘zbek shevalarining o‘ziga xosligini ta’minlagan.

Singarmonizm. Singarmonizm lotincha unlilarning uyg‘unlashuvi demakdir. Taniqli tilshunos I. A. Bogoroditskiy fikriga ko‘ra, singarmonizm unlilar uyg‘unligi, shuningdek, qisman undoshlarga ham taalluqlidir. Undoshlarga ham

taalluqli deyilishi jaranglilik va jarangsizlik jihatidan asos va affiksning uyg‘unlashishi ko‘zda tutiladi: borgan ~ ***baryan*** (r+γ jarangli undoshlari uyg‘unlashgan), ketgan ~ ***ketkän*** (t+k jarangsiz undoshlar uyg‘unlashgan). Bunday fonetik jarayonni singarmonizm deb qarash an’anasi ham bor. Singarmonizm qonuni ikki sifat ko‘rinishiga ega:

1. *Lingval yoki palatal (tanglay) singarmonizm.* Singarmonizmning bu turida so‘zning dastlabki bo‘g‘inida old qator unlilar qatnashgan bo‘lsa, keyingi bo‘g‘inlarida ham old qator unlilar ishtirok etadi, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida orqa qator unlilar ishtirok etsa, keyingi bo‘g‘inlarida ham orqa qator unlilar qatnashadi.

Bu qonunga ko‘ra, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida ***a, u, o, ī:, ī*** unlilaridan biri qatnashsa, keyingi bo‘g‘inlarida ham ana shu unlilar keladi, shuningdek, so‘zda chuqur til orqa ***q, γ, x*** undoshlari ishtirok qilishi ham mumkin, aksincha, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida ***ä, e, i:, i, ö, ü*** unlilaridan biri qatnashsa, keyingi bo‘g‘inlarida ham xuddi shu unlilar keladi, bunday so‘zlarda ***k, g*** undoshlari ham qatnashishi mumkin. Bu qonun qarluq lahjasining shahar va shahar tipidagi shevalarida amal qilmaydi.

2. *Labial singarmonizm.* Bu qonun aksariyat turkiy tillarda amal qiladi, ayniqsa, qirg‘iz tilining “temir qonuni” hisoblanadi, o‘zbek tili va uning shevalarida esa qisman amal qiladi.

Bu qonunga ko‘ra, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida old qator lablangan unli ishtirok etsa, keyingi bo‘g‘inlarida ham old qator lablangan unli(lar) qatnashadi, aksincha, so‘zning dastlabki bo‘g‘inida lablangan orqa qator unli ishtirok etsa, keyingi bo‘g‘inlarida ham orqa qator lablangan unli(lar) qatnashadi.

O‘zbek shevalarida lab garmoniyasi qonuni so‘zlarning dastlabki ikki bo‘g‘inida qayd qilinishi xarakterlidir, uchinchi va to‘rtinchini bo‘g‘inlarida siyrak uchraydi: suyunchi ~ ***süjünči***, ko‘rindi ~ ***köründi***, bo‘libdi ~ ***boluptu***, ko‘ribdi ~ ***körüptü*** (Namangan) va boshqalar.

Singarmonizm qonuni ayni zamonda unlilarning *progressiv assimilatsiyasi* deb ham yuritiladi. Singarmonizmdan chekinish hollari: 1. Shevalarda yuklamalar

singarmonizmga bo‘ysunmaydi: qipchoq lajhasi shevalarida: bo‘ldi-ku ~ ***boldi-qu***, keldi-ku ~ ***keldi-qu***, kelding-a ~ ***kädiñ-ä***, barding-a ~ ***bardin-ä***.

2. Ayrim qo‘shimchalar bir variantli bo‘lganligi tufayli singarmonizmga bo‘ysunmasligi mumkin, masalan, qipchoq shevalarida bora qol ~ ***barayaj***, kela qol ~ ***kelayaj***; Xorazm shevalarida: (soxta) tabibchilik ~ ***sünnäčiliq***. -yaj, -čiliq affikslarining shu shevalarda old qatorli varianti bo‘lmaganligi uchun singarmonizmga bo‘ysunmagan.

3. Arab, fors, tojik tillaridan o‘zlashgan so‘zlar aslida singarmonizmga bo‘ysunadi, lekin bo‘ysunmaydigan o‘rinlari ham bor, masalan, muborak ~ ***muväräk*** (shim. o‘zb. shev.), peshona ~ ***pešana*** (shim. o‘zb. shev.)

4. Qo‘shma so‘zlarning aksariyatida singarmonizm buziladi: o‘rta barmoq ~ ***ortanterek*** (Jo‘sh), (uzun) ko‘rpacha ~ ***girdiqana*** (Qarshi, Najman), xirbachcha(mushuk bolasi) ~ ***xirbäččä*** (Mang‘it).

Umlaut. Umlaut unlilarning regressiv assimilatsiyasidir (Y. D. Polivanov). Bu hodisani adabiyotlarda singarmonizmning bir turi deb ham yuritiladi. Aslida u nemis tiliga xos fonetik qonundir. Bu qonunga ko‘ra, affiksdagiligi old qator unli asosdagi (u aksariyat hollarda bir bo‘g‘inli bo‘ladi) orqa qator unlini o‘z xarakteriga moslashtirib oladi: son ~ ***sän*** → ***sänä***, yosh ~ ***jäš*** ~ ***jäšä***.

Bu qonun Namangan, O‘sh shevalarida, qisman o‘zbek adabiy tilida ham qayd qilinadi. Namangan shevalaridan misollar: molim ~ ***mälim***, solish ~ ***säliš***, noki ~ ***näki***, toying(otning bolasi) ~ ***täjiñ***.

Singarmonizmli shevalarda yuqoridagi kabi ***san, jaš, mal, sal, näk, taj*** so‘zleri affiks qo‘shilganda, umlaut emas, balki singarmonizm qonuniga bo‘ysunadi: ***san+a, jaš+a, mal+üm, sal+iš, näk+i, taj+iñ***


Singarmonizmda chapdan (→) o‘ngga qarab, umlautda esa o‘ngdan (←) chapga qarab unlilar uyg‘unlashadi.

Singarmonizm: ***bar*** → ***ja*** → ***tir, gä*** → ***li:n*** → ***dä*** → ***vä*** → ***dim***.
Umlaut: ***bäš*** ← ***i*** (boshi), ***mäl*** ← ***i*** (moli)

10-rasm. Singarmonizm va umlautda unlilar ta’siri

Diftonglar. Singarmonizmli shevalarda diftong hodisasi ko‘p uchraydi. Har bir tovush talaffuzida ekskursiya, ish momenti (to‘xtam) va rekursiyaning to‘liq qatnashishi yoki har bir tovushning mustaqil talaffuzi *monoftongdir*. Diftong esa bir tovushda boshqa bir tovush unsurining ishtirokida yuz beradi. Adabiyotlarda diftongning ikki turi to‘g‘risida, ya’ni so‘z boshida va so‘z ichida (o‘rtasida, oxirida) qollanishi aytildi hamda diftongda unli asosiy tovush hisoblanadi.

O‘zbek shevalarida diftongning qollanishida shunday jarayon yuz beradi: talaffuzda asosiy tovush ekskursiyasi boshlanishida shu tovush artikulatsiyasiga yaqin boshqa tovush (transkripsiyada **i**, **j**, **u**, **ü**, **v**) unsurlari qo‘shiladi va to‘xtam hamda rekursiyada asosiy tovush (unli tovushlardan biri) talaffuzi saqlanadi; so‘z ichida esa ekskursiya va to‘xtamda asosiy tovush talaffuz etilgani holda, rekursiya so‘ngida **j** undoshi qatnashadi (11-rasm).



11-rasm. Diftong jarayoni

Bu fonetik hodisa qipchoq, o‘g‘uz lahjasi shevalariga xosdir: ikkinchi ~ *jekinči*, echki ~ *jeshki*, ikki ~ *jeći*, o‘ynab ~ *ojnap*. Diftongning ikkinchi turiga tush ~ *tüjš*, sut ~ *süt* misollarini keltirish mumkin.

O‘zbek shevalarida quyidagi diftonglar qayd qilinadi:

jə : ikki ~ *jeki*, ena ~ *jenä*, ellik ~ *jelüv*;

- ºo** : o‘rta ~ *"orta*, o‘yla ~ *"ojla*;
- ºö** : o‘rdak ~ *"ördäk*, o‘t(fe’l) ~ *"öt*;
- ºo** : on ~ *'on*, oy ~ *'oj*;
- üj** : kuz ~ *kü jz*, kut(fe’l) ~ *kü jt*;
- i^j** : tit(fe’l) – *ti jt*, ish ~ *i js*;
- í^j** : qiz ~ *qir jz*.

Diftonglarning vujudga kelishida birlamchi cho‘ziq unlilarning keyingi davrdagi taraqqiyoti muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Masalan, **iz** so‘zi Qorabuloq shevasida dastlab *i:z* tarzida talaffuz qilingan, so‘ng u *i'z* tarzida diftonglashgan. Diftonglar diftongoidlarni hosil qiladi, ya’ni asosiy tovush va uning tarkibida kelgan hamda unga hamohang bo‘lgan tovush unsuri birgalikda diftongoid deb yuritiladi. Masalan, *je ki* so‘zida *je* tovushlari birgalikda diftongoiddir.

Aksariyat o‘zbek shevalarida adabiy tildagi **uzum**, **uzuk**, **ipak**, **ingichka**, **ilon**, **ip** kabi so‘zlarning *jüzüm*, *jüzük*, *jipäk*, *jıñışkä*, *jilan*, *jip* kabi talaffuz qilinishi diftongga aloqasi yoq, balki so‘z boshidagi *j* mustaqil fonema (monoftong) sifatida o‘z o‘rniga ega.

Aq jilan, appaq jilan, ajdinda jatqaniñ qani?

Biz jamandin ajriliп, jaxšini tapqaniñ qani? (Xalq qo‘shiqlaridan)

So‘z boshidagi *j* undoshi qipchoq shevalarida “*ž*” undoshiga mos keladi va tovush mosligini hosil qiladi: *žüzim*, *žüzik*, *živäk*, *žıñışkä*, *žilan*, *žip*.

Shuningdek, o‘zbek tilidagi va shevalaridagi **-iy** (sinfiy), **-uv** (biluv) kabi qo‘llanishlar ham diftong emas.

Tayanch tushunchalar:

Diftong va diftongoid [дифтонг и дифтонгоид, diphthong and diphthongoid] – bir tovushda ikkinchi bir tovush ekskursiyasining yoki rekursiyasining qatnashishi.

Fonetik qonun [фонетический закон, phonetic laws] – o‘zbek shevalarida amal qiladigan tovush talaffuzi va u bilan bog‘liq holda yuz beradigan fonetik hodisa.

Labial singarmonizm [лабиальный сингармонизм, labial singarmonizm] – lablangan unlilar uyg‘unligi.

Lingval singarmonizm [лингвальный сингармонизм, lingual singarmonizm] – old qator va orqa qator unlilar uyg‘unligi.

Singarmonizm [сингармонизм, singarmonizm] – unlilar uyg‘unligi.

Umlaut [умлаут, umlaut] – unlilarning regressiv assimilatsiyasidir.

Takrorlash uchun savollar:

1. Singarmonizm nima, uning qanday turlari bor?
2. Singarmonizm undoshlarga ham aloqadormi?
3. Singarmonizmdan chekinish holatlarini izohlab bering.
4. Umlaut qanday xususiyatga ega?
5. Singarmonizm va umlaut qaysi jihatlari bilan o‘xshash va farqli?
6. Monoftong, diftong va diftongoid nima?

7- mavzu. O‘zbek shevalarida fonetik jarayonlar

Reja

1. Tovushlarning kombinator va pozitsion o‘zgarishlari.
2. Unlilar cho‘ziqligi turlari.
3. Tovush mosligi

Tovushlarning kombinator va pozitsion ozgarishlari. Assimilatsiya. Odatda assimilatsiya unli va undoshlar tizimida baravar qayd qilinadi, lekin ko‘proq undoshlar bilan bog‘liq fonetik qonundir. Uning progressiv va regressiv, to‘liq va to‘liqsiz assimilatsiya turlari bor.

Progressiv assimilatsiyada oldingi tovush keyingi tovushni o‘ziga singdirsa, regressiv assimilatsiyada keyingi tovush oldingi tovushni o‘ziga o‘xshatadi.

To‘liq assimilatsiyada o‘zaro bir-biriga singib ketadigan tovushlar tushuniladi. Misollar: oldi ~ *ālli* (Qarshi, Shahrisabz), suvni ~ *suvvi* (Toshk.), bo‘ldi ~ *boddi* (Shahrisabz), jonlanish ~ *žällaniš*, senlar ~ *sellär* (Mahg‘it), sochni ~ *sāčči* (Toshkent vil.).

To‘liqsiz assimilyatsiyada tovushlar aynan bir-biriga singmaydi, balki jarangli-jarangsizlik va boshqa holatlariga (masalan, artikulatsiyasi yaqinligi) ko‘ra qisman o‘xshab ketishi mumkin: oshgan ~ *āškän*, ishga ~ *iškä*, ketgan ~ *ketkän* (Toshk.), o‘zimdan ~ *özimnän* (Xorazm.).

Dissimilatsiya. So‘z tarkibidagi undoshlarning boshqa tovush ta’sirisiz tovush variantiga ega bo‘lishi dissimilatsiyadir: *zarar* ~ *zälär*, *devor* ~ *duvāl*, *änj’r* ~ *änžil*, *qimmat* ~ *qī:jmat*.

Sandhi. Bunda ikki so‘zning talaffuzi jarayonida oldingi so‘z nihoyasidagi undosh keyingi (boshlanuvchi so‘zdagi) tovushga qisman moslashadi: menga ber ~ *mayamber*, hayron bo‘ldim ~ *häjrāmbollim* yoki dastlabki so‘zning oxirgi tovushi (keyingi so‘z unli bilan boshlansa) jaranglashadi: bolak odam ~ *bölägadam*, kerak edi ~ *kerägidi*.

Spirantizatsiya. Nutq jarayonida portlovchi tovushning sirg‘aluvchi variantiga ega bo‘lishi spirantizatsiyadir: yubordi ~ *žüvärdi* (qipchoq), sabr qildi ~ *savir qıldi* (Xorazm), gapi ~ *gävi* (qipchoq).

Spontan o‘zgarishlar (jaranglashish). U biror tovush ta’sirida yuz bermaydi, balki shevaning tarixiy rivojlanishi bilan bog‘liq boladi: suyak ~ *süjäg* (Namangan), qarg‘a ~ *yarya*, sariq ~ *sarıy* (qipchoq).

Metateza. U so‘z tarkibida undoshlarning o‘rin almashishidir. Qipchoq va Xorazm shevalarida: qo‘shni ~ *qoňši*, qumursqa ~ *qurmusqa*, tekshir ~ *teşkär*.

Reduksiya so‘z tarkibida ayrim tovushlar pozitsiyasining kuchsizlanishidir: kishi ~ *k(i)š(i)*, keta ber ~ *ket(i)vur*, Sharif ~ *Šär(i)p*.

Eliziya tovush tushishi bo‘lib, ikki ko‘rinishga ega, ya’ni ikki so‘z (qo‘shma so‘z) talaffuzida oldingi so‘z tarkibidagi unli tovushning tushib qolishi: bora oldi ~ *bäräldi(a)*, ko‘ra oldi ~ *köräldi(ä)* va so‘z tarkibidagi pozitsiyasi kuchsizlangan undoshning tushib qolishidir: bo‘lsang ~ *bo:san(l)*, bersang ~ *be:sän(r)*, ushlat ~ *u:šat(l)*, qichqir ~ *qicir(q)* (Xorazm), tashlama ~ *täšämä(l)* (Toshkent), boradi ~ *baržaq*, oladi ~ *alžaq* (a) (Mang‘it). *Unlilarining orttirilishi* (proteza): loy ~ *īlaj*, lof ~ *īlapī* (qipchoq). Unlilarining orttirilish so‘z o‘rtasida ham yuz beradi: kasb ~ *käsim*, umr ~ *umur*, vaqt ~ *vaqit* (Toshkent vil.)

Undoshlarning takrorlanishi (geminatsiya): qari ~ ***qarri***, ariq ~ ***arriq***, ashula ~ ***ašulla***, saqich ~ ***saqqiz***, kichik ~ ***kičči***, ulug‘ ~ ***ulli*** (Mang‘it)

So‘z boshida va o‘rtasida undoshlarning orttirilishi: ayvon ~ ***hajvan***, duchor ~ ***duvčar***, necha ~ ***nejčä*** (qipchoq). So‘z boshida **h** undoshining orttirilishi ayrim shevalar uchun o‘ziga xoslikni ham bildiradi. Masalan, Mang‘it shevasida bu holat ko‘zga tashlanadi: ari ~ ***hari***, ayyor ~ ***hajjar***, ayol ~ ***hajal***, olis ~ ***halis***, natija ~ ***nätinžä***, eshik ~ ***eshshik***, halidan ~ ***hälittän*** (Andijon)va boshqalar.

Undoshlarning so‘z boshida tushishi: hatla ~ ***atla***, hurkdi ~ ***ürkti***, hisob ~ ***sap***, ho‘kiz ~ ***ökiz***, yog‘och ~ ***ayač(š)*** (o‘g‘uz, shim. o‘zb. shev.), hashar ~ ***äšär***, hafsala ~ ***äpsälä***, yil ~ ***il***, hid ~ ***id*** (Andijon) .

Unlilarning birlamchi, ikkilamchi va emfatik cho‘ziqliklari.

Birlamchi cho‘ziqlik. Turkiy tillarning dastlabki davrlarida so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida unlilar cho‘ziq talaffuz etilgan. Bunday cho‘ziqlik boshqa tovush ta’sirida yuz bergen emas, balki qadimgi turkiy tilning tabiati bilan bog‘liqdir. Unlilarning bunday cho‘ziqligi hozirgi Xorazm, Forish va shimoliy o‘zbek shevalarida saqlanib qolgan: tush (tush ko‘rish) ~ ***tu:š***, ot (ism) ~ ***a:d***, bosh ~ ***ba:š***, tuz ~ ***du:z*** va boshqalar. Bunday cho‘ziqlik *birlamchi cho‘ziqlik* deyiladi. Birlamchi cho‘ziqlik boshqa shevalarda ham ba’zan uchrab turadi, jumladan, Farg‘ona shevalarida bil ~ ***bi:l*** (bilmoq), Buxoro o‘zbek shevalarida til ~ ***ti:l***, Andijon shevalarida teri ~ ***te:ri*** (qo‘yning terisi), qari ~ ***qa:ri*** (qariya), to‘ri ~ ***tö:ri*** (uyning to‘ri), Quyi Qashqadaryo shevalarida qani ~ ***qa:nī***, ular ~ ***o:lar*** so‘zlarida qayd qilinadi.

Ikkilamchi cho‘ziqlik. So‘z tarkibida biror undosh tovushning nutqda talaffuz qilinmasligi natijasida unli tovush cho‘zilishi mumkin: sandiq ~ ***sändu:***, o‘rtoq ~ ***ortā:*** (Toshkent), bo‘l ~ ***bo:***, ol ~ ***a:*** (shim. o‘zb. shev.), Namangan shevalarida: tegmas ~ ***te:mäś***, laylak ~ ***lä:lä:***. Bunday cho‘ziqlik ikkilamchi cho‘ziqlik deyiladi. Shevalarda bunday cho‘ziqlik ko‘pincha **h** undoshining tushib qolishi bilan yuz beradi: Ahmad ~ ***Ä:mät***, dahliz ~ ***dä:liz***, mehr ~ ***me:r***, qahr ~ ***qa:r***.

Sinerezis. Ikkilamchi cho‘ziqlik sinerezisga ham olib keladi. Ma’lumki, intervokal pozitsiyadagi undoshning nutqda iqtisodga uchrashi natijasida yonma-

yon kelib qolgan ikki unli o‘zaro singishib, nutqda cho‘ziq unlini hosil qiladi. Bu fanda sinerizis hodisasi deyiladi. Shevalarimizda bunga misollar ko‘plab topiladi: zahar ~ *zä:r*, shahar ~ *šä:r* (Buxoro), o‘g‘il ~ *u:l* (qipchoq), sihat ~ *sä:t* (Baliqchi).

Uchlamchi (*emfatik*) *cho‘ziqlik*. Bunday cho‘ziqlik Namangan shahar shevasining hozirgi-kelasi zamon fe'lida yorqin ko‘rinadi, ya’ni bu fe'l shaklida qatnashadigan ravishdosh ko‘rsatkichi *ä* va boshqa shakllarda ishtirok etgan *ä* unlisi odatdagiga nisbatan cho‘ziq talaffuz qilinadi yoki uning bo‘lishsiz shaklida *j* undoshi tushib qolishi ham mumkin va bo‘lishsizlik affiksidiagi *ä* unlisi ham ikkilangan cho‘ziqlikka ega bo‘ladi: bilmayman ~ *bi:lmä::(j)mä:*, bo‘lmaydi ~ *bomä::(j)di*, men aytmayman ~ *mä: ätmä::(j)mä*, sen bilmaysan ~ *sä: bi:lmä::(j)sä:*

Tovush mosligi. O‘zbek shevalaridagi so‘zlarni boshqa sheva va adabiy til bilan qiyoslaganda, shunday fonetik holatlar ko‘zga tashlanadiki, bir so‘z ayni ma’nosini saqlagan holda, ulardagi ayrim unli yoki undosh tovushlar farq qiladi, lekin bu o‘zgarish so‘z ma’nosiga putur yetkazmaydi: doppi ~ *toppi* (Toshkent), kel ~ *gäl* (Xorazm), yo‘l ~ *žol* (qipchoq), shu ~ *šo* (qipchoq), choy ~ *čäj* (qipchoq), bedana ~ *bödänä* (Turkiston). Bu kabi so‘zlardagi *t // d*, *k // g*, *j // ž* undoshlari va *e // ä*, *u // o*, *e // ö* mosligi namoyon bo‘ladi. Shuningdek, Forish shevasida ham *e // ä* (battar ~ *betär*, mayli ~ *mejli*, sakkiz ~ *sekkiz*), *ü // ö* (uy ~ *öj*, umr ~ *ömur*), *b // v* (bor ~ *va:r*, bilan ~ *vilän*, besh ~ *veš*), *v // g* (tovush ~ *dögüs*, qarovul ~ *qaragul*), *p // b* (pichoq ~ *büčaq*, pishadi ~ *bišädi*) mosliklari qayd qilinadi. Bir qator Shevalarda so‘z o‘rtasida *š // j* mosligi mavjud: tashlab ~ *täjläp* (Surxondaryo).

Qipchoq lahjası shevalarini boshqa lahjalardan ajratib turadigan tovush mosligi ham bor. Bu so‘z boshida *j // ž* undoshlarining kelishidir: Javzo oyida yog‘in yoqqandan ilon yoqqan yaxshi ~ *žavzada žavun žavyannan žilan žavyan žaxši // jaxši*.

Adabiyotlarda tovushlarning *j ~ r* mosligi (*bir ~ bij*) rotatsizm, *š ~ l* (*tänil ~ täniš*) mosligi esa lambdaizm deb ham yuritiladi.

Tayanch tushunchalar:

Assimilatsiya [ассимиляция, assimilation] – unli va undoshlarning bir-birlariga singishi yoki o‘ziga o‘xshatib olishi.

Dissimilatsiya [диссимилияция, dissimilation] – undosh tovushlarning bir pozitsiyada farqlanib qolishi, noo‘xhashligi.

Tovush mosligi [соответствие гласных, correspondence of sound] – so‘z ma’nosi ssqlqniq qolgan holda yuz beradigan tovush o‘zgachaliklari.

Unlilar cho‘ziqligi [долгота гласных, length of vowels] – unlilarning boshqa tovush ta’sirida va uning ta’sirisiz cho‘zilishi.

Takrorlash uchun savollar:

1. So‘zda qanday tovush o‘zgarishlari yuz berishi mumkin?
2. Unli va undoshlar bilan bog‘liq yana qanday qonuniyatlarni bilasiz?
3. Shevangizdan yuqoridagi fonetik hodisalarga misollar keltira olasizlarmi?
4. Unlilar cho‘ziqligining qanday sifat turlari bor?
5. Sinerezis qaysi fonetik hodisa bilan birga yuzaga keladi?
6. Tovush mosligi nima va unga shevangizdan misol keltira olasizmi?

8-mavzu: O‘zbek shevalarining grammatik xususiyatlari

Grammatik kategoriyalar

Reja

1. O‘zbek shevalarida grammatik son va egalik kategoriyasi.
2. O‘zbek shevalarida egalik kategoriyasi.
3. O‘zbek shevalarida kelishik kategoriyasi.

Matn

O‘zbek tilining grammatik kategoriyalari o‘zbek adabiy ntili va shevalari uchun shaklan bir xil bo‘lib, uni tashkil etadigan so‘z shakllari, to‘g‘rirog‘i, affikslarining rang-barangligi bilan adabiy tildan farqlanadi. Albatta, shevalarning bu xususiyati uning boyligidan darak beradi.

Ma'lumki, grammatik kategoriyalar so'z shakllarining birlasha olish qobiliyati nuqtai nazardan tashkil topadi, ya'ni so'z shakllarining ayni bir xil grammatik vazifa bajarishi jihatidan birlashishi ko'zda tutiladi.

Grammatik son kategoriyasi. U birlik va ko'plik (jamlik) shakllaridan tashkil topadi. Ma'lumki, birlik son ko'plik songa zid qo'yilishi asosida belgilanadi, lekin fe'l shakllarida birlik va ko'plik o'z ko'rsatkichlariga ega bo'ladi (bu haqda o'z o'rnida fikr yuritiladi).

Ko'plik ma'nosini ifodalashda shevalarda **-lä, -lar, -när, -nar, -nä, -är, -ää, -lä, -la, -där, -dar, -tär, -tar** kabi qo'shimchalar qo'llanadi. O'zbek shevalari uchun **-lä** arxivariant hisoblanadi va u barcha o'zbek shevalari uchun umumiyydir. Shevalarda ko'plik affiksining quyidagi variantlari amalda bor:

-lä varianti Toshkent shahar va Xorazm shevalarida faol qo'llanadi: uylar ~ **ojlä**, qo'yinglar ~ **qojijlä**, gullar ~ **güllä**, kunlar ~ **güllä**;

-nä varianti Namangan shevasida qayd qilinadi: uyinglar ~ **ujijnä**, qo'yinglar ~ **qojijnä**;

-la varianti esa Xorazm shevalarida uchraydi: qizlar ~ **qï:zla**, ular ~ **^hula**;

-ää // är varianti shahar va shahar tipidagi shevalarda qo'llanadi: bizlar ~ **bizä(p)**, sizlar ~ **sizä(p)**;

-när, -nar, -där, -dar, -tär, -tar affikslari qipchoq shevalariga xosdir: uzumlar ~ **üzümnär**, mehmonlar ~ **mehmannar**, jigitlar ~ **žigittär // žigillär**, ojinlar ~ **ojundar** (qipchoq).

O'zbek tilining Qorabuloq, Iqon shevalarida (ko'rsatish olmoshlarida) tarixiy qo'sh ko'plik shakli uchraydi: bular ~ **bulalar**, shular ~ **šulalar** (aynan: **bu+lar+lar, shu+lar+lar**).

-lä affiksi va uning variantlari Toshkent, Farg'on'a va Xorazm shevalarida **hurmat** ma'nosini ham ifodalaydi. (**Misollar kerak**)

Ayrim shevalarda ko'plik, jamlik ma'nolarini ifodalovchi maxsus affikslar ham bor, masalan, Toshkent dialekti shevalarida quyidagi affikslar uchraydi:

-lig affiksi: kiyimlari ~ **kijimligi**, ishlari ~ **ishligi**;

-lug affiksi: o'zları ~ **ozlugi**, uyları ~ **ojlugi**.

-gi affiksi shaxsni bildiruvchi so‘zlarga qo‘shiladi: *ājimgilä* (unda oyisi va boshqa shaxslar birgalikda tushuniladi), *ädämgilä* (bunda ham adasi va boshqa shaxslar birgalikda tushuniladi). Jamlik affiksining bu varianti Tojikiston Respblikasi Topqoq shevasida ham *ājimgilä*, *äkäηgilä*, *sijniηgilä* tarzida qo‘llanishda bor.

Til tarixida ko‘plikning *-t*, *-z*, *-q* // *k* affikslari bilan ifodalangan shakllari mavjud bo‘lgan. Ularning qoldiqlari, ya’ni *-q* affiksining *-aq* varianti Surxondaryoning Jarqo‘rg‘on, Termiz, Sherobod tumanlarida yashovchi qo‘ng‘irotlar shevalarining ayrim so‘zlarida saqlanib qolmoqda. Ular, asosan, olmosh va fe’l shakllarida uchraydi: Sizlar borip keldingizlarmi ~ *sizaq barip kediηizaqmi?* O‘zingizlar ~ *”öziηizaq*. Bu affiks faqat orqa qator variantli bo‘lib, ko‘plik ma’nosini eslatib tursa-da, ushbu o‘rinlarda mavjud ko‘plikni ta’kidlashga xizmat qilgan.

Shuningdek, Tojikistondagi o‘zbek shevalarida asos va ko‘plik affiksidiagi *-l* // *t* metatezasi qayd qilingan: burgutlar ~ *bürgültä*, tutlar ~ *tulta*, otlar ~ *olta* va b. Bunday holat boshqa shevalarda uchramaydi.

Egalik kategoriyasi. Bu kategoriyadagi shakllarning semantikasi adabiy til bilan aynan, lekin shevalarda egalik qo‘shimchalari ko‘p variantli bo‘ladi va shu bilan ular adabiy tildan farqli xususiyatlarga ham ega.

I shaxs birligida *-m* // *im* // *üm* // *um* // *üm* affiksi qatnashadi: bolam ~ *balam*, inim ~ *inim*, alim (qo‘lim) ~ *älim*, jonim ~ *žanüm*, qo‘lim ~ *qolum*, ko‘nglim ~ *köηlüm*.

I shaxs ko‘pligida *-miz* // *miz(s)* // *imiz/imiz(s)*, *-umuz(s)* // *ümüz*, *-vuz* // *vuzä* affiksi qatnashadi: balamiz ~ *balamiz/s*, inimiz ~ *inimiz*, jonimiz ~ *žanümiz/s*, qolimiz ~ *qolumuz/s*, ko‘nglimiz ~ *köηlümüz*, ishimiz ~ *išivuz(ä)*.

II shaxs birligida *-η* // *inη* // *inη* // *uη* // *üη* affikslari keladi: bolang ~ *balanη*, ining ~ *iniη*, aling (qo‘ling) ~ *älinη*, joning ~ *žaninη*, qo‘ling ~ *qoluη*, ko‘ngling ~ *köηlüη*.

II shaxs ko‘pligida *-ηiz* // *ηiz(s)*, *-iηiz* // *iηiz(s)*, *-üηüz* // *uηuz(s)*, *-i:z*, *-jiz*, *-i:jlä*, *-(i)ηlä* // *(i)ηla* affikslari ishtirok etadi: balangiz ~ *balanηiz/s*, iningiz ~ *iniηiz*,

joningiz ~ *žanīñiz/s*, qolingga ~ *qoluñuz/s*, ko'nglingiz ~ *köñünüñüz*, ishinglar ~ *i:šinlä*, qo'linglar ~ *qolïňla* (Xorazm), uyinglar ~ *ojijlä*, bolg'angiz ~ *bolyäjiz* (Toshkent vil.).

III shaxs birlik va ko'pligida *-i // i*, *-si // si*, ba'zan *-su // sü* (Qorabuloq) affiksilari qatnashadi: bolasi ~ *balasi*, inisi ~*inisi*, ali (qo'li) ~ *äli*, jon ~ *žani*, talkisi ~ *tülküsü*, qoyi ~ *qoju*.

Egalik affikslari singarmonizmning palatal va labial turlari qonuniyatlariga to'la boy'sunadi, lekin shevalarda muayyan qonuniyat bilan bog'lash mumkin bo'limgan xususiyatlar ham uchraydi va uni nutq qulayligi, iqtisodi hamda til tarixi bilan bog'lash mumkin bo'ladi, masalan, Toshkent shevasida I shaxs ko'pligida *-vuz // vuzä* affiksi qatnashadi: kitobimiz ~ *kitāpuvuz*, II shaxs ko'pligida esa *-i:z // ijiz // jlä* affiksi qatnashadi: kitobingiz ~ *kitāpi:z*, kitoblaring ~ *kitāpijlä*.

Kelishik kategoriyasi. Ma'lumki, turkiy tilning dastlabki taraqqiyot davrida 7ta kelishik shakli bo'lgan, hozirgi o'zbek adabiy tili 6ta kelishik shakliga asoslanadi. O'zbek shevalarida esa ba'zan bu raqam to'rttagacha kamayishi mumkin. Faqat qipchoq hamda shimoliy o'zbek shevalaridagina 6ta kelishik shakli to'liq saqlanadi. O'g'uz lahjasining aksariyat shevalarida, Toshkent, Farg'ona shevalarida 5ta kelishik qo'llanadi, ya'ni qaratqich va tushum kelishiklari bir ko'rsatkich bilan ifodalanadi. Qarshi, Buxoro, Surxondaryoning "j" lovchi shevalarida 4ta kelishik qayd qilinadi, ya'ni qaratqich va tushum kelishiklari bir xil ko'rsatkich bilan, jo'nalish va o'rin-payt kelishigi ham bir xil ko'rsatkich bilan ifoda qilinadi.

Bosh kelishik. Ko'rsatkichi yo'q.

Qaratqich kelishigi. Bu kelishik qarluq lahjasining aksariyat shevalarida, o'g'uz lahjasining ayrim shevalarida funksional emas, ya'ni to'rt va besh kelishikli shevalarda bu kelishik affikslari qo'llanmaydi. Bu kelishik amalda bo'lgan shevalarda quyidagi affikslar qatnashadi:

-niŋ // niŋ affiksi ko'proq unli va sonor undoshlar bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: ena ~ *enäniŋ*, otaning ~ *ataniiŋ* (qipchoq), otangning ~ *ataŋniŋ*,

bedananing ~ **bödänäniŋ** (Mang‘it). Jo‘sh, Sherobod shevalarida **z** undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda affiks tarkibidagi **n** undoshi progressiv assimilatsiyaga uchraydi: bizning ~ **bizziŋ**, sizning ~ **sizziŋ**.

-**iŋ** // **iŋ** affiksi undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladi: ko‘pning toyi ~ **köpiŋ tojī**, otning boshi ~ **atīŋ baši** (qipchoq);

-**nüŋ** / **/nuŋ** affiksi lablangan unli qatnashgan va unli yoki sonor undoshlar bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladi: uning ~ **onuŋ**, uyning ~ **üjnün** (qipchoq);

- **üŋ** // **uŋ** affiksi lablangan unli qatnashgan va undoshlar bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladi: ko‘zning qorachig‘i ~ **közüŋ qaračiŋi**, tunning qorong‘usi ~ **tünüŋ qaraŋisi**, qo‘yning juni ~ **qojuŋ jüni** (shim.o‘zb. shev.);

-**dıŋ** // **dın** affiksi jarangli undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladi: bizning ~ **bizdin**, ularning ~ **olardıŋ** (qipchoq), bekning ~ **begdiŋ**.

-**düŋ** // **duŋ** affiksi lablangan unli qatnashgan va jarangli undoshlar bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladi: qoyning ~ **qojduŋ**, ko‘zning ~ **közdüŋ** (qipchoq);

-**tiŋ** // **tıŋ** affiksi jarangsiz undoshlar bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladi: katakning ~ **kätäxtiŋ**, otning ~ **attıŋ** (qipchoq), Mang‘itning ~ **Mayyittıŋ**, yigitning ~ **jigittiŋ** (Mang‘it) .

Tushum kelishigida quyidagi affikslar qatnashadi:

-**ni** // **nř** affiksi: olmani ~ **ālmäni** (Toshkent.), suvni ~ **suvnř** (shim. o‘zb. shev.). -**ni** varianti arxivariant hisoblanadi va barcha shevalarda qo‘llana oladi;

-**i** affiksi undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilgan, Qorako‘l va Olot shevalarida amalda bor: ishni qil ~ **i:ši qil**, so‘zni bilmasang gapirma ~ **sözi bilmäsäŋ gäpirmä**;

-**nü** // **nu** affiksi oxirgi bo‘g‘inida lablangan unli bo‘lgan so‘zlarga qo‘shiladi. Qorabuloq, Mankent shevalarida uchraydi.

-**di** // **dř** // **ti** // **ťi** affiksi undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladi va barcha singarmonizmli shevalarda bor: tog‘ni ~ **tavdi**, yigitlarni ~ **žigittärđi**, otlarni ~ **attardı** (qipchoq), mehnatkashni ~ **mijnätküšti**. -**di** // **ti** varianti Farg‘ona guruh shevalarida ham qo‘llanadi: uyni ~ **ujdi**, ishni ~ **ištì**, bug‘doyni ~ **buvdeydi** (Pop)

Aksariyat shevalarda tushum kelishigi affiksidiagi *n* undoshi kuchli assimilatsiyaga uchraydi. Bu ayniqsa Toshkent shevasida yaqqol ko‘rinadi: qo‘lni ~ *qolli*, boshni ~ *bāšši*.

Tushum kelishigining belgisiz qo‘llanishi barcha shevalarga xosdir: Biz keldik kelin ko‘rgani ~ *biz kellij kelin korgäni*. Shumchuq soysa ham, qassob soysin ~ čumčuy sojsäjäm. qässäp sojsun (Qarshi).

Jo‘nalish kelishigida quyidagi affiksklar ishtirok etadi:

-*gä* // *kä* // *qa* // *ya* affiksi. Bu affiksning barcha variantlari singarmonizmli shevalarda qo‘llanadi. Singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda –*gä* // *kä* varianti uchraydi, xolos: uyga ~ *üjgä*, yurtga ~ *jurtkä*, ishga ~ *iškä*; (Toshkent vil.) -*qa* // *ya* varianti singarmonizmli shevalarda orqa qator unlilar kelgan asoslarga qo‘shiladi: o‘qishga ~ *oqušqa*, dalaga ~ *dalaya*;

-*a* // *ä* affiksi o‘g‘uz guruh shevalarida va shimoliy o‘zbek shevalariga xosdir: qo‘limga ~ *qolüma*, gullarga ~ *güllärä*;

-*na* // *nä* affiksi o‘g‘uz shevalarida uchraydi: alina (qo‘liga) ~ *älinä*, bolasiga ~ *balasïna*;

-*ja* // *jä* affiksi Qarshi shevasida uchraydi: xurmaga ~ *xurmaja*, o‘ziga ~ *özijä*, U katta akasiga xurmada qatiq olib borayotgan chog‘da yo‘lda yomg‘ir yog‘g‘an ~ *O kättä äkäsijä xurmäjä qätix āb bārgän čāxxä jolgä jäymur jāqqän*.

Jo‘nalish kelishigi affikslari **4** kelishikli shevalarda o‘rin-payt kelishigi ma’nosini ham ifodalaydi. Bu yuqoridagi *xurmaja*, *čāxxä*, *jolgä* misollaridan ham ko‘rinib turibdi.

O‘g‘uz lahjasi shevalari va shimoliy o‘zbek shevalarida jo‘nalish kelishigidagi kishilik olmoshlari menga ~ *maṇa*, senga ~ *saṇa*, unga ~ *uṇa* shaklida, qipchoq lahjasi shevalarida esa *mayan*, *sayan*, *oyan* shaklini oladi.

O‘rin-payt kelishigida -*dä* // *da* // *tä* // *ta* affiksi qatnashadi. -*dä* // *tä* affiksi barcha shevalarda, -*da* // *ta* affiksi esa singarmonizmli shevalarda keladi: ishda *ištä*, qo‘lida ~ *qo‘luda*, ichida ~ *i:čindä*, shu orada ~ *šu ortalığıta* (qipchoq).

Shiqish kelishigida 4 toifa affikslar ishtirok etadi:

-*dän* // *dan* // *tän* // *tan* affiksining qo'shilish imkoniyatlari keng:

dän // *tän* affiksi barcha shevalarda qo'llana oladi: Buxorodan ~ *Buxārādän*, sendan ~ *sändän*. Boshqalari esa singarmonizmli shevalarga xosdir: yaprog'idan ~ *jarpaqidän*, maxluqdan ~ *maxluqtan* (qipchoq);

- *nän* // *nan* affiksi Xorazm, ba'zi qipchoq shevalarida **m**, **n**, **ŋ** undoshlari bilan tugagan sozlarga qo'shiladi: o'zingdan ~ *özinqän*, bo'yingdan ~ *bojuqnan*, o'zimdan ~ *özimnän*, o'yindan ~ *ojinnan*;

-*din* // *din* // *tin* // *tin* affiksi shimoliy o'zbek shevalarida bu kelishikning asosiy affiksidir: sutchidan ~ *süjtčidin*, oshxonadan ~ *ašxanadin*, topa olmasdan ~ *tapamastin*, Chimkentdan ~ *Čimgättin*;

-*dun* // *dün* // *tun* // *tün* affiksi ko'proq Qorabuloq, Mankent shevalarida va bir qator singarmonizmli shevalarda uchraydi va oxirgi bo'g'inida lablangan unli bo'lgan so'zlarga qo'shiladi: uydan ~ *üjdün*, qo'ydan ~ *qojdun*.

O'g'uz va qipchoq lahjasi shevalarida egalik va kelishik affikslari o'rtasida interkalar **n** tovushining kelishi ham kuzatiladi: qo'llarida ~ *qollarında*, so'zidan ~ *sözinnän*, o'zida ~ *özindä*.

Tayanch tushunchalar:

Shevalarda egalik kategoriyasi [категория притяжательности в говорах, the category of possessive in dialects] – shevalardagi egalik shakllarini birlashtiruvchi tushuncha.

Shevalarda grammatik son kategoriyasi [категория грамматического числа в говорах, the category of grammar plurality in dialects] – shevalardagi birlik, juftlik va ko'plikni birlashtiruvchi tushuncha.

Shevalarda kelishik kategoriyasi [категория падежа в говорах, case category in dialects] – kelishik shakllarini birlashtiruvchi tushuncha.

Turlanish [склонение, deklenzion] – kelishik qo'shimchalari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Grammatik kategoriya qanday belgilanadi?
2. Har bir ko'plik affiksining qanday asoslarga qo'shilishi qonuniyatini tushuntirib bering.

3. Qaysi shevalarda ko‘plik affiksining alohida turlari bor?
4. Egalik shakllaridagi affikslarning variantlaridan qaysilari adabiy tildan jiddiy farq qiladi?
5. Kelishik shallari miqdorining rang-barangligi nima bilan bog‘liq?
- 6.** Bu kategoriyalarda affikslarning asosga qo‘shilish qonuniyatlarini aytib bera olasizmi?

9-mavzu. O‘zbek shevalaridagi fe’llarning xususiyatlari

Reja

1. Fe’lning funksional shakllari.
2. To‘la yoki I-tip tuslovchilar yoki.
3. Qisqargan yoki II-tip tuslovchilar.
4. Buyruq-istak shaklida qo‘llanuvchi tuslovchilar.

Fe’lning funksional shakllari. Sifatdosh shakllari. Bu shakllarda tubandagi affikslar qatnashadi:

-r // ar // är affiksi. Bu affiksning bo‘lishsiz shaklida -s qo‘shimchasi keladi: Korar-ko‘rmasdan gəpira berma ~ **Körär-körmästän gäpirä:ärmä.** (Andijon) Shevalarda sifatdoshning **-ur // ür** varianti qo‘llanmaydi. Faqat adabiy til qolipidagi matnlarda qayd qilinishi mumkin:

Qaldırıyaş qara bolur,

Qanatı ala bolur (shim. o‘zb. shev.);

-miş // mis // müš // muš affiksi. Singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda faqat **-miş // muš** varianti qo‘llanadi: borgənmish ~ **bārgämmuš** (Toshkent), aytgan mish ~ **äjtgänimuš** (Farg‘ona);

-gän // kän // yan // qan affiksi variantlarining barchasi **singarmonizmli** shevalarda uchraydi:

Ba:ssimda ḡon lä:pär ba:jin qī:zīma(n).

Ā:limdā du:tarim, ḡo:jin sa:zīma(n).

A:tam-ä:näm sävgänimä värmäsä,

Aqqin su:va aqqanima razīma(n) (Xorazm laparlaridan).

Bu affiks so‘ngidagi **n** undoshi ayrim shevalarda regressiv assimilatsiyaga uchrashi mumkin: kelganlarga qaranglar ~ **kegällärgä qarajläär** (Andijon). Singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda faqat **-gän** // **kän** varianti ishlatiladi: qo‘ygan ~ **qojgän**, topgan ~ **täpkän** (Toshkent);

-än // **an** affiksi o‘g‘uz lahjasiga oid shevalarda uchraydi: borayotgan ~ **baratiran**, kelgan ~ **gälän**;

-doyon affiksi. Bu affiks shimoliy o‘zbek shevalarida uchraydi va u bir variantlidir: boradigan ~ **baradoyon**, keladigan ~ **kälädoyon**;

-žaq // **žäk** affiksi: olmoqci ~ **alžaq**, ketmoqchi ~ **gitžäk** (Xorazm);

-ası // **äsi** affiksi: borgim keldi ~ **barasım gäldi**, ichgim keldi ~ **i:čäsim gäldi** (Xorazm);

-äjči: affiksi: borayotgan edim ~ **bäräjči:dim** (Quyi Qashqadaryo);

-guči affiksi Xo‘jand shevasida qayd qilinadi va bu affiksdagı *i* unlisi lab garmoniyasiga uchraydi: boradigan edim/eding/edi ~ **bärgučudum**, **bärgučuduŋ**, **bärgučudi**. Faqat III shaxs tuslanishidagina bu unli lablanmaydi.

-gič // **γič** // **kič** // **qič** affijsi Surxondaryo qipchoq shevalarida keng qo‘llangan: haydar ~ **häjdägič**, olar ~ **āyič**, qaynatar ~ **qajnatqič**, ketar ~ **ketkič**; - kelar edi ~ **kelgičidi**, aytar edi ~ **äjitkičidi** (Baliqchi).

-ävli // **uvli** affiksi ham Surxondaryo qipchoq shevalarida qayd qilihadi va u **-gän** affiksli sifatdoshga sinonim bo‘ladi: *Qaj vax qajtsayam üji šipiruvli* (*supurilgan*), *avqatü piširüvli* (*pishirilgan*). **žügi tännävli** (*tanlangan*), **kiri žuvuvli** (*yuvilgan*), **malü bäjlävli** (*bog ‘langan*).

Ravishdosh shakllari. Bu shaklda ham bir necha affikslar qatnashadi:

-ä // **a** // **j** affiksi. Bu affiks varianti barcha singarmonizmli shevalarda bor. Singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda faqat **-ä** // **j** varianti qo‘llanadi: ketä berdi ~ **ketävurdi** (Marg‘ilon), o‘ynay-o‘ynay **ojnaj-ojnaj**, bora-bora ~ **bärä-bärä**. Xorazm shevalarida uning bo‘lishsiz shakliga yana **-in** // **in** ta’kid affiksi qo‘shiladi va bu affiks tarkibidagi **a/ä** unlilari **i/i** unlilariga o‘zgaradi: ko‘rmay ketdi ~ **görmijin gitti**, olmay ketti ~ **almijin gitti**;

-p // ip // ıp affiksi. Bu affiksning jarangsiz undosh bilan tugagan variantlari barcha shevalar uchun xosdir: ishlab ~ *išläp*, olib ~ *alip*, lekin qipchoq shevalarida bir qator pozitsiyalarda uning jaranglashgan varianti ham mavjud: borib edi ~ ***barib/v edi***, kelib edi ~ ***kelib/v edi***. **-üb // ub // üp // up** varianti shevalarda uchramaydi, lekin adabiylashgan ayrim she'riy (folklor) matnlarda qayd qilinishi mumkin;

-gäni // käni // yanı // qanı affiksi. Bu affiks barcha shevalarda qayd qilinadi: borgani ~ ***bärgäni*** (Toshkent), ***baryanı*** (qipchoq); eshitgani ~ ***eşitkäni*** (Toshkent), yo'liqqani ~ ***joliqqanı*** (qipchoq).

-ginčä // kinčä // yinča // qinča affiksi: yurguncha ~ ***jürginčä***, borguncha ~ ***baryinča***. Men bormaguncha, sen kelma, kuyib-yonib yurguncha ~ *Män barmayinča sän gälmä, kijüp-janüp jürginčä* (o'g'uz). Adabiy tilda bu shaklda birinchi bo'g'inda ***u*** unlisi keladi. Bu affiksning shimoliy o'zbek shevalarida ***-giči: // kiči: // yiči: // qiči:***; variantlari qayd qilinadi: ko'rguncha ~ ***körgiči:***, aytguncha ~ ***etkiči:***, borguncha ~ ***baryiči:***, otguncha ~ ***atqiči:***;

-i: affiksi. U o'g'uz lahjasini shevalariga xosdir. Adabiy tildagi ***-a*** ravishdosh affiksi ma'nosiga mos keladi: yuradi ~ ***jüri:di***, lekin ***jüri:di ädi*** shaklidagi fe'l adabiy tildagi ***yurar edi*** shakliga ekvivalent bo'ladi.

Adadiy tildagi ***-gach // kach // qach*** affiksining variantlari shevalarda uchrashi dialektologik tadqiqotlarda qayd qilinmadи.

Harakat nomi shakllari. Unda uch variantdagи affikslar qatnashadi:

-mäk // maq affiksi o'g'uz lahjasini uchun xarakterlidir: o'ynamoq ~ ***ojnamaq***, ketmoq ~ ***gitmäk***;

-š // iš // iš // üš // uš qarluq lahjasining xususiyatidir: bilish ~ ***biliš***, yig'ish ~ ***jüyis***, o'rish ~ ***oruš***, ko'rish ~ ***körüs***. Singarmonizmni yo'qotgan shevalarda – ***š // iš*** variantlarigina ishlatiladi;

-v // uv // üv affiksi qipchoq lahjasini uchun xarakterlidir: biluv ~ ***bilüv***, eshituv ~ ***eşitüv***, qoluv ~ ***qaluv***.

Shuni ajtish lozimki, harakat nomining har uchala varianti adabiy tilga juz'i fonetik tahrir bilan qabul qilingan va adabiy tilning ta'siri natijasida bu affikslar shevalarda aralash qo'llanmoqda.

Tuslanish tizimi. Turkiy tillar va o'zbek adabiy tili tuslanish tizimi o'zbek shevalariga ham xos bo'lib, ularda tuslovchi affikslarning (shaxs-son affikslarining) uch tipi bir necha shakllarga ega bo'ladi:

I tip tuslovchilar

Bu tipdagi tuslovchilar to'liq tuslovchilar deb ham yuritiladi.

I shaxs birligida **-män // man** affiksi qatnashadi: kelaman ~ **kelämän**, o'qiymen ~ **oqijmän** (Toshkent), o'ynayman ~ **ojnajman** (qipchoq). Ayrim o'g'uz va shimoliy o'zbek shevalarida bu affiksragi **n** undoshi talaffuz qilinmasligi mumkin: boraman - **barama**, kelaman ~ **gälämä**.

I shaxs ko'pligida **-miz(ä) // müz/s // piz // püz/s, -vuz//vuzä** affikslari qatnashadi. Singarmonizmli shevalarda affiksragi **z** undoshi jarangsizlashadi. **-miz(ä)** varianti, deyarli, barcha shevalarda qayd qilinadi: ketyapmiz ~ **ketvāmmiz**, boryapmiz ~ **bārvāmmizä** (Toshkent), **-vuz/vuzä** varianti Toshkent, Qarshi shevalarida qo'llanadi: ishlajmiz ~ ~ **išlijvuz(ä)**, qilamiz ~ **qilāvuz**, **-piz/püz/s** varianti (aslida u assimilativ variant) singarmonizmli shevalarda uchraydi: kelyapmiz ~ **käjäppiz/s**, qarabmiz ~ **qarappiz/s** (shim.o'zb.shev.).

-miz, -vuz(ä) affikslari Toshkent shevasida **-di, -sä** affiksli so'z shakllariga qo'shila olgan: oldik ~ **äldimiz // äldivuz(ä)**, aysak ~ **äjtsämiz // äjtsävuz(ä)**, berdik ~ **berdimiz // berdivuz(ä)**, yursak ~ **jursämiz // jursävuz(ä)**.

II shaxs birligida singarmonizmli shevalarda **-sän/san** affiksi qatnashadi: ekasan ~ **egäsän**, borasan ~ **barasan** (qipchoq). Singarmonizmni yo'qotgan shevalarda faqat **-sän** varianti qo'shiladi: kelasan ~ **keläsän**, oqisan ~ **oqisän** (Toshkent). Bu shaklda ham ayrim o'g'uz va shimoliy o'zbek shevalarida **n** undoshi talaffuz qilinmaydi: borasan ~ **barasa**, kelasan ~ **gäläsä**.

II shaxs ko'pligida **-siz // siz/s +lä(r) // la(r), -silä** affiksi ishtirok etadi. Bu shaxsda ham singarmonizmli shevalarda affiksragi **z** undoshi jarangsizlashadi.

-siz varianti deyarli barcha shevalarda qo‘llanadi: boryapsiz ~ *bārvāssiz* (Toshkent), ketyapsiz ~ *ketjäpsiz* (Marg‘ilon).

-siz // siz/s + lä(r) // la(r) varianti singarmonizmli shevalarda qo‘llanadi: baribsz ~ *baripsiz/s*, ushlabsiz ~ *ušlapsiz/s*, ko‘ribsizlar ~ *köripsizlär*, oqibsizlar ~ *oqipsiz/slar*.

-s, -silä varianti esa Toshkent, Qarshi kabi shevalarida qo‘llanadi: ishlaysiz ~ *iſlijs // iſläjs*, kelasizlar ~ *keläsilä*.

III shaxsda affiks qatnashmaydi, lekin *-a // ä, -j, -b* affiksli ravishdoshlar ishtirok etgan fe’llarda va boshqa ayrim fe’llarda *-di // dī // ti // tī* affiksi va uning ko‘pligida ba’zan *-lä(r) // la(r)* affiksi qo‘shilishi mumkin. Singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda faqat *-di // ti* varianti qo‘llanadi: ishlaydi *iſlijdi*, kelyapti ~ *kevätti*, singarmonizmli shevalarda esa ~ *di // dī // ti // tī* variantlarining barchasi qo‘llanadi: boradi ~ *baradi*, ichadi ~ *i:čädi*. Tojikistonning janubiy o‘zbek shevalarida *-tu* varianti ham qayd qilinadi: sochyapti ~ *čāčāptu*.

Samarqand va Navoiy viloyatining ayrim shevalarida hamda Surxondaryo qipchoq shevalarida *-a/ä* affiksli so‘zlarning III saksida tuslovchi affiks qatnashmaydi: *men baraman, sen barasan, o bara. Kela solib, qarab o‘tiradi ~ Kelättäp qarap otira* (Surxondaryo).

II tip tuslovchilar

Bu tipdagi tuslovchilar qisqargan tuslovchilar deb ham yuritiladi va ular *-di // dī // ti // tī* va *-sä // sa* affikslari bilan shakllangan fe’llarga qo‘shiladi.

I shaxs birligida faqat *-m* affiksi qatnashadi: aldim ~ *aldüm*, aytsam ~ *ajtsam*, berdim ~ *berdim*, yursam ~ *jürsäm*. Shevalardagi *kördüm, qojdum* tuslanishida ikkinchi bo‘g‘indagi lablangan unlilarning qatnashishi labial singarmonizmga amal qilishi tufayli yuz bergan, y’ani ikkinchi bo‘g‘indagi *ü // u* unlilari o‘tgan zamon fe’lini hosil qiluvchi *-di // dī* affiksidagi unlining lab garmoniyasiga bo‘ysunishidir, lekin tuslovchi affiks qo‘shilmasa, **u** unlisi singarmonizmga bo‘ysunmaydi.

I shaxs ko‘pligida *-k // q, -i:j, -v // vuz // vuzä* affikslari qatnashadi.

-*k* affiksi singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda qo‘llanadi: ko‘rdik ***kordik***, bordik ***bärdik***. Toshkent shevasida shart maylidagina qayd qilinadi: borsak ~ ***bärsok***, olsak ~ ***ā:sok***. Shuningdek, Toshkent shevasida -*k* affiksini o‘tgan zamon fe’lida -*z* affiksi almashtiradi va bunda qisman fonetik o‘zgarish yuz beradi: bordik ~ ***bärdüz***, keldik ~ ***keldüz***.

-*k* // *q* oppozitiv variantlari singarmonizmli shevalarning asosiy xususiyati hisoblanadi: keldik ~ ***keldik***, bordik ~ ***bardiq***.

-*v* // *vuz* // *vuzä* affiksi bilan shakllangan fe’llar Toshkent shevasida kengroq: borsak ~ ***bärsovuz(ä)***. Bu affiks qo‘shilishi bilan so‘zda sifat o‘zgarishi yuz beradi, ya’ni -*sä* affiksi tarkibidagi ä unlisi ***o*** unlisiga o‘tadi.

-*i:j* affiksi Toshkent va Qarshi shevalarida iste’molda bor: urdik ~ ***urdi:j***, bildik ~ ***bildi:j***.

II shaxs birligida -*η* affiksi qatnashadi (bu affiksni buyruq-istak maylidagi -*η* affiksi bilan qorishtirmaslik kerak). Uning qo‘llanish qonuniyatları I shaxsdagi -*m* affiksi bilan aynandir: olding ***aldinj***, aytsang ***ajtsanj***, berding ~ ***berdinj***, yursang ~ ***jürsänj***. Bu shaxsdagi -*η* affiksini Xo‘jand shevasida -*j* affiksi almashtiradi: ketayotgan eding ~ ***ketvätkən edij***. Bu o‘zgarish o‘sha sheva uchungina xarakterlidir. Suningdek, -*η* affisli so‘z shakli Iqon, Qorabuloq shevalarida III shaxs uchun ham ishlatiladi va adabiy tildagi hozirgi-kelasi zamon shakliga muvofiq keladi: ... *qanča kii:n jo:l jüriüp, bi:(j) čö:lgä jettinj* (yetadi). *Ikki xatunni: häjdäp käldinj* (keladi). *Jana žä:mi kä:rvaninjki xira:žisini käštinj* (kechadi).

II shaxs ko‘pligida quyidagi affikslar qatnashadi:

-*ηiz* // *ηiz* affiksi aksariyat shevalarda iste’molda bor: boardingiz ~ ***bardinqiz***, kettingiz ~ ***kettiñiz***. Shundan -*ηiz* varianti singarmonizmni yo‘qotgan shevalardagina mavjud, faqat Toshkent va Qarshi shevalarida bu affiks uchramaydi;

-*ηuz/ηüz* affiksi labial singarmonizm amal qiladigan shevalarda qo‘llanadi: buyurdingizz ~ ***bujurdunuz***, kuttingiz ~ ***küttünüz***;

-*jiż* affiksi Toshkent va Qarshi shevalarida, -*zlä* affiksi esa faqat Qarshi shevasida iste’molda bor: bajardingiz ~ ***bäžärdijiz***, boardingiz ~ ***bärdizlä***;

-*jlä* affiksi ham Toshkent va Qarshi shevalariga ko‘proq xarakterli: oldinglar ~ *älbijlä*, ishladinglar ~ *išlädijlä*;

-*ηlä/ηla* o‘g‘uz lahjasi shevalari uchun xarakterlidir: keldinglar ~ *gäldiŋlä*, bordinglar ~ *bardiŋla*.

III shaxsda tuslovchi affiks ishtirok etmaydi.

III tip tuslovchilar

Bu tipdagи tuslovchilar buyruq-istak maylida qayd qilinadi va o‘ziga xos tuslanishga ega.

I shaxs birligida quyidagi affikslar qatnashadi va istak ma’nosini ifodalaydi:

-(*äj*) // (*a*)*j* affiksi barcha singarmonizmli shevalarda bor: boray ~ ***baraj***, ketay ~ ***ketäj***, qo‘llay ~ ***qollaj***. Ko‘rinadiki, unli bilan tugagan so‘zlarga affiksning -*j* varianti (o‘yna ~ ***ojnaj***) qo‘shiladi. Bu Qarnoq, Qorabuloq, Mankent shevalarida qayd qilinadi;

- *ij* affiksi singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda ishlatiladi: ishlay ~ ***išlij***, ketay ~ ***ketij***, so‘ray ~ ***sorij***. Bunda unli bilan tugagan so‘zlardagi *ä* unlisi *i* unlisiga o‘zgaradi: boray ~ ***barij***, oylay ~ ***ojlij***, ko‘ray ~ ***körij***;

-*ijin* // *ijin* affiksi Xorazm va shimoliy o‘zbek shevalarida uchraydi: olib borayin ~ ***apparijün***, olib kelayin ~ ***äkkälijün***. Uning qisqargan shakli ham bor: ***appari:n***, ***äkkäli:n***.

I shaxs ko‘pligida quyidagi affikslar qatnashadi va ular ham istak ma’nosini ifodalaydi:

-*äjnu*, -*ijlu*, -*äjnuk* affikslari singarmonizmni yo‘qotgan shevalarda qo‘llanadi: ishlaylik ~ ***išläjnu*** (Namangan) olajlik ~ ***äljlu*** (Toshkent), boraylik ~ ***bäräjnu*** (Namangan, Xo‘jand);

-*äjlik* // *ajliq* affiksi aksariyat singarmonizmli shevalarda talaffuzda mavjud: tushaylik ~ ***čüšäjlik***, qaraylik ~ ***qarajlüq***. Bu affiksning -*äjlik* varianti singarmonizmni yo‘qatgan shevalargagina xos: qo‘llaylik ~ ***qolläjlik*** (Marg‘ilon);

-*äjik* // *ajiq* affiksi qipchoq lahjasi shevalari uchun xarakterlidir: aytaylik ~ ***äjtäjik***, boraylik ~ ***barajiq***;

-*i:jk* // *i;jq* affiksi shimoliy o‘zbek shevalarida uchraydi: ko‘raylik ~ ***köri:jk***, qolaylik ~ ***qalī:jq***;

-***nuη*** // ***nüη*** affiksi shimoliy o‘zbek shevalarida(Qorabuloq)gina qayd qilinadi. Bu affiks boshqa variantlarga ega emas, ya’ni uning lablanmagan varianti yo‘q: boraylik ~ ***barajnuη***, aytaylik ~ ***e:däjnüη***.

Gö:zälim, ha: gö:zälim,
Yürüñ ba:γnii: ***käzäjnüη***,
Ba:γiñiżya suv tüssä,
Ö:rdäg bolub ***süzäjnüη***¹⁰.

-***äli*** // ***alī*** affiksi Xorazm shevalarida qo‘llanadi: boraylik ~ ***barali***, ketaylik ~ ***gitäli***.

II shaxs birligida affiks qatnashmaydi. Bu shaxsda ishtirok etadigan -***gin*** // ***kin*** // ***yin*** // ***qin*** affikslari buyruqni kuchaytirish yoki kuchsizlantirishga xizmat qiladi.

II shaxs ko‘pligida quyidagi affikslar qatnashadi: -(*i*)***η*** // (*i*)***ηlär*** // (*i*)***ηlar*** // (*i*)***ηizlär*** // (*i*)***ηızlar*** affikslari aksariyat shevalarda amalda bor: boringizlar ~ ***bariñiz(s)lar***, kelinglar ~ ***kelinqäräjlär***, qaranglar ~ ***qaraŋlar*** (qipchoq). -(*i*)***η***//(*i*)***η*** varianti adabiy tildagi kabi birlikning hurmat shaklini ifoda qiladi;

-***jlär*** varianti Andijon shevasida iste’molda bor: qaranglar ~ ***qäräjlär***, soranglar ~ ***soräjlär***;

-***jlä*** varianti Toshkent, Qarshi kabi shevalarda qayd qilinadi: kelinglar ~ ***kelijlä***, olib boringlar ~ ***ābārijlä***;

-(*i*)***ηlä*** // (*i*)***ηla*** variantii Xorazm, Qorako‘l va Olot shevalariga xosdir: anglanglar (tushuninglar) ~ ***aŋlaŋla***, ko‘ringlar ~ ***goriŋlä***.

III shaxsda -***sin*** // ***sìn***, -***sun***, -***si*** // ***sì***. -***su*** // ***sü*** affikslari ishtirok etadi:

¹⁰ K . K. Yudaxin yozib olgan. She’r matnlari ko‘pincha sheva xususiyatlaridan chekinadi. Ushbu matndagi **gö:zäl** so‘zi shevada yo‘q, ***bolib*** so‘zi esa ***o:p*** shaklida qo‘llanadi .

-sin affiksi barcha shevalarda qo‘llanadi, **-sin // sİN** variantlari singarmonizmli shevalarda faol ishlatiladi: eshitsin ~ **ištsin** (Toshkent), qaytsin ~ **qajtsin** (qipchoq);

-sun varianti Namangan shevasida qayd qilinadi: korsin ~ **korsun**, bilsin ~ **bilsun**;

-si // sİ // su // sü variantlari Iqon, Qorabuloq shevalarida uchraydi: borsin ~ **barsi**, ishlasin ~ **i:šläsi**, ko‘rsin ~ **körsü**, qo‘ysin ~ **qojsu**;

-däg // täg // läg affiksi Tojikistondagi qarluq shevalarida uchraydi: ishlasin ~ **išlädäg**, pishirsin ~ **bi:šärtäg**, olsin ~ **älläg**. Bu affiks boshqa shevalarda qayd qilinmadni, lekin Alisher Navoiy va Husayniy asarlarida bu maylning III shaxsida **-dik** affiksi ishlatilgan. Alisher Navoiyda:

Telbä köqluṇni, Nävāij, zabit äjläj älmädiṇ.

Emdi ček āndin ilik här sāri bārsä bārdik

baytidagi **bārsä bārdik** birikmasi **borsa borsin** deb tushuniladi.

Yuqoridagilqrda ko‘rinadiki, tuslovchi affikslarning aksariyati adabiy tilda ham qo‘llanayotgan bo‘lsa, shevalarda betakror shakllar ham qayd qilinadi. Bular jumlasiga **-vuz//vuzä, -i:j (urdi:j)**, **, -η (käldiṇ ~ keladi)**. **-däg // täg // läg** affikslari bilan hosil qilingan shakllarni kiritish mumkin.

Fe'l mayllari va zamonlaridagi ayrim o'ziga xosliklar. Ma'lumki, shakllangan fe'llar sof fe'l, ravishdosh hamda sifatdosh affikslari va tuslovchi affikslarning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Fe'llarda tuslovchi affikslardan oldin keladigan zamon ko‘rsatkichlari shevalarda turlicha bo‘ladi. Shu bilan birgalikda, bu affikslar qo‘shilganda, turli fonetik o‘zgarishlar, ya’ni morfonologik jarayon yuz beradi va bu holat shevaning adabiy tildan ba’zan kuchli farqlanishiga olib keladi.

O‘tgan zamon fe’llari. **Olmoq** fe’li: **āppän, āpsän, āpti, āppiż, āpsiz, ālišipti** (Andijon)

Yopmoq fe’li: **žapqamman, žapqansan, žapqan; žapqammüs, žapqansiüs, žapqan.** Bo‘lishsiz shakli: **žappayamman, žappayansan, žappayan; žappayammüs, žappayansiüs, žappayan** (qipchoq).

Bormoq fe'li: *bārgämmän*, *bārgänsän*, *bārgän*; ~ *bārganvuz*, *bārgansilä*, *bārišgan* (Toshkent).

Fonetik-morfologik o‘ziga xosliklar, ayniqsa, murakkab o‘tgan zamon fe’llarida yorqinroq ko‘rinadi.

Kelib edi fe'li: *kelivedim*, *kelivediñ*, *kelivedi*; *kelivedik* // *kevedik*, *kelivediñiz*, *keivedi* // *kelvedi* (qipchoq).

Borib edi fe'li: *barivädim*, *barivädiñ*, *barivädi*; *barivädik*, *barivädiñlä*, *barivädilä* (Xorazm). Ko‘rinadiki, to‘liqsiz fe’l soddalashgan shakl tarkibida singarmonizmga bo‘ysunmaydi; *bäruvdim*, *bäruvdin*, *bäruvdi*; *bäruvdij*, *bäruvdi:z*, *bäruvdijlä/bärišuvdi* (Toshkent).

Samarqand, Navoiy, Qarshi, Buxoro guruh shevalarida *-r* // *ər* sifatdosh affiksi fe’l shakllarida *-j* affiksi bilan almashadi va adabiy tildagi **borar edi** so‘z shakli *bäräjidim*, *bäräjidiñ*, *bäräjidi*; *bäräjidik*, *bäräjidiñzlä*, *bäräjidi* tarzida tuslanishga ega bo‘ladi.

Aksariyat shevalarda **bergan edi** // **berib edi** fe’l shakli tuslanishida o‘ziga xos fonetik jarayon, ya’ni soddalashish yuz beradi: *beruvdim*, *beruvdiñ*, *beruvdi* va hk. Bunday holat Namangan shevaidagi **urar edi** tipidagi fe’l tuslanishida ham korinadi: *uräddim*, *uräddiñ*, *uräddi*, *uräddü:z*, *uräddi-nä*, *urišäddi*.

Qorabuloq shevasidagi **bergan edi** qolipli o‘tgan zamon analitik fe’li adabiyotlarda *berdim edi*, *berding edi*, *berdi edi*; *berdydyk* (*berdik edik*), *berdingiz edi*, *berdi edi* tarzida keltirilgan. Sheva vakillari nutqi kuzatilganda, bu shakldagi tuslanish murakkab ko‘rinishga ega ekanligi ma’lum bo‘ldi va bu shakl shevada *be:didi:(j)dim*, *be:didi:(j)diñ*, *be:didi:(j)di*; *be:didi:(j)dük*, *be:did:(j)diñiz*, *be:didi:(j)di* kabi tuslanishga ega ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Hozirgi zamon fe’llarida tuslovchi affiksdan oldin keladigan zamon ko‘rsatkichlari shevalarda turlicha bo‘ladi. Shevalarda bu shaklda *-vät*, *-jäp*, *-ut*, *-ät*, *-äp*, *-jatır*, *-žatır*, *-vatır* affikslari qatnashadi.

Toshkent shevasida *-vät* affiksidagi keyingi **t** undoshi regressiv assimilatsiyaga uchraydi: *bärvämmän*, *bärvässän*, *bärvätti*, *bärvämmiz(ä)* //

bārvābbiz(ä), *bārvāssilä*, *bārišvātti*. Bo‘lishsizida boshqa shakl qatnashadi: *körmijätippän*, *körmijätipti* va hk.

-*jäp* affiksi Marg‘ilon shevasiga xos: kelyappan ~ *keljäppän*, *keljäpsän*, *keljäpti*, *keljäppiz*, *keljäpsiz*, *keljäpti*. O‘zbek adabiy tiliga shu shakl norma sifatida olingan.

-*jät* affiksi Namangan shevalarida uchraydi: ketyapman ~ *ketjätmän*, *ketjässä*, *ketjätti*, *ketjätmiz*, *ketjätsiz*, *ketjätti*.

Namangan umlautli shevalarida fe’lning hozirgi zamon shakli -*üt*, -*vet* (Chortoq) affikslari ishtirokida hosil qilinadi: ko‘ryapman ~ *körüttümä(n)*, *körüssä:*, *körüttü*; *körüttimiz/s*, *körüssilä*, *körüsütti*; oqiyapman ~ *oquvëtmän*, *oquvëtsän*, *oquvëttü*, *oquvëtimiz/s*, *oquvëtisis*, *oquvëtti*.

-*üt* affiksli shaklning bo‘lishsizida o‘ziga xoslik kuzatiladi: yozmayapman ~ *jεzmüttimä(n)*, *jεzmüssä:*, *jεzmütti*, *jεzmüttimiz/s*, *jεzmüttisilä*, *jεzişmütti*.

-*ät* affiksi Namangan, Qarshi va Parkent shevalarida qayd qilinadi: boryapman ~ *bärämmäm* // *bärättumäm*, *bärassan* // *bärattusäm*, *bäratti* // *bärattu*, *bärämmiz* // *bärättumiz*, *bärässilä* // *bärattusiz*, *bäratti* // *bärattu*.

Buxoro shevalarida -*äp* affiksidiagi **p** undoshi I shaxs birlik va ko‘plikdagi tuslanishida regressiv assimilatsiyaga uchraydi: boryapman ~ *bärämmän*, *bäräpsän*, *bäräpti*, *bärämmiz*, *bäräpsiz*, *bäräptilä*.

Qipchoq shevalaridagi -*žatır*, -*vatır*, Xorazm shevalaridagi -*jatır* affikslarining singarmonistik variantlari yoq: *baražatırman*, *keläžatırsan* (*qipchoq*), *gäjatırma(n)*, *barjatırsa(n)* (Xorazm).

Qorabuloq shevasida bu shaklda -*äjt* // *ajt* affiksi qatnashadi: boryapman ~ *barajtma*, boryapsan ~ *barajtsa*, boryapti ~ *barajtti*, aytyapman ~ *e:däjtmä*, aytyapsan ~ *e:däjssä*, aytyapti ~ *e:däjtti*.

Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida -*mäli* // *malı* affiksi zaruriyatlik fe’lini hosil qilgan: borish kerak *barmalı*, ichish kerak ~ *i:čmäli*. Bu shakldan yana boshqa shakllar hosil qilinadi: aytish kerak edi ~ *ajtmalidi*, ichish kerak edi ~ *ičmälidi*, bormaslik kerak ~ *barmalimas*, ichmaslik kerak ~ *ičmälimas*.

T.Yo‘ldoshev Tojikiston Respublikasining janubiy o‘zbek shevalarida hozirgi zamon davom (uningcha, aniq hozirgi zamon) fe’lida o‘ziga xos tuslanishni qayd qiladi¹¹. O‘zbek adabiy tilidagi **boryapman** fe’li quyidagicha tuslanishga ega: **bārājātiptimän**, **bārājātiptisän**, **bārājātipti**; **bārājātiptimiz**, **bārājātiptisiz**, **bārājātiptilä**.

Kelasi zamon fe’llari. Shevalarda kelasi zamon fe’llarining ham betakror shakllari bor. Ulardan quyidagilarni keltirish mumkin: bormoqchiman (aslida *borayin degan edim*) ~ **bari:ndävädim**, **bari:ndävädiñ** **bari:ndävädi**, **bari:ndävädik**, **bari:ndävädiñlä**, **bari:ndävädilä** (Xorazm). Shu ma’no shimoliy o‘zbek shevalarida **baradoyoni:däm**, **baradoyoni:diñ** **baradoyoni:di**, **baradoyoni:diq**, **baradoyoni:diñlar**, **baradoyoni:diñ** kabi tuslanishga ega bo‘ladi.

Tayanch tushunchalar:

Tuslanish [спряжение, conjugation] - fe’llarning shaxs va sonda o‘zgarishi.

Tuslovchi affikslar [спрягающие аффиксы, conjugating affikes] – fe’lning shaxs-son shakllarini hosil qiluvchi affikslar

To‘la tuslovchilar [личные аффиксы полной формы, fuli form personal affikes] – qadimgi olmoshlik xususiyatini asosan saqlagan tuslovchi affikslar.

Qisqargan tuslovchilar [личные аффиксы усеченной формы, trincated personal affikes] - qadimgi olmoshlik xususiyatini qisman saqlagan tuslovchi affikslar.

Fe’lning funksoinal shakli [функциональная форма глагола, functional form jf the verb] – fe’lning shakllanlshiga asos bo‘luvchi shakl.

Takrorlash uchun savollar:

1. Fe’lning funksional shakli deganda nimani tushunasiz?
2. To‘la tuslovchilarni qo‘llagan holda o‘z shevangizdan misollar keltira olasizmi?
3. Qisqargan tuslovchilar qanday asoslarga qo‘shiladi?
4. O‘z shevangizdan o‘tgan zamon fe’llariga misollar keltiring.

¹¹ Йўлдошев Т. Ўзбек шеваларида аниқ ҳозирги замон феъл формалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1982. – Б.11.

5. Shevangizda hozirgi zamon fe’liga asos bo‘luvchi qanday shakllar bor?
6. Shevangizda adabiy tildan farq qiluvchi yana qanday shakllar bor?

10-mavzu. O‘zbek shevalarida so‘z turkumlari. Sintaksis

Reja

1. Shevalar so‘z turkumlari to‘g‘risida ma’lumot. Mustaqil so‘z turkumlari.
2. Yordamchi so‘z turkumlari, undov va mimemalar.
3. So‘z turkumlariga xos morfologik shakllar.
4. So‘z yasalishi.
5. Shevalarda so‘z birikmasi va izofali birikmalar.
6. Sheva matnlarida gaplarning qo‘llanish xususiyatlari.

Matn

O‘zbek shevalarining morfologik va sintaktik xususiyatlari haqida to‘la ma’lumot berishning darslikda imkoniyati chegaralangan, lekin ularning eng umumlashadigan, tadqiqot obyektini o‘rganishga asos bo‘ladigan o‘rinlarigagina to‘xtalish mumkin.

O‘zbek adabiy tilidagi so‘z turkumlari, gap bo‘laklari shevalarda alohida xususiyatga ega emas, balki uning ichki shakl va kategoriyalari, yozib olingan matnlar asosida sintaksisining o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Ot. Shevalarda modal shakllar. Ot, sifat, fe’l turkumlarining ichki kategoriyalarida shevalarning xususiyatlarini ko‘rsatadigan so‘z shakllari bor. Quyida ot turkumidagi shunday shakllar bilan tanishamiz:

-*žān* affiksi Farg‘ona vodiysi shevalarida erkaklar (*Olimžān*) ismiga qo‘silib, hurmat ma’nosini ifodalasa, Xorazm shevalarida -*žan* shaklida qizlar (ayollar) ismlariga (*Sänämžan*) qo‘siladi. Singarmonizmli shevalarda bu affiks so‘zga faqat til orqa unlili variantdagina qo‘siladi. Toshkent va boshqa ba’zi shevalarda kelinlarning qaynota va qaynonalarga murojaatida bu affiks *ājižān*, *ädäžān* so‘zlarida uchraydi;

-*xān* affiksi ko‘proq shahar va shu tipdagi shevalarda qizlar, ayollar ismiga qo‘siladi. Qipchoq va shimoliy o‘zbek shevalarida bu affiks modal ma’noda

emas, balki kishi ismining tarkibiy qismi bo‘lib keladi (*Ataxan. Ҙoraxan*). Toshkent, Farg‘ona vodiysida erkaklar ismlariga qo‘silganda, hurmat, nasl-nasabga aloqadorlik mazmunini ifoda qiladi;

-*baj* affiksidan Xorazmda erkaklarga hurmat (*Polatbaj, Rüstämbaj*) ifodalash uchun foydalilanadi va u singarmonizmga bo‘ysunmaydi.

Shimoliy o‘zbek shevalarida va ayrim qipchoq, o‘g‘uz shevalarida yoshi kattalarni hurmat qilishda ularning nomini qisqartirib chaqirish keng tarqalgan: Qurbon aka ~ *Quräkä*, Sobir aka ~ *Säkä*, Toshpo‘lat aka ~ *Täšäkä* kabi. Bunda qozoq va qoraqalpoq tillarining ta’siri bor. Yoshi kichiklarni erkalash yoki izzat qilishda so‘zlarni qisqartirgan holda uning oxiriga **š**, **m**, **n** kabi undoshlarni qo‘sib talaffuz qilish an’anasi bor: Otajon ~ *Ataš*, Dadaxon ~ *Dadan*, Eshmuhammad ~ *Ešim* kabi.

Shevalarda –č // š affiksi ayollarni, qizlarni erkalash uchun qo‘llanadi: bikajon ~ *bikäč*, onajon ~ *anač* (Xorazm), Onajon (ism) ~ *Anaš* (shim. o‘zb. sh.).

Erkalash-kichraytirish ifodalovchi -čä affiksi aksariyat shevalarda, xususan, shimoliy o‘zbek shevalarida qo‘llanmaydi, balki bu affiks shevalarda adabiy tilning ta’sirida paydo bo‘lmoqda.

Sifat. Sifatlardagi adabiy tilga xos aksariyat so‘zlar, affikslar shevalarda ham ba’zi fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadi, jumladan, sariq ~ *sariy* // *sariq* (qarluq), *sari* (qipchoq, o‘g‘uz), issiq ~ *issiq* // *issiy* (qarluq), i:ssi (o‘g‘uz), qora ~ *qärä* (qarluq), *qara* (qipchoq, o‘g‘uz), qattiq ~ *qättu:* (Toshkent) // *qättiy* (Farg‘ona), *qatti* (qipchoq).

Dunyoni sheva vakillari ham o‘z nuqtai nazarlaridan ko‘radilar, bu shaxs, narsa va hodisalarning sifatini belgilashda yaqqolroq ko‘rinadi: bozrang ~ *bözräñ*, tol bargi rang ~ *tälbärgiräñ*, pistoqi ~ *pistäqi*, oq sariq ~ *āqsäriy* (Namangan), keng ~ *jäjdir*, yuqa ~ *pär* (yuqa devor ~ *pär deväl*), g‘ijim ~ *yizim* (Toshkent vil.), aralash rang ~ *burul* (Andijon) .

Sifat darajalaridagi juda ~ *žä:*, *židä* (aksariyat shevalarda), eng ~ *i:η* (Qarshi), belgining kamligini ifodalovchi -roq affiksi -rā:, -rāq // rāy, -raq // ray, -räk// räg variantlariga ega. Farg‘ona tip shevalarda bu affiksning -rāx // räh

variantlari ham mavjud: oqroq ~ *āxrāx*, uzunroq ~ *uzunrāx*, tuzukroq ~ *tüzühräh*, eskiroq ~ *eskiräh*.

Shu bilan birga, shevalarning o‘z affikslari ham bor. Qoraqalpoq o‘zbek shevalari, qipchoq lahjasining aksariyat shevalari va shimoliy o‘zbek shevalarida sifatlardagi belgining kamligi *-läü(v) // lau(v)* affiksi bilan ifoda qilinadi: oqroq ~ *aqlau(v)*, ko‘kroq ~ *kökläü(v)*, xomroq ~ *xamlau(v)* (shim.o‘zb. shev.).

Belgining ortiqligini ifodalashda Xorazm shevalarida *zil* so‘zidan foydalaniladi: qop-qora ~ *zil qara*, sap-sariq ~ *zil sari*.

Belgining ortiqligini ifodalashda shevalarda eng ~ *iñ*, *žä*, *židä* so‘zlarining situativ sinonimlardan ham foydalaniladi. Bular quyidagilar: *rāsa*, *nenāzin*, *tāzä* va boshqalar: Ilgari juda chiroqli qiz edi ~ *ilgäri nenāzin xušroj qizidi* (Namangan). Taxti Sulaymon juda balandda ekan ~ *Taxti Sulajmān tāzä // rāsä bälättäkän* (O‘sh).

Shevalarda o‘ta chiroqli ~ *čip-čiräli*, chippa-chin ~ *čip-čin*, tippa-tik ~ *tip-tik*, soppa-sog‘ ~ *sap-sav* (shim. o‘zb. shev.) kabi shakllangan belgining kuchaytirilgan shakllari mavjud.

Belgining kamligini ifodalashda ham ayrim shakllar ishtirok etadi: andak ~ *ändäk* (*ändäk tär*), ko‘kimtil ~ *kökimtil* (Andijon).

Shuningdek, adabiy tildagi dastlabki bo‘g‘in ishtirokida hosil qilinadigan kuchaytirma sifatlarni o‘zbek tili uchun umumiy deb qarash mumkin emas, jumladan, adabiy tildagi *bus-butun*, *oppa-ochiq* shakllari, *tim* so‘zi aksariyat shevalarda qo‘llanmaydi.

Son. Shevalarda sonlarning nomlanishi adabiy til bilan aynanligi ham, fonetik farqlari ham mavjud. ***Beš*, *on*, *yuz*** kabi sonlar barcha shevalarda aynan talaffuz qilinadi. Boshqa sonlar fonetik tarkibida turli o‘zgarishlar bor: bir ~ *bi* (bir bor ekan, bir yo‘q ekan ~ *bi ba: äkä*, *bi joy äkä*... - Iqon), ikki ~ i:kki (Xorazm), ekki (Turkiston), *äkki* (Marg‘ilon), *eki* (qipchoq); tort ~ *tör* (deyarli barcha shevalarda), yetti ~ *jädi* (Xorazm), *žeti* (qipchoq); ellik ~ *älli* (Xorazm), *elü* (shim.o‘zb. shev.); qirq ~ *qir* // *qır* (aksariyat shevalarda), *qırıq* (qipchoq); ming ~ *mïñ* (singarmonizmli shevalarda) va hk.

Murakkab sonlarning hosil qilinishi tartibida adabiy til tizimi deyarli saqlanadi, lekin o‘ziga xos ifoda qilingan o‘rinlar ham bor. Masalan, Namangan umlautli shevalarida *jeti onu beš* (75), *tör jigi(r)mä* (80), *ombir jus* (1100) kabi qo‘llanishlar uchraydi. Ular umumsheva xususiyatiga ega emas.

Sonning ma’no turlarini hosil qilishda ham ba’zi shevalarda o‘ziga xosliklar ko‘zga tashlanadi. Shimoliy o‘zbek shevalarida dona son hosil qilinmaydi, ya’ni sonning qo‘shimchasiz holati dona sonni bildiradi yoki jamlovchi sonning -*öv* affiksi bitta ~ *biröv*, ikkita~ *eköv* (yetti sonigacha) tarzida dona sonni ham ifoda qiladi, bu shaklda o‘g‘uz lahjasи shevalarida *dənə* ~ *dänä* so‘zidan foydalaniladi: ikkita ~ *ikki dänä*, uchta ~ *üš dänä*.

Jamlik son Xorazm shevalarida egalik affiksi vositasida, ya’ni ikkalasi ~ *ikkisi*, uchalasi ~ *üčisi* kabi shakllar orqali ifoda qilinadi.

Shevalarning o‘z numerativlari ham mavjud: vaqt~ *vax* (*besh vax namaz* – shim.o‘zb.shev.), vaqt ~ *qur* (*uč qur āvqat* - Namangan), ilik ~ *jilik* (mol go‘sgtini bolishda qo‘llanadigan o‘lchov birligi, *ekki jilik et* - shim. o‘zb. shev.) va boshqalar.

Tartib son ba’zi shevalarda -*nži* affiksi bilan ifodalangan: birinchi ~ *birinži* (Fyljon). Singarmonizmli shevalarda shu qonunga bo‘ysingan.

Namangan shevasida chama sonning -*läččä* (aslida -lar+cha) affiksi bilan hosil qilingan varianti qayd qilingan: yuzlarcha ~ *jüzläččä*, minglarcha ~ *miňläččä*.

Jamlovchi sonning -*äv* // *av* affiksi Andijon shevasida *säkkizäv*, *toqqizav*, *onav*, *qırqav*, *jüzäv*, *miňäv* sonlariga ham qo‘shilganki, bunday shakl boshqa shevalarda uchrashi qayd qilinmagan. Shevalarimizda bunday shakllarni ko‘plab uchratish mumkin.

Olmosh. O‘zbek shevalaridagi olmoshlar adabiy tildan jiddiy farq qilmaydi.

Kishilik olmoshlari aynan yoki qisman fonetik o‘zgarish bilan shevalarda qo‘llanadi, ya’ni o‘g‘uz va shahar shevalarida men ~ *män*, sen ~ *sän* variantida kelishi xarakterli. Qipchoq lahjasи shevalarida III shaxsda *u*, *o*, *ul*, *ol* variantlarida uchraydi. Andijon va shimoliy o‘zbek shevalarida **men**, **sen** olmoshlari qaratqich

kelishigida ***meñ***, ***señ*** shaklini olishi kuzatiladi: *Meñ (mening) išimä aralašma* (shim. o‘zb. shev.). *Señ (sening) körgiñ kemäsä* (Andijon)

Ko‘rsatish olmoshining shu ~ ***šo***, shu ~ ***šol*** (qipcoq), osha ~ ***oši*** (shim.o‘zb.shev.), mana shu ~ ***mäši*** (Toshkent), ana shu ~ ***äşı*** (Farg‘ona) kabi shakllari mavjud. Adabiy tildagi ***u***, ***bu***, ***shu*** olmoshlari shimoliy o‘zbek shevalarida u ~ ***ul***, bu ~ ***bul***, shu ~ ***šul*** shakllarida qo‘llanadi:

Āj čixsa, ājdīm bolar.

Kün čixsa, kündüz bolar.

Šul ükämdi qaşları

Telpäkkä qunduz bolar (Folklor).

Namangan shevasida huv ana bu ~ ***xu:nu*** // ***xu: änü:***, ana u ~ ***änünä*** olmoshlari juda uzoqdagi predmet va hodisalarni ko‘rsatishga xizmat qilgan.

Shevalarda ***bu*** olmoshining bosh kelishiklarda boshqa kelishiklarda ***mu-*** asosiga ega bo‘lishi an’anadir.

Shevalarda ***ne*** va ***qa(j)*** olmoshlari va uning ishtirokida yasalgan so‘roq olmoshlari keng qo‘llangan.

Ravish. O‘zbek shevalarida ham ravishlarning barcha ma’no turlari qo‘llanadi. Ravishlarning aksariyati adabiy til variantlariga yaqin, ba’zilari kuchli fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadi: bu yer ~ ***bet***, shu yoq ~ ***šaq***, shu yer ~ ***šät*** (Toshkent vil.), u yoqda ~ ***ayda***, bu yoqda ***bayda*** (Farg‘ona vodiysi shevalarida), ko‘p ~ ***küb*** (qipchoq), u yoqqa ~ ***eqä***, bu yoqqa ~ ***beqä***.

Eqä bärədi Lə:lixān.

Beqä keleđi Lə:lixān.

Üzün-üzün ipeleni

Eşip keleđi Lə:lixān. (Nanangan).

Yordamchi so‘zlar, undov va taqlidiy so‘zlar. Ko‘makchilar. Bunday so‘zlarning aksariyati adabiy til bilan o‘xshashlikka ega, lekin adabiy tildan ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan farqlanadi. Shu bilan birga, shevalarning o‘z ko‘makchilari ham bor. Shevalarda ***dāvur*** (O‘sh), ***don*** (Xorazm, ad. tilda *qadar*),

baqa (Farg‘ona, ad. tilda *beri*) kabi ko‘makchilar va ko‘makchiga ko‘chgan **ötüp** (Surxondaryo, shundan keyin ~ **şonnan ötüp**) kabi so‘zlar bor.

Bog‘lovchilar. Shevalarda **va** bog‘lovchisi amalda emas. Andijon shevasida uning **-u** varianti nutqda bor: siz va men ~ **siz-ü mem**. Shimoliy o‘zbek shevalarida **va** bog‘lovchisi o‘rnida qadimgi turkiy va eski o‘zbek tiliga xos **dayi** bog‘lovchisi qo‘llanadi: boraman va qaytaman ~ **baraman dayi qajtaman**, shuningdek, nutqda fikrni ulab ketish uchun **undiki**: (bu so‘z aslida *undan keyin* shaklidan soddalashgan) funksional bog‘lovchisi ham ishlatiladi: hozir boraman va ishlarimni bajaraman ~ **hazi(r)** **baraman undiki: ishlärimni qilaman**.

Shevalarda **bilan** so‘zi turli fonetik variantlarda ham bog‘lovchi, ham ko‘makchi funksiyalarida keladi: Rais Qirg‘izali bilan meni chaqirdi ~ *Räjis Qiryzäli minäm mäni čäqirdi* (Toshkent vil.), Toshkent viovati shevalarida **ämmä-lekin, ämmä-lekin-biräq** qo‘shilmalari nutqda ko‘p ishlatiladi.

Yuklamalar. Aksariyat shevalarda **-mi** so‘roq yuklamasi **-mä // ma** variantida qo‘llanishi keng. So‘roq yuklamasining **-mä // ma** shaklida qo‘llanishi aksariyat singarmonizmli shevalarga xos: bo‘ladimi ~ **bolama**, yuradimi ~ **jürämä**. Bu yuklamadagi **m** undoshi assimilatsiyaga ham uchraydi: Qo‘shningning o‘g‘li kelib qolibdimi ~ **hämsijändiq u:li kep qappa?** (Surxondaryo).

Shevalarda **ham** so‘zi (**h** undoshi eliziyaga uchragan holda) bog‘lovchi vazifasidan ko‘ra yuklama vazfasida ko‘proq keladi. Shuningdek, shevalarda faqat ~ **tek**, (shim. o‘zb. shev.), axir ~ **hav** (birpas damimni olayin, axir ~ **bir zaman däkimni alajin, hav** (o‘g‘uz) yuklamalari, **-yu, -ku** yuklamalariga ekvivalent bo‘ladigan **-yu** ta’kid yuklamasi uchraydi: bordi-ku ~ **bardi-yu**, keldi-ku ~ **kädi-yu** (shim. o‘zb. shev.). **-yu** yuklamasi bir variantli bo‘lib, singarmonizmga bo‘ysunmaydi.

Undovlar. Shevalarning o‘z undovlari ham bor:

-his-hayajon undovlari: **pah-ej, pah** (shodlikni ifodalaydi), **vax, vax-ej** (achinishni bildiradi, Xorazm);

-haydash-chaqirish undovlari: **gäč-gäč** (echkini haydash), **öž- öž** (molni haydah), **häk-häk** (hakkani haydash, Mang‘it);

-tasdiq undovi: ***hava***, ha ~ ***ava***, ***hava***, (o‘g‘uz), xop ~ ***äħä*** (Norin);
 -hayrat undovi: ***i:bi:*** (Buxoro) va b.;
 -gumon-umid yuklamasi: **-āv** (yog‘och mahkamdir ~ ***jāyāč mäkkäm-āv***;
 yog‘in yog‘ib qolar ~ ***jāvun jāvup qālär-āv***. - Toshkeht vil.)
 - ko‘rsatuv undovi: hu ana ~ ***häjlä*** (Samarqand).

Taqlidiy so‘zlar: zïñq-zïñq (eshikning g‘yqillab ocholishi - Xorazm), ***birt-čirt*** (buzib yubordi ~ ***birt-čirt*** qidi – Turkiston) kabi adabiy tilda uchramaydigan taqlidiy so‘zlar ham bor.

So‘z yasalishi. So‘z yasalishida ham o‘ziga xos xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. O‘zbek adabiy tilidagi so‘z yasovchi affikslar shevalarda rang-barang fonetik variantlarda uchraydi. Shu bilan birga, shevalarning o‘z yasovchi affikslari ham mavjud:

-äk // ävik affiksi fe’ldan sifat yasaydi: suzag‘on sigir ~ ***süzäk // süzävik siyir***, tepag‘on ot ~ ***däpäk at*** (Xorazm);

-äki affiksi otdan ravish yasaydi, uning singarmonistik varianti yoq: tashqaridan ~ ***sürtäki*** (tashqaridan eshitdim ~ ***sürtäki ešittim***), yoddan ~ ***jadäki*** (yoddan o‘qidi ~ ***jadäki oqidi***) (shim. o‘zb. sh.). Bu affiks adabiy tilda ***og‘zaki, jirtaki, qalbaki va boshqa*** so‘zlarda uchraydi;

-al // äl affiksi sifat va ravishdan fe’l yasaydi: sarg‘ay ~ ***saral***, ozay ~ ***azal***, ko‘pay ~ ***köpäl*** (Xorazm);

-(a)don affiksi otdan ravish yasaydi, uning ham singarmonistik varianti yoq: oqshomgacha (tungacha) ~ ***axšamadon***, kechgacha ~ ***gečädon*** (Xorazm);

-vič, -viq affiksi fe’ldan sifat yasaydi: tishlagich ~ ***tišlävič***, yig‘loqi ~ ***žilaviq*** (Surxondaryo);

- ***läk // laq*** affiksi sifatdan ravish yasaydi: chapaqay oshiqa ~ ***čäpläk a:šiq***, o‘naqay oshiqa ~ ***oňlaq a:šiq*** (Xorazm);

-män // man affiksi fe’lladan (sifatdoshdan) shaxs ma’noli so‘z yasaydi: ***Bolarmanniň*** (bo‘ladigan) ***balası īom beşidä baš bolar, bomasman*** (bo‘lmaydigan) ***šor balasi žermä beşdäjäm žaš bolar*** (Surxondaryo). Bu affiks

keräk so‘ziga qo‘shilib, sifat ham yasagan: **Keräkmän** (kerakli) *nersälärdi žijistirin* (Surxondaryo);

- **ηηир // ηηир** affiksi fe’ldan sifat (u ko‘pincha otlashadi) yasaydi: yaxshi ishlovchi ~ *išläηηир*, yaxshi chaluvchi ~ *čalaηηир* (Surxondaryo);

- **čil // čil** affiksi otdan sifat yasaydi: mahmadona ~ *sözčil*, uyquchi ~ *ujxičil* (shim.o‘zb. shev.);

- **sä // sa** affiksi Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida otdan ot yasaydi: **jenäsä** (non yopishda qo‘lga kiyiladi), **japsa** (bir yo‘la yopiladigan nonlar to‘dasi), **mojinsa** (aravaga qo‘shish uchun otning bo‘yniga solinadigan anjom, bo‘yinturuq);

- **säk // saq** affiksi yasama otdam sifat yasaydi: yotog‘on ~ *jatimsaq*, yurag‘on ~ **jürümsäk**: *Qari jatimsaq, yash jüriumsäk kälädi* (shim. o‘zb, shev.). Adabiy tilda bu affiks *qurumsoq* so‘zida qayd qilinadi;

- **čiläp // čilap** affiksi otdan ravish yasaydi: erkaklarcha ~ **ärkäkčiläp**, xotinlarcha ~ **xatincilap** (Xorazm);

- **čälli** affiksi ot va olmoshlardan daraja-miqdor ravishini yasaydi: senchalik ~ **senčälli**, Man‘g‘itchalik ~ **maňitčälli** (Mang‘it).

- **šä // ša** affiksi turli so‘z turkumlaridan fe’l yasaydi: tenglashtir ~ **teñšä**, qaqsha ~ **qaxša**, qursha ~ **qurša**, quruqlashtir ~ **quruxša**, quloq sol ~ **tïñša** (Andijon).

- **šin // šin** affiksi otdan sifat yasaydi: guzarbop ~ **güzäršin**, bozorbop ~ **bazaršin** (Baliqchi, Andijon).

Bir qator kamunum affikslar ham qayd qilinadi:

- **mäk** affiksi sifatdan ot yasajdi: ko‘kat ~ **kokmäk** (Andijon, Farg‘ona);

- **šuy** affiksi otdan sifat yasaydi: yopishqoq ~ **jelimšuy** (Toshkent).

Xorazm shevalarida ba’zi o‘rinlarda chiqish kelishigi affiksi so‘z yasash funksiyasini ham bajargan: boladek bo‘ldi ~ **balamdin boldi**, bolamdek bo‘ldi ~ **balamnin boldi**, otdek yuribdi ~ **attin jüripti**.

Shevalarda shunday misollar uchraydiki, yasalishdagi har ikkala qism adabiy tilda mavjud, lekin adabiy tildagi bir so‘z yasovchi affiks o‘rnida boshqa bir so‘z

yasovchi tanlanadi: tomizg‘i ~ *damızlıq* (Xorazm), qamishzor~ *qamışlıq* (shim. o‘zb. shev.), ishchan ~ *iškār* (Buxoro).

O‘zbek shevalarining sintaktik xususiyatlari kam o‘rganilgan. Bu soha M. Turobova va Y. Jumanazarovlarningina maxsus tadqiqot obyekti bo‘lgan, xolos. M. Turobova Toshkent viloyati o‘zbek shevalarining, Y. Jumanazarov o‘g‘uz shevalarining sintaktik tizimini o‘rgangan. Ta’kidlash joizki, har bir lahja, dialekt va shevaning o‘ziga xos sintaktik xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritish uchun tadqiqotlar hali yetarli emas. Ushbu o‘rinda e’lon qilingan sheva materiallari asosida shevalarning ayrim sintaktik xususiyatlari keltiriladi.

Ma‘lumki, o‘zbek shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari, asosan, fonetika, leksika va morfologiyada namoyon bo‘ladi, yozib olingan matnlar sintaksisi esa ko‘proq so‘zlashuv tilini aks ettiradi. Bu, ayniqsa, savol-javoblardan iborat matnlarda, ertak, lapar va boshqa janrdagi matnlarda ko‘zga tashlanadi.

Gap bo‘laklari tartibi. Shevalarda ham adabiy tildagi gap tartibi saqlanishi mumkin: *Pāššā qir kun muxlät berdi* (Toshkent), lekin shevalarga xos asosiy xususiyat gapda inversyaning haddan tashqari ko‘p qo‘llanishidir: *Bir kün biz kellik Hasan žajīya. Sonra men otirdim čäj ičip* (Samarqand).

Gap bo‘laklarining inversiyasi quyidagi qoliplarda bo‘ladi:

kesim + ega: *Roziqulbajdī bälüp aladī basmačilar* (Qashqadaryo)

kesim + to‘ldiruvchi: *jänä bir ro ‘mol uzishdi uzumdän* (Qo‘qon);

kesim + hol: *šüjtüp, at ketivergan šuvullap, joryalap* (Qashqadaryo);

kesim + ravishdosh oram; *čäl otungä čiqär äkän, beligä ektä qätirmä sälip ālip* (O‘sh).

So‘z birikmaları. Shevalarda so‘z birikmalarining barcha turlari qayd qilinadi.

Bitishuv: ...dästäxändä jetmiš xil āvqat tajjār bopti (Toshkent).

Boshqaruv: *Män xässämmy āp čiqij* (Toshkent). *Päs-päs tamdin qar javar* (shim. o‘zb. shev.). Nan čiýardī (qipchoq).

Moslashuv: *Häsändin atası bajlardıñ qoluda navča bop ötkän* (qatag‘on shevasi).

Shevalardan yozib olingan matnlarda *turkiy izofalar* keng qo'llangan: *Mijmannarya adras körpä taşladï* (qatag'on). *Sämiz qoj qimbat oladï* (Iqon). *Sayči kijk müjüz äkkä depti* (shim. o'zb. shev.). Forsiy va arabiylar izofalar esa kam qo'llanadi. Bunday iboralar tojik va o'zbek xalqlari aralash yashagan joylardagi aholi nutqida uchrashi mumkin.

Sheva matnlarida ko'proq *sodda gaplar* qo'llangan. Shunday bo'lsa-da, sodda gaplarni har doim ham chegaralab olish qiyin.

Matnlarda ko'chirma gaplar faol qo'llangan: *Käl ajtti-qo: - Nimä beräsän? ...jetip ajtti-qo komissarya: - Bizlär nimä günäh qildiq?* (qipchoq).

Matnlarda qo'llangan qo'shma gaplar murakkab xarakterga ega emas: *Bir kuni tor(t) kişi tuzā: qojup otirişgänäkän, tuzā:gä bir kättä läjlä:(k) ilinipti* (Toshkent). *Qāzi bājji kutup otirävursin, endigi gäppi bojdän ešitin* (Toshkent).

Undalmalar ham faol qo'llanadi: *Balam, saňa mäslä:t käräkmi, ja bomasa, mol-dujnamî?* (shim. o'zb. shev.).

Gaplarda kirish so'zlar ham ko'p qayd qilinadi: *qäni, qajdam, ävvälämbär, šu desäj(η)iz, bir, ikki.* Misollar: ...*räsimgä tušušim kere:, bir, Tursunäjlä:nikigä bărišim kere:, ikki.* (Toshkent vil.) ...*äni šüjtip, Häsän Qajqī ettädän kečkäčäj mijnät qip...* (qatag'on). Kirish so'zlar undalmalar bilan yonma-yon qo'llangan: *E täxsir, äxir, bizzi bir pirivuz bogän* (Toshkent).

Ayrim shevalarda *-ki* yuklamasining gapdag'i urg'u beriladigan sintaktik shaklda qo'llanish hollari qayd qilinadi. Bu Qorabuloq shevasida yorqin ko'rindi: *Bi:(j) ta:γiñki o:rtasıda ha:lïyï ta:m turupti. Bi:(j) ö:jüñki i:cidä suluv qi:z ba: äkä(n).*

Shevalar og'zaki nutqni aks ettirgani uchun ularda gap bo'laklarining takrori keng qo'llanadi:

- ega bo'lagi tavtologiyasi: *žürün, men sizdi üjümä apparaman özüm* (qipchoq);
- ko'chirma gap pozitsiyasidagi so'zlar takrorlanadi: *Mixmānxānä tolä ādäm, e: ičkin, e: ičkin, didilä* (Toshkent);

- ixcham tarzdagи qо‘shma gap tarkibiy qismi takrorlanadi: – Ketvuripti, ketvuripti, bir väx säru: därväzäni äldidän čiqipti (Toshkent);

- gap bo‘laklari takrorlanadi va unda harakat jarayonining davomiyligi yuz beradi: Äbrär uxläp-uxläp turdi (Toshkent). Alışhip-alışhip, bir qojip aldi ekövi (qipchoq).

Shevalar muloqot aktida nutq iqtisodi (tejash) yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Ma’lumki, xoh adabiy tilda bo‘lsin, xoh shevada bo‘lsin, dialogik nutqda tejamkorlikka ko‘p duch kelamiz, ya’ni nutq vaziyatida gaplar to‘liq shakllanmaydi, lekin uning mazmuni shu vaziyatda anglashilib turadi:

- *Qä ketüssän?*

- *Bäzärgä.*

- *Nimege?*

- *Sä:zi, pijäzgä* (Nam,).

Bu suhbatdagи har bir gapni to‘liq gap holatiga keltirish mumkin, lekin shu o‘rindagi nutq vaziyati uni talab qilmaydi.

Sheva nutq jarayonida tejamkorlik qо‘shma gaplarda ko‘proq ko‘rinadi:

- bog‘lovchisiz qо‘shma gaplarda dastlabki gapning faqat kesimi qо‘llanishi mumkin: Bomädi, ädämmy dix qilätkän išäkän (Yuqori Qashqadaryo). Qojin, bällä abärişädi (Chinoz);

- ergash gapli qо‘shma gapda bosh gapning kesimigina qо‘llanishi mumkin: Bu yaraga chalg‘i o‘tni kuydirib bosmasa, yaxshi ~ *Bu järäjä čälyotti kujdirip bäsmäsä, jäxsi bolmäš* (Yuqori Qashqadaryo). Onasi ishonmasdan borib ochsa, o‘g‘li ~ *Anäsi išsämmiy bärip ässä, o:li* (Andijon).

Nutq vaziyati tufayli qо‘shma gaplarning bir tarkibiy qismining implitsit bo‘lishi (qо‘llanmasligi) mumkin: *šu taptä qäzili äš bolsä*, ‘maza qilib yer edik’ (Toshkent). *Zära, endi jäymur jäysä* ‘ekinlarga jon kirar edi’ (Yuqori Qashqadaryo).

Gapning eng kichik qurilish qolipida shakllangan qо‘shma gaplar ko‘p ishlatiladi: Barsaŋ, bardïŋ. Alsaŋ, aldiŋ. Körsäŋ, kördiŋ, körmäsäŋ, öziŋä (shim.o‘zb. shev.)

Tayanch tushunchalar:

Modal shakl [модальная форма, modal form] – so‘zga qo‘sishimcha ma’no qo‘sadigan shakllar.

Bitishuv [примыкание, contiguity, parataxis] – ikki mustaqil so‘zning grammatik ko‘rsatkichlarsiz birikuvi.

Boshqaruv [управление, government] – hokim so‘zning talabiga ko‘ra tobe so‘zning tushum va vositali kelishiklari hamda ko‘makchilar vositasida aloqaga kirishuvi.

Gap [предложение, sentence] – fikrni ifoda qiluvchi til va nutq birligi.

Inversiya [инверсия, inversion] – gap bo‘laklarining odatdagи tartibining buzilishi va u shu gapdagi bo‘laklarining gapdagi mavqeyiga ta’sir etmasligi.

Moslashuv [согласование, conformance] – qaratqich va qaralmish munosabati.

So‘z birikmasi [словосочетание, phrase] – ikki mustaqil so‘zning o‘zaro aloqaga kirishuvi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Otlarning modal shakllari qanday hosil qilinadi?
2. Sifatlarning shevalarda o‘ziga xos qanday leksemalari bor?
3. Sifatga xos morfologik belgilar qanday namoyon bo‘ladi?
4. Sonning ma’no turlari shevangizda qanday ifoda qilinadi?
5. Kishilik va ko‘rsatish olmoshlari qanday turlanadi?
6. Ravishlar to‘g‘risida nima deya olasiz?
7. Shevangizda yana qaysi bog‘lovchilar qo‘llanadi?
8. Shevangizdagi ko‘makchilarga tavsif bering.
9. Shevangizdagi undov va taqlidiy so‘zlarni sharhlab bering.
10. Shevalarning sintaktik xususiyati deganda nimani tushunasiz?
11. Yozib olingan matnlardan qanday sintaktik hodisalarni qayd qilishingiz mumkin?

11-mavzu. O‘zbek shevalari leksikasi va leksikografiyasi

Reja

1. O‘zbek shevalarining leksikasi tushunchasi.
2. Tarixiy jihatdan o‘zbek shevalari leksikasi tarkibi.
3. Shevalarning maxsus so‘zlari.
4. Sheva leksikasi qatlamlari.
5. Shevalarda leksik moslik.
6. Dialektal leksikografiya.

Matn

O‘zbek shevalari o‘zbek milliy tilining tarkibiy qismi sifatida umumiyl leksik qatlamiga egadir. Har bir shevaning leksik qatlami o‘sha shevaning hayotiy zarur so‘zlarini qamrab oladi.

O‘zbek shevalari leksikasi quyidagi ma’nolarda tushunilishi mumkin:

1. O‘zbek tili shevalaridagi barcha sohalarga oid so‘zlar yig‘indisi.
2. Muayyan shevaga xos barcha so‘zlar yig‘indisi.
5. Har bir shevaning o‘ziga xos so‘zlari. Bunday so‘zlar o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydi, lekin ular adabiy tilning boyish manbalari hisoblanadi.

O‘zbek shevalari o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishi sifatida unda bo‘lgan barcha qatlam so‘zlarini o‘zida birlashtiradi, binobarin, o‘zbek shevalari tarixiy jihatdan quyidagi leksik qatlamlardan iborat:

1. Umumturkiy so‘zlar.
2. O‘zlashgan so‘zlar:
 - forsiy tillardan o‘zlashgan so‘zlar;
 - arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar;
 - rus tili va u orqali o‘zlashgan so‘zlar.
3. O‘zbek tili sharoitida yaratilgan so‘zlar.
4. Shevalarning maxsus so‘zlari.

Umumturkiy so‘zlar barcha turkiy tillarda va shevalarda qo‘llanadi hamda ular o‘zbek shevalarida adabiy tildagi talaffuzini saqlashi ham mumkin, yoki

kuchli va kuchsiz fonetik o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Uni ushbu jadvaldan ham ko‘rishga bo‘ladi:

o‘zbek	bāš	yuräk(y)	qārā	men/män	bār
qozoq	bas	žürek	qara	men	bar
turk	baš	yürek	kara	ben	var
boshqird	baš	yöräk	kara	min	bar
yoqut	bas	-----	xara	min	bar

12. O‘zbek shevalari va turkiy tillar fonetik farqlari

Shevalar lug‘at tarkibining salmoqli qismini umumturkiy so‘zlar tashkil etadi.

O‘zbek tiliga so‘zlar, asosan, uch manbadan: fors (tojik), arab, rus tilidan o‘zlashgan, lekin kamroq bo‘lsa-da, boshqa tillardan ham o‘zlashgan so‘zlar bor. Bu so‘zlar shevalarda fonetik qulaylashtirilgan holda iste’molda bo‘ladi. Ilmiyatdagi ishlari natijalari shuni ko‘rsatadiki, shevalar lug‘at tarkibida forscha (tojikcha) so‘zlar ko‘proq, arabcha so‘zlar unga nisbatan kamroq, ruschabaynalmilal so‘zlar juda kam uchraydi, bu esa xorijiy so‘zlarning o‘zlashish jarayoni ko‘proq vaqt talab qilishi bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek shevalarida ***mixnät*** (Toshkent) // ***me:nät*** (Xorazm), ***qimmät*** (Toshkent) // ***qimbat*** (qipchoq), ***umir*** (Toshkent) // ***ömür*** (shim. o‘zb. shev.) kabi arab tilidan; ***dosti*** // ***dos*** (shim. o‘zb. shev.), ***dökän***, ***nax*** (Andijon), ***daraq*** // ***darax*** (Farg‘ona) kabi forscha-tojikcha so‘zlar; ***doxtir***, ***buyaltir***, ***istänsä***, ***pätinkä*** kabi rus va u orqali kirgan so‘slar mavjud va ular ham shevalar leksik tarkibini hosil qiladi. Shuni ta’kidlash lozimki, boshqa tillardan so‘z olish shu so‘zga ehtiyoj bo‘lgandagina amalga oshiriladi.

O‘zbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida turkiy va turkiy bo‘lmagan til elementlari negizida yangi so‘zlar ham yasalgan. Bu ayniqsa fan-texnika, bozor iqtisodi bilan bog‘liq so‘z va terminlarning yasalishida ko‘rinadi. Ularning asosiy qismi boshqa tillarga xos, lekin yasovchi unsuri (elementlari) o‘zbek tiliga oid

bo‘ladi va u yasama so‘z o‘zbek tilidagina qo‘llanadi, masalan, *ishxona*, *bizneschi*, *tasvirchi* va boshqalar. Bular, albatta, shevalarda ham ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadi va sheva mulki bo‘lib qoladi.

Shevalarning maxsus so‘zlarini shartli ravishda ikki guruuhga ajratish mumkin:

1. O‘zbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevalarda qayd qilinadigan so‘zlar. Bunday so‘zlar badiiy adabiyotlarda sheva koloritini berish jarayonidagina qo‘llanadi. Bu toifaga aksariyat hollarda qarindosh-urug‘chilikka oid so‘zlarni kiritish mumkin: kelin oyi ~ *gä:lin biji* (Xorazm), tog‘a ~ *nayači* (shim. o‘zb. shev.), oyi ~ *äčä* (Namangan), pochcha ~ *damad* (Chimkent). Shuningdek, boshqa tildan o‘zlashgan so‘zlarning shevada ko‘chma ma’no kasb etishi ham muayyan shevaga xos so‘zlarni tashkil etadi: *väž* – javob so‘z, gap (aslida vaj - bahona), *zat* – narsa, predmet (aslida kelib chiqish ma’nosida), *käsä* - piyola (aslida *kosa* ovqat quyiladigan idish), *enmäk* (Forish) – tushmoq, ketmoq; *pütki* – bolg‘a, *āva* – amaki (Afg‘oniston) va h.k.

2. Kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar: tashqi ~ *dishan* (Xorazm), tuproq ~ *yorpaq* (shim. o‘zb. shev.), qirq ~ *qix*, aqalli ~ *aqqal*, tajjor (taxt) ~ *taq* (qipchoq), g‘ilof ~ *ylp* (shim. o‘zb. sh.), egachi ~ *äkäži* (shim. o‘zb. shev.), chuqur ~ *bātuy* (botiq - Namangan), dasht ~ *dāš* (Toshkent vil.) va boshqalar.

Leksik moslik. Shevalardagi so‘zlarning o‘ziga xos ma’no munosabatlarini quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

a) ayni bir predmet va tushunchalar shevalarda turli so‘zlar bilan yuritiladi:
chaqoloq. *čäqälä:* (Toshkent) // *buväk* (Fargona) // *bala, böbäk, böpä* (shim. o‘zb.shev.);

tuxum. *tuxum* (Toshkent) // *mäjäk* (qipchoq) // *jümürta* (Xorazm);

og‘ir. oyir (Toshkent) // *käli* (shim.o‘zb.shev.) // *so:qi* (Xorazm);

chumoli. *čumäli* (Toshkent) // *morča* (Samarqand) // *qarïnža* (Xorazm);

ertak. *čopčäj* (Toshkent) // *mätäl* (Samarqand) // *ertäj* (Xorazm).

b) ayni bir so‘z shevalarda turlicha ma’noga ega bo‘ladi:

šäti - Toshkentda arava qismi nomi, Farg‘onada narvon;

buvi - Toshkentda ota va onaning onasi, Farg‘onada ona ma’nosida.

päššä - Toshkentda chaqmaydigan, Farg‘ona va shimoliy o‘zbek shevalarida chaqadigan hashorat.

d) narsa va buyumlar ayni bir vazifani bajarsa-da, ularning nimadan yasalganligi va harakat natijasiga ko‘ra ular turlicha nomlanishi mumkin.

Nonga ishlov beradigan asbob:

nānpär. U qush va parranda patidan yasaladi (Samarqand);

čäkič. U yog‘och va simdan yasalib, urish, yassilash ma’nosini ifoda qiladi (Toshkent);

düki. U *duk-duk* taqlidiy so‘zidan olingan (shim.o‘zb.shev).

Shuningdek, so‘zlar sheva vakillarining ayni bir predmetni ifodalashda turli tushunchalardan kelib chiqishlari asosida nomlangan bo‘lishi ham mumkin. Masalan, ***tüjnäk*** (shim.o‘zb.shev.) // ***dü:näk*** (Xorazm), ***sapča*** // ***čapča*** (qipchoq) so‘zlari endigina palakda paydo bo‘lgan, pishmagan qovunni bildiradi, ***tüjnäk*** // ***dü:näk*** so‘zi ***tugmoq***, ***tugun*** tushunchasidan kelib chiqqan, ***sapča*** // ***čapča*** esa **sop, ushslash mumkin bo‘lgan predmet** tushunchasi bilan bog‘liq.

Har bir shevaning o‘ziga xos so‘zlari bo‘ladi. Masalan, shimoliy o‘zbek shevalarida ***žaj*** (asta), ***tüňültirüv*** (asabga tegmoq), ***bötän*** (boshqa); qipchoq lahjasi shevalarida ***sijaq*** (turq), ***ırın*** (epidemiya); o‘g‘uz lahjasi shevalarida ***mäñzämäk*** (o‘xshamoq), ***atız*** (ekin maydoni).

O‘zbek shevalaridagi barcha leksik o‘ziga xosliklarni o‘rganish lug‘at boyligini, til imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi va shuning uchun ham adabiy tilga bunday so‘zlarni o‘rni bilan qabul qilib borish zarur.

Ilmiy tadqiqot ishlarida o‘zbek shevalarining zamonaviy leksik qatlamlari o‘rganib kelangan. Ulardagi qatlamlar nomlanishida deyarli o‘xshashlik bor, lekin sheva vakillarining kasb-kori, yondosh turkiy va turkiy bo‘limgan tillarning ta’siri, sheva leksikasini o‘rganishga bo‘lgan yondashuviga ko‘ra, ular tarkibida muayyan farqlar ham mavjud. Qolaversa, tadqiqotchining maqsadi ham sheva leksik qatlaming xususiyatini belgilashga sabab bo‘ladi. Shevalar leksikasi o‘rganilgan

ishlar tahlili aksariyat ishlarda quyidagi zamonaviy leksik qatlamlar to‘g‘risida fikr yuritilganligini ko‘rsatadi:

1. Moddiy va nomoddiy tushunchalar nomlari va ularning ma’nolari.
2. Kishi tana a’zolarining nomlari.
6. Qavm-qarindoshlikka oid so‘zlar.
7. Belgi va miqdor bildiruvchi so‘zlar.
7. Tabiat hodisalari, hayvonot va nabotot olamini ifodalovchi so‘zlar.
8. Oziq-ovqat nomlari.
9. Xalq etnografiyasi va kiyim-kechak, taqinchoqlar nomlariga oid so‘zlar.
10. Uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari.
11. Fan-texnika, tibbiyotga oid so‘zlar.
12. Vaqt tushunchali so‘zlar.
13. Turli kasblarga oid so‘zlar va boshqalar.

O‘zbek shevalariga xos so‘zlarni **jargon** va **argolardan** farqlash lozim, dialektal so‘zlar shevaning barcha vakillari uchun tushunarli bo‘ladi. Jargonlar va argolar esa dialektal xarakterga ega bo‘lmaydi, balki ma’lum ijtimoiy guruh yoki bir toifa kishilar uchungina tushunarli bo‘ladi. Masalan, savdogarlar tilida **dollar** o‘rnida **ko‘ki**, yallachilar tilida **to‘y** o‘rnida **otar**, **pul** o‘rnida **yakan** so‘zi qo‘llanadiki, ular ijtimoiy dialektga oiddir.

O‘zbek shevalari leksik jihatdan boy bo‘lib, uni yozma ifodalash masalasi lug‘atchilik deyiladi. Uning xalqaro termini leksikografiyadir. Bu soha o‘zbek tilshunosligida endigina rivojlanmoqda. O‘zbek shevalarining lug‘atlarini tuzish murakkab ish bo‘lib, u shevalarning o‘rganilishi bilan baravar olib borilmoqda. Garchand, “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” (Toshkent, 1981) hozircha yagona lug‘at sifatida dunyo yuzini ko‘rgan bo‘lsa ham, ungacha bo‘lgan va keyingi davrda shevalar bo‘yicha olib borilgan har bir tadqiqot ishida ularga lug‘atlar ilova qilingan. Bular jumlasiga F.Abdullayevning “O‘zbek tilining Xorazm shevalari. I. Lug‘at” (T., 1961), B. Jo‘rayevning Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari (tasnif, tekstlar va lug‘at. T., 1969), S. Raximovning “Surxondaryo o‘zbek shevalari lug‘ati” (Termiz, 1965), A. Ishayevning “Qoraqalpog‘iston dagi o‘zbek shevalari

lug‘ati” (1997) shuningdek, X. Jo‘rayev, O. Madrahimov, Q. Muhammadjonov, E. Sheraliyev, M. Mirzayev, V. Egamov, E. O‘rozov va shu kabi boshqa olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlariga I lova qilingan lug‘atlarni keltirish mumkin. Bu ilovalarni haqiqiy lug‘atlar darajasida ro‘yobga chiqarish navbatdagi vazifadir. Shu bilan birgalikda, shevalar lug‘atini tuzish ishini ham nazariy, ham amaliy jihatdan shakllantirish vazifasi ham ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Shevalar lug‘atchiligi bo‘yicha taniqli dialektolog A. Ishaev tadqiqotlari mavjud. Uning bu boradagi ishlarida ham shevalar lug‘atchiligining bir qator dolzarb masalalari ko‘tarilgan, jumladan, uning shevalar lug‘atiga kiritiladigan so‘zlarga bag‘ishlangan maqolasi ahamiyatlidir. Uningcha, shevalar lug‘atiga quyidagicha so‘zlar guruhi kirishi kerak:

1. Sof leksik-dialektal so‘zlar. Bunday so‘zlar adabiy tilda qo‘llanmaydi, faqat shevalardagina mavjud bo‘ladi.
2. Etnografik-dialektal so‘zlar. Shevalar lug‘atiga urug‘chilik, urf-odat, xalq og‘zaki ijodi, madaniyatiga oid so‘zlarning faqat shevalarda qo‘llanadigan variantlari kiritilishi kerak.
3. Leksik-semantik dialektal so‘zlar. Bunday so‘zlar adabiy tilda qo‘llansa-da, uning ma’nolaridan biri yoki bir nechasi faqat shevalarda mavjud bo‘ladi. Demak, bunday so‘zlarning shevalardagi ma’nosi e’tiborga olinadi. Masalan, adabiy tilda *pashsha* so‘zi shevalarda chaqadigan hashorat, *chivin* esa aksincha ekanligi kabi holatlar ko‘zda tutiladi.
4. Leksik-fonetik dialektal so‘zlar. Bunda muallif *yomon – jomon* kabi so‘zlar to‘g‘risida fikr yuritadi va bunday so‘zlarni lug‘at hajmini kengaytirib yuborishini e’tiborga olib, hozircha lug‘atga kiritmay turish kerak, deb hisoblaydi. Biroq bu fikr bir tomonlama aytilgan bo‘lib, shevalarimizdagi kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar, albatta, lug‘atga kirishi kerak. Masalan, *ul* (o‘g‘il), *sä:t* (soat), *žavchi* (sovchi), *uvuz* (hovuz, sigirning yoki qo‘yning birinchi suti) va b.
5. Leksik-derivatsion dialektal so‘zlar. Bunday lug‘atga faqat shevalarga xos yasama so‘zlar kiritilishi kerak.

6. Morfologik-dialektal so‘zlar. Bunda so‘z shakllari e’tiborga olinadi. Bunday so‘zlarni muallif lug‘atga kiritish tarafdori emas.

7. Frazeologik-dialektal iboralar. Bunday iboralar faqat shevalargagina xos bo‘lishi kerak. Albatta, bu kabi lug‘atlar maxsus tayyorlanadi.

Shuni qayd qilish lozimki, “leksik-fonetik so‘z”, “leksik-morfologik so‘z” terminlarining qo‘llanishi o‘zini oqlamaydi.

Tayanch tushunchalar:

Dialektal so‘z [диалектное слово, Dialectal word] – ma’lum shevagagina xos bo‘lgan so‘z.

Jargon [жаргон, slang] – ijtimoiy guruhlarning o‘ziga xos so‘zlari. Masalan, tartibot, savdo xodimlari.

Leksik moslik [лексическое соответствие, Lexical match] – ma’no jihatdan mos bo‘lgan so‘zlar.

Leksik qatlam [лексический пласт, lexical layer] – so‘zlarning muayyan tamoyillar asosida guruhlashtirilishi

Shevaning leksik tarkibi [лексический состав говора , Lexic structure of dialects] – ma’lum bir shevadagi barcha so‘zlar yig‘indisi.

Takrorlash uchun savollar:

1. O‘zbek shevalarining lug‘at tarkibi deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbek shevalaridagi dialektal so‘zlar semantik xususiyatlariga ko‘ra qanday guruhlarga bo‘linadi?
3. Tarixiy jihatdan o‘zbek shevalari lug‘at qatlamlarini izohlab bering.
4. O‘zbek shevalarinig zamonaviy lug‘at qatlamlari deganda nimani tushunasiz?
5. Shevaga xos maxsus so‘zlarining adabiy tilga munosabatini ochiqlab bering.
6. Dialektal leksik moslik nima?
7. Dialektal lug‘atlarga so‘z tanlashning qanday tamoyillari bor?

12-mavzu. Qarluq, o‘g‘uz, qipchoq lahjalarining muhim xususiyatlari

Reja

1. Lahjalarning qisqacha tarixi va tarqalishi.
2. Lahjalarning fonetik xususiyatlari.
3. Lahjalarning morfologik xususiyatlari.
4. Lahjalar leksikasidan namunalar.

Qarluq lahjası. Bu lahja tarixan qarluq urug‘larining rivojlanishi asosida shakllangan va ular qadimgi *tukyu* (turk) qabila birlashmasiga mansub bo‘lib, uzoq o‘tmishda Oltoyning g‘arbiy tumanlarida yashaganlar, Turk xoqonligining tashkil topishi bilan (552-yilda) g‘arbiy Oltoydan chiqib, Irtish daryosi sohillarini, Jung‘oriyani, Mo‘g‘ul tog‘ining janubiy yon bag‘ridan to Ile daryosining shimoligacha bo‘lgan hududni egallaydilar. Qarluqlarning katta qismi VI asr o‘rtalarida Sharqiy Turkistonni, Farg‘onani, Toxaristonning ayrim hududlarini tasarrufiga kiritgan edilar. X asrda Yettisuvni ishg‘ol qilgan va katta hududda hukmronlik qilganlar. Shunday qilib, VIII-X asrlarda Ile daryosidan to Sirdaryogacha, hozirgi Chimkent shahridan to Sharqiy Turkistongacha bo‘lgan o‘lkada yashagan barcha turkiy qabilalar qarluqlar hukmronligi ostida bo‘lgan. Qarluqlarning tili shu o‘lkadagi barcha qabilalar uchun umumiyligi bo‘lgan.

Yettisuv, Farg‘ona vodiysi, Sharqiy Turkistonning Torim daryosigacha bo‘lgan hududda qarluqlar bilan birga *chigil*, *xalaj*, *yag‘mo* qabilalari ham yashaganlar, *uyg‘urlar* ham qarluqlar tarkibida bo‘lgan.

Chigil qabilasi IX-X asrlarda Ile daryosining janubida, Issiqko‘l atroflarida yashaganlar¹².

Mazkur lahja vakillari, asosan, shahar va shahar tipidagi shevalarni va dialektlarni qamrab oladi.

Bu lahjaning boshqa lahjalardan farqi uning singarmonizmni saqlashiga ko‘ra, ikki guruhga ajralishidir, ya’ni shahar va shahar tipidagi shevalarda singarmonizm qonuni amal qilmaydi (uning ayrim ko‘rinishlarigina mavjud bo‘ladi), shimoliy

¹²Bu ma’lumotlar K. Shoniyozdovdan olindi. Qarang: Шониёзов К. Қарлуклар ва уларнинг тили ҳакида айrim мулоҳазалар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. – Тошкент: ФАН. – Б. 481-490.

o‘zbek shevalarida esa singarmonizm saqlanadi, shuning uchun ham shahar va shahar tipidagi shevalarda unlilar **6, 7** tadan (ä, o, u, ā, i, e) oshmaydi, shimoliy o‘zbek shevalarida esa **9** unli: **a(ā), ä, o, ö, u, ü, i(i), i:(i), e** unlilari qatnashadi.

Bu lahja shevalari 5 va 4 kelishiklidir. Bundan shimoliy o‘zbek shevalari mustasno bo‘lib, faqat Chimkent shahar shevasigina 5 kelishiklidir. Lahjaning boshqa singarmonizmli shevalarida 6 kelishik saqlanadi. Fe’l shakllarida ham o‘ziga xosliklar mavjud.

Bu lahja shevalari to‘rt guruhga bo‘linadi:

1. Toshkent guruhi shevalari. Bunga Toshkent, Parkent, Piskent, Yangiyo‘l kabi shevalar kiradi.

Fonetik xususiyatlari:

so‘zning har qanday bo‘g‘inida old qator va orqa qator unlilar kela oladi: aka ~ **ākä**, bola ~ **bälä**, g‘alati ~ **yäläti**;

ü va **u** unlilari o‘rnida oraliq **u** unlisi qo‘llanadi: gul ~ **gul**, qum ~ **qum**;

ö va **o** unlilari o‘rnida oraliq **o** unlisi qo‘llanadi: qol ~ **qol**, kol ~ **kol**;

i: va **ï** unlilari o‘rnida oraliq i unlisi qo‘llanadi: kim ~ **kim**, chiq ~ **čiq**;

e tovushi **i** tovushiga o‘tadi: mehnat ~ **mixnät**, dedi ~ **didi**;

so‘z oxirida **k** // **j** almashuvi yuz beradi: terak ~ **teräj**, ertak ~ **yertäj**, bilak ~ **biläj**;

so‘z oxirida **q** undoshi tushib qoladi: chiroq ~ **čirā:**, sariq ~ **säru:**, achchiq ~ **äčču:**, qattiq ~ **qättu::**;

so‘z boshi va oxirida **γ** undoshi tushib qoladi va unda oldingi **ā** unlisi cho‘ziq talaffuz etiladi: og‘zi ~ **ā:zi**, tog‘ ~ **tā:** ;

h bo‘g‘iz undoshi aksariyat shevalarda **x** undoshiga o‘tadi: hurmat ~ **xurmat**, hunar ~**xunär**;

tushum kelishigida to‘liq progressiv assimilatsiya yuz beradi: tuzni ~ **tuzzi**, oshni ~ **āšši**, temirni ~ **temirri**;

so‘z boshida **t** va **č** undoshlari mosligi yuz beradi: tushda ~ **čuštä**, tushdi ~ **čušti**.

Morfologik xususiyatlari:

5ta kelishikli sheva;

bu shevalarda *-ni* affiksi (fonetik variantlari bilan) ham qaratqich, ham tushum kelishigini ifoda etadi: suvning tegi ~ *suvvi teji*, pichoqning sopi~ *pičā:ni sāpi*, otni min ~ *ātti min*;

hozirgi zamon davom fe'li Toshkentda *-vāt* affiksi va uning assimilativ variantlari qo'llanadi: *kevāmmän*, *kevāssän*, *kevātti*, Parkentda *-āt* affiksi qatnashadi va uning tarkibidagi **t** undoshi assimilatsiyaga uchramaydi: *bārātmän*, *bārātsän*, *bārātti*;

-š // iš // uš affiksi harakat nomining asosiy affiksi hisoblanadi: yetishdi ~ *jetišti*, qurishdi~ *qurušti*;

-lär affiksi va uning variantlari hurmat va ulug'lash ma'nosini ifodalaydi;

-lig // lug affiksi ko'plik ma'nosini ham anglatadi: ularning uylari ~ *ulä:ni oylugi*, dadamlarning ishlari ~ *ädämgilä:ni išligi*;

-gi affiksi Toshkent shevasida jamlik ma'nosini ifoda qiladi: *ädämgilä* (adam + boshqalar). *äjimgilä* (oyim + boshqalar);

fe'l tuslanushining I shaxs ko'pligida *-vuz/vuzä*, *-v/uv* affikslari qatnashadi: *bārāvuz*, *bārāvuzä*, *bārduv*.

2. Farg'ona guruhi shevalari.

Fonetik xususiyatlari:

so'z boshida **t** // **č**, **s** // **č** undoshlari almashadi: tush ~ *čuš*, tish ~ *čiš*, soch ~ *čāč*;

so'z oxirida **k** // **g**, **q** // **γ** almashuvi sodir bo'ladi. Masalan, yo'q ~ *joy*, bo'lak (boshqa) ~ *böläg*, bir kunlik ~ *bir kullug*, baliq ~ *bəliy*. Olmoshlarda: qandoq ~ *qandāy*, andoq ~ *andāy*, shundoq ~ *šundāy*, bundoq ~ *bundāy* (Namangan);

turli holatlarda **x** // **q** undoshlari almashadi: toxta ~ *toqtä*, to'qson ~ *toxsän*, boqdik (qaradik) ~ *bāxtuq* (Namangan);

progressiv assimilatsiya qayd qilinadi: qushni ~ *qušši*, gapni ~ *gäppi*, toshni ~ *tāšši*;

umlaut hodisasi qayd qilinadi: bosh+i ~ *bäši* (O'sh), ot+ i ~ *āti/eti* (Namangan).

Morfologik xususiyatlari:

bu shevalar 5 kelishiklidir;

bu shevalarda **-ni** affiksi (fonetik variantlari bilan) ham qaratqich, ham tushum kelishigini ifoda etadi: akasining ishi **äkäsini iši**, oshning tuzi **äšti tuzi**;

tushum kelishigi affiksidiagi **n** undoshi **d**, **t** undoshi bilan almashadi. Bu Andijon, Marg‘ilon, Qo‘qon guruh shevalarida qayd qilinadi. Bunda jarangsiz undoshdan so‘ng **-ti**, jarangli undoshdan so‘ng esa **-di** variantlari qo‘shiladi: oshning mazasi ~ **äšti mäzäsi**, tolni kesdi ~ **täldi kesti**;

-š // iš // uš affiksi harakat nomining asosiy affiksi hisoblanadi: kelish ~ **keliš**, qurish ~ **quruš**;

-lär affiksi ba’zan **-nä** variantida ham keladi: ishinglar ~ **išijnä**, bog‘inglar ~ **bäyijnä** (Namangan);

fe’l tuslanishining I shaxs ko‘pligida adabiy tilga xos shakl bor: boramiz ~ **bärämiz**, keldik ~ **keldik**, bordik ~ **bärdik**;

harakat va paytning chegarasINU ifodalashda **-čāvur** (-**gəčə** affiksi o‘rnida) qo‘llanadi: bahorgacha ~ **bähärgäčävur**, shahargacha ~ **šähärgäčävur**;

tartib son **-nži** affiksi bilan shakllanadi: birinchi ~ **birinži**, beshinchi ~ **bešinži**;

-jäp affiksi Farg‘ona dialektida hozirgi zamon davom fe’lini hosil qiladi: boryapti ~ **borjäpti**;

-ut affiksi Namangan shahar shevasida hozirgi zamon davom fe’lini hosil qiladi: ketyapman ~ **ketuttimän**.

3. Samarqand-Buxoro guruh shevalari. Bu guruhga Samarqand, Buxoro, Qarshi, Koson, Chust, Xo‘jand kabi shevalar kiradi.

Fonetik xususiyatlari:

ä unlisi boshqa shahar shevalaridan farqli ravishda **o** unlisiga yaqin, ya’ni qisman lablangan: oldim ~ **ä(o)llim**, bozor ~ **bä(o)zä(o)r**;

so‘zning ikkinchi bo‘g‘inida adabiy tildagi **i** unlisi “**u**” ga o‘tadi: xotin ~ **xätun**, dori ~ **doru**;

j, h undoshlaridan oldin adabiy tildagi **u** unlisi “**o**” ga o‘tadi: uyqu ~ *ojqu*, suhbat~ *sohbät*, guruh ~ *guroh*;

s, g, γ undoshlaridan oldin **o** unlisi “**u**” ga o‘tadi: o‘gay ~ *ugäj*, o‘sma ~ *usmä*, bog‘ma ~ *buymä*;

ba’zi so‘zlarda **i** unlisi “**e**” ga o‘tadi: mix ~ *mex*, tig‘ ~ *tey*, umid ~ *umed*;

x, h undoshlari farqlanadi: xon ~ *xān*, hol ~ *hāl*;

I undoshi bilan tugagan so‘zlarga **d** undoshli affiks qo‘shilganda, progressiv assimilatsiya yuz beradi: oldim ~ *ällim*, keldim ~ *kellim*, aldap ~ *älläp*.

Morfologik xususiyatlari: jo‘nalish kelishigi affiksi o‘rin-payt kelishigi ma’nosini ham ifodalaydi: Uyda bor ~ *ujgä bär* (Qarshi). Bu o‘rinda -*gä* affiksi ham jo‘nalishni, ham o‘rin-payt ma’nosini ifodalagan;

hozirgi zamon davom fe’li -*äp* affiksi bilan ifoda qilinadi: kelyapman ~ *keläppən*, so‘rayapsan ~ *söräpsän*, koryapti ~ *köräptu*;

uzoq o‘tgan zamon fe’lida tuslovchi affikslar qatnashmasligi mumkin: **män kelgän, sän kelgän, u kelgän; biz kelgän, siz kelgän, ulär kelgän**;

o‘tgan zamon hikoya fe’lida -*är* (bolishsizi -*mäs*) sifatdosh affiksi tarkibidagi **r**, bo‘lishsizidagi **s** undoshlari **j** undoshiga o‘zgaradi: kelar edim ~ *keläjidim*, kelmas edim ~ *kelmäjidim*, kelar ekan ~ *keläjikän*, kelmas ekan ~ *kelmäjikän*, kelmas emish ~ *kelmäjimiš*.

4. Turkiston-Chimkent-Sayram guruh shevalari.

Fonetik xususiyatlari:

9 unlili sheva: **i, ī, e, a, ä, u, ü, o, ö**;

singarmonizm qonuni amal qiladi;

quyidagi tovush mosliklari qayd qilinadi:

i ~ e. ikki ~ *ekki*, siyrak ~ *se:räk*;

e ~ u. devona ~ *duvana*, devor ~ *duval*;

e ~ ö. etik ~ *ötük*, belanchak ~ *bölünčäk*;

e ~ ä. kelin ~ *kälin*, ekin ~ *äkin*;

γ ~ v. tog‘ ~ *tav*, bog‘ ~ *bav*.

ayrim so‘zlarda birlamchi cho‘ziq unlilar saqlanadi: sut ~ *sü:t*, tush ~ *tü:š*.

Morfologik xususiyatlari:

ko‘plik affiksining **-lar // lär, -nar // nǟr** variantigina qo‘llanadi; olti kelishikli sheva, faqat Chimkent shahar shevasi besh kelishikli; qaratqich kelishigi affiksi undoshlardan keyin **-iñ // ïñ** variantlarda qo‘shiladi: otning dumi ~ **atññ qujruyñ**, bizning ishimiz ~ **biziñ išimis**; tushum kelishigi affiksi assimilatsiyaga berilmaydi.

Jo‘nalish kelishigida kishilik olmoshlari **maña, saña, uña** hamda **maya(n), sayäa(n), uya(n)** kabi turlanishga ega bo‘ladi;

hozirgi zamon davom fe’li **-jap** affiksi bilan shakllanadi va u faqat bir variantlidir: boryapman ~ **barijappan**, ketyapsan ~ **ketijapsan**, oynayapti ~ **ojnajapti**.

Buyruq-istak mayli 2-shaxsida **-si:(j)+či // -sii:(j)+či** affiksi qo‘llanadi va u qistov ma’nosini anglatadi: borsangch i ~ **barsi:(j)či**, bersangchi ~ **be:si:(j)či**. Bunda **-či // či** qismi har doim ishlatilmaydi.

Lahja leksikasidan namunalar. Bu lahjaning leksikasi butun lahja uchun umumiy bo‘la olmaydi, balki Toshkent, Farg‘ona vohasi, Buxoro guruh shevalari va shimoliy o‘zbek shevalari leksikasida muayyan farqlar mavjud.

Toshkent, Farg‘ona shevalarida quyidagi kabi so‘zlar qo‘llanadi: arg‘amchi ~ **äryämči**, agat ~ **ägät**, masxara ~ **äžuvä**, deraza ~ **äjnäk**, yaroqsiz ~ **äkčä** (Toshkent), shakarob ~ **äčču:-čučču:**, sirg‘a ~ **ziräj**, ammo ~**i:llä**, goh-gohda ~ **jägädä** (Andijon), uchrashish ~ **kezikishi** (O‘sh), darg‘azablik ~ **kurir** (Toshkent), o‘jar ~ **qijiq** (Andijon), sopol idish ~ **qoqäčä** (Andijon), janjalkash ~ **loli** (Farg‘ona), so‘ta ~ **märdäk** (Farg‘ona), qo‘lqop ~ **mijäläk** (O‘sh), holat ~ **älpäz** (Toshkent).

Buxoro guruh shevalarida quyidagi kabi so‘zlar qo‘llanadi: belanchak ~ **älvänž**, kekirdak ~ **ärük**, bexostan ~ **bänäxäṣ**, agar ~ **bälle**, salomlashmoq ~ **växordi**, beshik ~ **gävärd**, sovg‘a ~ **zällä**, nimcha ~ **ičik**, ko‘rpa ~ **kämpäl**, yenglik ~ **ästinčä**.

Shimoliy o‘zbek shevalarida quyidagi kabi so‘zlarni uchratish mumkin: katta ~ **däv**, ko‘rsatkich barmoq ~ **baramaltaq**, opa ~ **ajtoti**, og‘ir xarakterli ~ **arqaliq**,

namroq ~ *iyal*, boyagi ~ *janayi*, ho'l ~ *jaš*, ochko'z ~ *jerik*, nuql ~ *öñkäj*, vazmin ~ *salaqa*, barmoq ~ *šavšaq*.

O'g'uz lahjası. Qadimda o'g'uzlar Ile daryosi bo'yalarida shakllanib, IX-X asrlarda Sirdaryoning o'rta va quyi oqimi va Orol bo'yi tumanlarida istiqomat qilganlar. Keyinchalik g'arbgan qarab siljiganlar.

Bu lahja vakillari O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Forish, Olot, Qorako'l tumanlarida, Turkmanistonning Toshhovuz, Qozog'istonning Qarnoq, Iqon, Qorabuloq, Qoramurt, Mankent aholi punktlarida istiqomat qiladilar.

O'g'uz lahjası, asosan, Xorazm vohasida keng tarqalgan, lekin bu voha faqat shu lahjadan iborat degan so'z emas. Professor F.Abdullayevning ko'rsatishicha, bu hududda qipchoq lahjasiga oid shevalar ham bor.

Fonetik xususiyatlari:

bu lahja shevalarida *a*, *u*, *ü*, *i:*, *i*, *ї:*, *ї*, *o*, *ö*, *ä*, *e* unlilari qo'llanadi;

kontrast juft unlilar mavjud;

qisqa va cho'ziq unlilar farqlanadi, ya'ni turkman tilidagi kabi qadimgi turkiy cho'ziq unlilar (birlamchi cho'ziq unlilar) mavjud: at (ism) ~ *a:d*, o't (o'simlik) ~ *o:t*;

dastlabki bo'g'inda *e* unlisi *ä* unlisiga o'tadi: kel ~ *gäl*, dedi ~ *dädi*, berdi ~ *bärdi*;

-*däj* qo'shimchasidagi *ä* unlisi *ї* unlisiga o'tadi: shunday ~ *šundij*, bunday ~ *bundij*;

so'z boshida **t** undoshi jaranglashadi: til ~ *di:l*, tun ~ *dü:n*, tep ~ *də:r*, tush ~ *dü:š*;

so'z boshida **k** tovushi jaranglashadi: ketti ~ *gitti*, kel ~ *gäl*, kun ~ *gü:n*, ko'z ~ *gö:z*;

q va **γ** undoshlari palatalizatsiyalashadi ~ *q'anii*, qanday ~ *q'andaj*, G'arib ~ *γ'ari:p*, tog'lar ~ *da:γ'la:*;

bo'l fe'lining boshidagi **b** undoshi tushib, **ol** tarzida talaffuz etiladi;

k, **q** undoshlari bilan tugagan so‘zlarga qo‘sishimcha qo‘shilganda, bu tovushlar jaranglashmaydi: tilagi **tiläki**, sochig‘i ~ **sa:čaqi**;

ayrim shevalarda ko‘hna e unlisi talaffuzda bor: kel ~ **gel**, ber ~ **bær**, er ~ **e:r**.

Morfologik xususiyatlari:

qaratqich kelishigi affiksining **-iŋ // īŋ** varianti ham qo‘llanadi: otning boshi ~ **a:tīŋ baši**, bizning shahrimiz ~ **biziŋ qa:lamüs**. Urganch, Xiva shevalarida qaratqich va tushum kelishiklari **-ni // nī** affiksi bilan ifoda qilinadi;

jo‘nalish kelishigi affiksi **-a // ä** variantida ham qo‘llanadi: otimga ~ **a:tüma**, ishga ~ **i:šä**;

sifatning intensiv shakli **düm** ravishi bilan shakllanadi: **düm jaxşıi**, **düm i:ssi**, **düm jaman**;

men, **sen**, **u** olmoshlari yolg‘iz holda **män**, **sän**, **u** tarzida, jo‘nalish kelishigida **maṇa**, **saṇa**, **uṇa** variantlariga ega bo‘ladi;

III shaxs kishilik olmoshi birligida **hu // vu** ko‘pligida **hular // vular** tarzida diftonglashadi;

ko‘plik affiksi **-lä // la** variantida ham qo‘llanadi: gullar ~ **güllä** olinglar ~ **alinqla**;

tartib son **-nži // nži** variantida qo‘llanadi; **birinži**, **bešinži**, **altinži**;

harakat nomi **-maq // mäk** affiksi bilan hosil qilinadi: ko‘rmoq ~ **görmäk**, ishonmoq ~ **i:nanmaq**;

hozirgi zamon davom fe’li **-jatır** affiksi (u ham bir variantli) bilan shakllanadi: kelyapti ~ **gäyatır**, boryapti ~ **barjatır**;

kelasi zamon fe’li **-žäk // žaq** affiksli shakl bilan ham hosil qilinadi: keladigan ~ **gälžäk**, boradigan ~ **baržaq**;

buyruq-istak fe’lining ko‘plikdagi I shaxs shakli **-(ä)li // (a)li** affiksi bilan shakllanadi: kelaylik ~ **gäläli**, boraylik ~ **baralı**;

buyruq-istak fe’lining II shaxs birligining o‘g‘uz lahjasи shevalarida o‘ziga xos shakli bor: bersangchi ~ **bärsäñü**, borsangchi ~ **barsaṇa**;

kelasi zamon fe’lida **-a // ä** affiksli ravishdoshi asosida **-si // sī** affiksi bilan hosil qilingan shakli qo‘llanadi: **alasüm**, **alasïŋ**, **alası**; **alasümiz(s)**, **alasïŋiz(s)**,

alasıř; ičäsim. i:čäsiň, i:čäsi; ičäsimiz(s), i:čäsiňiz(s), i:čäsi. Bu so‘z *gäldi* so‘zi bilan birga qo‘llanadi.

Lahja leksikasidan namunalar: go‘zal ~ *ajpara*, ha ~ *ava* // *havva*, poraxo‘r ~ *a:lünsaq*, kichik sandiq ~ *a:rža*, arava shotisi *a:rš*, katak ~ *a:tanaq*, avarak (burunga taqiladigan bezak) ~ *ä:väräk*, poygak ~ *ä:dän*, ayb, gunoh ~ *ä:läšmä*, yirik // katta ~*babaŋ*, chorraha ~ *bändirjä*, maza qilmoq ~ *häzätmäk*, danak ~ *bi:žänä*, sabzavot ~ *zïlal*, chiziq(yol) ~ *zï:y*, shamol ~ *je:lpis*, bedarak ~ *qujin*, qishloq ~ *o:va*, o‘tin ~ *o:mča*, tutandiriq ~ *pä:zzä*, qaddi-qomati kelishgan ~ *taqsï*, serjahl ~ *tosalaŋ*, boshliq ~ *ho:p*, yosh yigit ~ *žo:žiq*, tom ~ *üčäk*.

Qipcoq lahjası. Qipchoq qabilalari ham uzoq o‘tmishda Oltoy o‘lkasida yashaganlar. VII-VIII asrlarda Turk xoqonligi tarkibida bo‘lgan. XIII asr o‘rtalarida ular *kimak* // *imak* (yimak)lar davlati tarkibida qoladilar. XI asrda bu davlat parchalanib ketgach, qipchoqlar siyosiy jihatdan faollashadilar.

VII-VIII asrlarda qipchoqlar Irtish daryosi bo‘yida yashaganlar, IX-XI asrlarda esa Volga bo‘ylariga siljib borgan. Qipchoqlarning avlodlari hozirgi Mongoliya, Oltoy, O‘rta Osiyo, Volga bo‘yi territoriyalarida istiqomat qiladilar.

Bu lahja vakillari O‘zbekiston Respublikasining Toshkent viloyati, Sirdaryo, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida, Qozog‘istonning So‘zoq tumanida, Turkistonning Suvnoq, Cho‘rnoq qishloqlarida yashaydilar.

Fonetik xususiyatlari. Qipchoq lahjası shevalarida singarmonizm qonuni to‘liq amal qiladi. Hatto fe’llardagi yetakchi va to‘liqsiz fe’ldan iborat fe’l shakli ham singarmonizmga bo‘ysunadi: bor ekan ~ *baraqan*, boribmi ekan ~ *barippaqan*, ko‘p ekan ~ *küvækän*. Shuningdek, quyidagi fonetik hodisalar qayd qilinadi:

kontrast (juft) unlilar: *ü* ~ *u*, *ö* ~ *o*, *i:* ~ *ï*; *i* ~ *ï*, *ä* ~ *a* mavjud;

palatal singarmonizm to‘liq, labial singarmonizm esa qisman saqlanadi;

diftonglashish kuchli: *ie*, *uo*, *öö*;

so‘z boshida **j** // **ž** undoshi mosligi qayd qilinadi: yo‘l ~ *žol*, yomon ~ *žaman*;

g // **γ** undoshlari **j** undoshiga o‘tadi: yig‘in ~ *žijin*, tegdi ~ *tijdi*, sigir ~ *sijir*;

so‘zda unlilar o‘rtasida **p**, **k**, **q** undoshlari jaranglashadi: gäp ~ **gäbi**, ekin ~ **egin**, chiqin ~ **čiyyin**;

x undoshi **q** undoshiga o‘tadi: xotin ~ **qatin**, tuxum ~ **tuqum**, xayol **qijal**, xat ~ **qat**, aksincha, **q** undoshi **x** undoshiga ham o‘tadi: vaqt ~ **vaxt**, oq ~ **ox**;

so‘z oxirida **k**, **q** undoshlari tushib qoladi: sariq ~ **sarii**, kichik ~ **kiči**;

unli bilan boshlanadigan so‘zlar boshida **h** undoshi ortadi: ayvon ~ **hajvan**, aql ~ **haqlı**;

so‘z o‘rtasida va oxirida **γ**, **q**, **k** undoshlari **v** undoshiga o‘tadi: og‘iz ~ **avuz**, bog‘ ~ **bav**, tog‘ ~ **tav**, bo‘yoq ~ **bojav**, ellik ~ **elüv**.

Morfologik xususiyatlari:

qaratqich va tushum kelishiklari affiksida **n** undoshi sonor va jarangli undosh bilan tugagan so‘zlarda **d**, jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlarda **t** tovushlari bilan almashadi: uyning ~ **ujduη**, otning ~ **attinη**, ishni ~ **išti**, gulni ~ **güldi**;

jo‘nalish kelishigining belgisiz qo‘llanishi xarakterli: armiyaga ketgan ~ **ärmiyä ketkän**, o‘qishga bordi ~ **oquv bardii**;

kishilik olmoshlarining jo‘nalish kelishigi shakli menga ~ **mayan**, senga ~ **sayan**, unga ~ **uyan** shaklida qo‘llanadi;

so‘zga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilganda, regressiv assimilatsiya yuz beradi: jigitlar ~ **žigillär**, atlar ~ **allar**;

harakat nomi ~ **v** // **uv** // **üv** affiksi bilan ifoda qilinadi: boruv ~ **baruv**, keluv ~ **kelüv**, qoluv ~ **qaluv**;

hozirgi zamon davom fe’li **-žatır** affiksi (uning old qator varianti yo‘q) bilan hosil qilinadi: boryapti ~ **baripžatır**, ketyapti ~ **ketipžatır**;

kelasi zamon sifatdoshi **-tiyan** affiksi (uning ham old qator varianti yoq) bilan hosil qilinadi: keladigan ~ **kelättyan**, boradigan ~ **baratıyan**;

hozirgi-kelasi zamon fe’lining III shaxsida **-di** affiksi qatnashmaydi. **Kelmoq** fe’li tuslanishi: **kelämän**, **keläsän**, **kelä**; **bormoq** fe’li tuslanishi: **baraman**, **barasan**, **bara**;

bilan ko‘makchisi **-män** // **man** tarzida sintetiklashadi: ishi bilan ~ **išimän**, oyog‘i bilan ~ **ajayıman**.

Lahja leksikasidan namunalar: jarchi ~ *ajtīmči*, mayda ~ *ačarva*, xayriyat ~ *bavžüt*, bosh barmoq ~ *barmaltaq*, titroq ~ *varaža*, iliq ~ *žilim*, issiqroq, sovimagan ~ *ilimiq*, farosat ~ *indim*, moyillik, xohish ~ *iňžim*, o'pich ~ *mučči*, cho'qqi ~ *sala*, taxchil ~ *sanžap*, janjalkash ~ *türžiç*, yolg'on ~ *öšäk*, so'qmoq ~ *qasaya*, epchil ~ *yadañ*, kuy ~ *ädävür*.

Tayanch tushunchalar:

Chigil, xalaj, yag'mo, uyg'ur, qarluq [чиgil, халаж, ягма, уйгур, карлук; chigil, khalag, jagma, ujgur, karluk] – qadimgi turkiy qabilalar.

O'g'uzlar [огуз, oguz] - qadimgi turkiy qabilalar.

Qipchoq, kimak // imak (yimak) [кипчак, кимак; Kipchak, kimak] – qadimgi turkiy qabilalar.

Takrorlash uchun savollar:

1. Qarluq lahjasining eng muhim fonetik belgilari qaysilar?
2. Qarluq lahjasining asosiy morfologik xususiyatlarini sanab bering.
3. Qarluq lahjasiga xos yana qanday so'zlarni bilasiz?
4. O'g'uz lahjasining eng muhim fonetik belgilari qaysilar?
5. O'g'uz lahjasining asosiy morfologik xususiyatlarini sanab bering.
6. O'g'uz lahjasiga xos yana qanday so'zlarni bilasiz?
7. Qipcoq lahjasining eng muhim fonetik belgilari qaysilar?
8. Qipcoq lahjasining asosiy morfologik xususiyatlarini sanab bering.
9. Qipcoq lahjasiga xos yana qanday so'zlarni bilasiz?

13-mavzu: O'zbek adabiy tili va shevalar

Reja

1. Adabiy tilning ta'rifi.
2. Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari.
3. Adabiy til va tayanch dialekt.
4. Badiiy adabiyot va dialektizm.
5. Sheva - adabiy tilning boyish manbasi.
6. O'zbek adabiy tili va dialektlari avtonomiyasи va geteronomiyasi.

Matn

Adabiy tilning ta'rifi. Ma'lumki, har bir adabiy til milliy (xalq yoki elat) tilning yuqori bosqichi bo'lib, u normalashgan yoki normalashtirilgan til hisoblanadi. Unga yana quyidagi ta'rifni berish mumkin: "Adabiy til leksik jihatdan nisbatan barqaror, fonetik-fonematik va grammatik jihatdan muayyan qolipga tushgan, yagona orfografik va orfoepik normalarga amal qiladigan, so'z ustalari tomonidan sayqal berilgan milliy tilning yuqori bosqichidir" (13-rasm).

O'zbek adabiy tili ham shu qoidaga amal qiladi.


Adabiyotlarda har bir tilning adabiy shakli va dialektlari uning *turli ko'rinishilarini, namoyon bo'lishini* ("разновидность" termini qo'llangan) deb yuritiladi¹³.

Adabiy til biror shevaga teng kelmaydi, u bir til doirasida barchaga birday xizmat qiladi, hech bir sheva adabiy tilga tenglashtirilmaydi.

Adabiy til va shevalar turli funksiyalariga ko'ra farqlanadi:

1. Adabiy til davlat, siyosat, fan, san'at tili hisoblanadi, ayni zamonda bu tilda savodxon shaxslar ish ko'radi. Sheva esa muayyan hududda qo'llanadi va shu hududning o'zidagi aholigagina xizmat qiladi.
2. Adabiy til yozma va og'zaki shakllarga ega bo'ladi, sheva esa faqat og'zaki ko'rinishga ega.
3. Adabiy til qat'iy amal qilinadigan normalardan iborat bo'ladi. Sheva ham muayyan hududda o'ziga xos normalari bo'ladi, lekin u umumtil doirasiga chiqqolmaydi.
4. Adabiy tilning funksional uslublari rang-barang, shevalarda bunday uslublar to'g'risida fikr yuritilmaydi.
5. Adabiy til va shevalar o'rtasida ziddiyatlar bor, lekin ular adabiy tilning boyishiga xizmat qiladi.

¹³ Русская диалектология. – Москва: Просвещение, 1989. –С. 6.



13-rasm. Adabiy til

Har bir milliy tilning ikki bosqichi bo‘ladi:

1. Milliy tilning quyi bosqichi. Bu mahalliy shevalar demakdir.
2. Milliy tilning yuqori bosqichi. Bu uning adabiy tilidir.

Ayrim manbalarda bu ikki bosqich oralig‘da *koyne* termini bilan yuritiladigan til to‘g‘risida ham ma’lumot beriladi, ya’ni aksariyat shevalar uchun umumiy bo‘lgan so‘zlashuv tili *koyne* deb yuritiladi. Bunga xalq og‘zaki ijodi asarlari tilini ham kiritish mumkin, bu asarlar tili ham adabiy til, ham mahalliy shevalarga xos xususiyatlarni aks ettiradi, shuning uchun ham shevalar o‘rganilganda, xalq og‘zaki ijodidan ko‘plab misollar keltiriladi.

Adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari. O‘zbek adabiy tili ikki shaklda bo‘ladi: og‘zaki va yozma. Og‘zaki adabiy til orfoepik normalarga bo‘ysundiriladi. Og‘zaki adabiy til davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan barcha sathdagi rasmiy majlislar, o‘qish-o‘qitish ishlari, ommaviy majlislarda qo‘llanadi. Yozma adabiy til esa orfografiya qoidalari asosida shakllantiriladi va orfografiya qoidalari joriy o‘zbek alifbosiga asoslanadi. Unda bir necha tamoyillardan foydalaniladi: fonetik, fonematik, morfologik, grafik, tarixiy-an’anaviy, ramziy va boshqalar.

Adabiy tilning tayanch dialekti. Har bir adabiy til o‘zining tayanch dialektiga ega bo‘ladi. To‘g‘ri, o‘zbek adabiy tilining shakllanishida shevalarning barchasi u yoki bu darajada ishtirok etadi, lekin ma’lum shevalar adabiy til uchun asos, tayanch (baza) vazifasini bajaradi, ya’ni o‘zbek adabiy tili muayyan sheva va

shevalardan leksik, fonetik, gramatik xususiyatlarni adabiy til fakti sifatida oladi hamda o’sha sheva va shevalar guruhi taraqqiy etishi bilan birga taraqqiy etadi, chunki sheva jonli til bo‘lib, u doimo rivojlanishda, o‘zgarishda bo‘ladi, shu tufayli ham adabiy til shu sheva yoki shevalar guruhi rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda taraqqiy etib boradi, aksincha, adabiy til o‘zining tayanch dialektiga ega bo‘lmasa, u bora-bora muomaladan chiqib ketadi. Muomaladan chiqqan til fanda “o‘lik til” degan termin bilan yuritiladi. Tillar tarixida “o‘lik tillar” mavjudligi haqida ma’lumotlar ko‘p.

O‘zbek adabiy tili shartli ravishda *fonetik jihatdan Toshkent shahar dialektiga, morfologik jihatdan esa Farg‘ona dialektiga tayanadi*. Ma’lumki, Toshkent shevalari **6** ta unlili (*u, o, ä, e, i, ã*) dialektdir. Farg‘ona dialektidagi so‘z shakllari, xususan, fe’l shakllari o‘zbek adabiy tiliga norma sifatida qabul qilingan. Aslida adabiy tilni bir yoki ikki sheva yoki dialekt bilan bog‘lab qo‘yish juda ham to‘g‘ri emas, balki o‘zbek adabiy tili barcha shevalar hisobiga boyib, mukammallahib boradi. Shu ma’noda shevalar adabiy tilning boyish manbayi bo‘lib qoladi. Garchand, adabiy tilda qarluq lahjasining unsurlari ko‘p uchrasa-da, unda qipchoq va o‘g‘uz lahjalarining xususiyatlari ham norma sifatida ishtirok etgan o‘rinlar mavjud. Masalan, adabiy tildagi *jun, jo‘natmoq, jo‘ni, jo‘nalish* so‘zlari qipchoq lahjasiga xosdir. Bu so‘zlarning ayrim qarluq lahjasiga oid shevalarida *jün, jönät, jöni* (*i:šiŋ jönini bil* – shim. o‘zb. shev.), *jönäliš* variantlari bor. Adabiy tildagi *kelajak, bo‘lajak, o‘laroq, kelasi* kabi so‘z shakllari aslida o‘g‘uz lahjasiga xosdir.

Badiiy adabiyot va dialektizm. Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, gramatik va leksik xususiyatlarning aks etishi dialektizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi yarusning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham *leksik dialektizm, fonetik dialektizm* va *morfologik* hamda *sintaktik-stilistik dialektizm* turlariga ega bo‘ladi.

Fonetik dialektizm badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarning aks etishidir. *Rozi bo‘ldi, palakat* (Qo‘nalg‘a), *galdi* (“Xorazm”). *Bormasangiz bo‘lmiydi* (“Qo‘nalg‘a”). ...*zeykash* (*zaxkash*) tomonga enib...

(“Qo‘nalg‘a”). *Ishni bildirmasdan xufya bitirsa bo‘lardi, man bo‘laman, man bo‘laman, deb kerildi* (“Oltin vodiydan shabadalar”)¹⁴.

Leksik dialektizm shevaga oid so‘zlarning badiiy asarlarda qo‘llanishidir. Masalan, ***darpanmangla*** (bezovtalanmanglar. Xorazm), ...***kelinbiyining*** (*kelinoyi*) *biror marta noroziligini eshitgan emasman* (Qo‘nalg‘a). *Toshkentdagi axtiqlarini* (*nevaralarini*) *o‘zлari Urganchga kelganlaridayam ko‘raveramiz* (Qo‘nalg‘a). Badiiy asarlarda shevaga xos so‘z yasalishidan ham foydalanilgan: *Shoshma, hali qo‘llarim qanotini yozgani yoq, mana bu termakash* (g‘iybat terib yuruvchi) *O‘sarjonne chetga chiqarib qo‘yaman. – Hoy, sen vahmakash* (vahima qiluvchi) *ekansan-ku!* (“Oltin vodiydan shabadalar”)

Morfologik dialektizm badiiy asarda shevaga xos morfologik elementlarning qo‘llanishidir. Masalan, ***Shatta*** (shu yerda, “Qora ko‘zlar”). ***Dim*** (*juda*) *gech galdingiz* (“Xorazm”). *Qarindoshim bilan bir maishat qilali* (Qo‘nalg‘a).

Sintaktik-stilistik dialektizmlar gap qurilishida shevaga xoslikda ko‘rinadi: *Shukur, odamga o‘xshab so‘zlab bilar ekansiz* (... so‘zlay olar ekanziz – A. S.) (“Qo‘nalg‘a”). ***Alni, na, (na)*** so‘zi kiritma so‘z – A. S.) *o‘n marta yuvamilar* (“Qo‘nalg‘a”).

Badiiy adabiyot tili xalq (millat) tili boyliklarining qayta ishlangan ko‘rinishidir. Shu jarayonda badiiy so‘z ustalarining voqeа yoki qahramon sarguzashtlarini bayon qilish jarayonida muayyan shevaga murojaat qilishlari e’tirof etib kelinadi. Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Badiiy adabiyotda adiblar dialektizmlardan ikki o‘rinda foydalanadi, ya’ni:

- 1) dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini ko‘rsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida;
- 2) adabiy tilda sinonimi bo‘lmagan so‘zlarni majburan qo‘llaydi. Masalan, yozuvchi Komil Avaz “Qo‘nalg‘a” asarida *sazaq* (o’simlik nomi), ***tuncha*** (mis qumg‘on), ***kalchaya*** (qumlikning taqir joyi), ***itdunak*** (yovvoyi qovun turi) kabi

¹⁴ Badiiy asarlardan olingan misollar lotin yozuviga ushbu asar muallifi tomonidan o‘girildi – A.S.

dialektal so‘zlarni qo‘llaydi. Hatto butun boshli badiiy asarda mahalliy sharoit, mahalliy mentalitetni, ruhiyatni ifodalashda to‘lig‘icha sheva xususiyatlaridan foydalangan asarlar mavjud. Bunga J. Sharipovning “Xorazm”, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarlarini ham keltirish mumkin.

Dialektal so‘zlarni badiiy adabiyotda qo‘llashda yozuvchilar turli usullardan foydalananadilar. Ayrim mualliflar shevaga oid so‘zlarni izohsiz ishlatgan bo‘lishsa, ayrimlari sahifa tagida uning ma’nosini ham keltirib boradilar (masalan, “Xorazm” romanida). Dialektal so‘zning ma’nosini izohlashda yana quyidagicha usullardan foydalilanilgan:

- dialogik nutqdagi dialektal so‘z muallif gapida reallashtiriladi: - *Buvijon*, - dedi u onasining mayus yuziga termilib. – Shirmon xoladan qarz olib tursangiz bo‘lmasmikan (“Farg‘ona tong otguncha”);
- dialogik nutqda ayni bir yoki turli personajlar nutqidagi shevaga xos so‘z adabiy tildagi variantlarini keltirish bilan izohlangan: - *Ugra osh qilsak ham bo‘ladi, manjuza qilsak ham bo‘ladi. Lag‘monga go‘sht kerak* (“Farg‘ona tong otguncha”). - *Polvon, nega anqayyapsan. Xiva shahrini ko‘rmaganmiding? – dedi. – Katta qal’a, hamma yerini go‘rib boladimi, - dedi Polvon* (“Xorazm”);
- shevaga xos so‘zlar juft soz tarkibida (antonim, sinonim tarzida) keltirilgan: *Uzoq-yovuqdan ancha odamlar keldi* (“Oltin vodiydan shabadalar”). ... *barcha xalq bel, kapcha ko‘tarib, yop-anhor, daryo bo‘yi sohil tomon yo‘l oldi* (“Xorazm”)¹⁵;

Ayniqsa, dialektal so‘zlardan hazil, kinoya sifatida ham foydalilanilgan o‘rinlar bor:

Miraziz A’zamga:

Bolalarcha kasha yeb,

Bolalarga yozadir.

Shuytib, sakson yoshda ham

Bolalardek tozadir.

(“O‘zbek adabiyoti va san’ati”, 2015 yil 1-yanvar)

¹⁵ Bu faktlar B. Fayzullayev va O. Xidirovlarning “Dialektizm va kontekst” maqolasidan olindi.

Dialektizm, garchi, badiiy adabiyot bilan bog‘langan bo‘lsa ham, uning ijtimoy fanlarda ham qo‘llanadigan o‘rinlari bor. Xususan, etnografiyada dialektizmlardan foydalanish keng tus olgan va fan ularni o‘rganadi, jumladan nikoh (*ipäk čatar, toqqiz jibärdi* va b.), bola tug‘ilishi va ulg‘ayishi (*čillä, aqaš*), aza (*qırqi, aqlıq*) bilan bog‘liq dialektizmlar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Bu kabi etnografiyaga oid so‘zlar turli shevalarda, deyarli, bir xil bo‘lsa-da, farqlari ham bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, dialektizmlar adabiy tilning boyishi uchun tabiiy manbalaridan biri bo‘lib qoladi. Dialektizmlarning adabiy tilga singib ketish jarayoni dastlab qiyin kechadi, lekin badiiy adabiyotning ta’sirchan kuchi orqali bir asarda qo‘llangan dialektizm keyingi asarlarga o‘tadi va shu tariqa umumxalq mulkiga aylanadi va adabiy tilga o‘zlashib ketishi mumkin.

Sheva - adabiy tilning boyish manbasi. O‘tgan davrda shevalarning adabiy tilni boyitishdagi o‘rniga yetarli baho berilmay kelindi. Shevalar milliy tilimizning asosini tashkil etuvchi yuksak qadriyat bo‘lib, u bolalikdan oila a’zolarining til an’anasi tufayli shakllanadi va har bir shaxsning nutqiy imkoniyati bo‘lib qoladi. Qaysi darajada bo‘lmisin, har qanday shaxs o‘z adabiy tilida nutqiy qiyinchilikka duch kelganda yoki o‘z fikrini yanada aniqroq va jozibaliroq ifoda qilishi uchun o‘z shevasidan ixtiyor-beixtiyor foydalanishiga to‘g‘ri keladi. Demak, sheva shaxs bilan birga yashaydi. Shevalar o‘zbek tilining barcha boyligini aks ettiradi, lekin adabiy tilda ulardan foydalanishga doimo to‘sinq qo‘yib kelingan. To‘g‘ri, shevaga xos so‘zlarning barchasini adabiy tilda qo‘llashning imkoniyati yo‘q, ya’ni adabiy tilda bo‘la turib, uning o‘rnida shevaga xos so‘zdan foydalanish maqsadga muvofiq emas, lekin sinonimiya zarur hollarda ularga hojat bo‘ladi. Bu o‘rinda gap adabiy til uchun zarur bo‘lgan tushunchalarning ifodasi bo‘lgan shevaga xos so‘zlarni adabiy tilga olib kirish o‘z ichki imkoniyatlarimiz asosida adabiy tilni boyitishga xizmat qilishi to‘g‘risida bormoqda. Ayniqsa, hayotning aksariyat sohalarida shunday so‘zlar borki, ular adabiy tildagi bo‘shliqni to‘ldirishga qodirdir. Ilmiy adabiyotlarda (adabiy) tilning leksik tizimida biron tushunchani anglatish uchun so‘zning yetishmasligi ***lakuna*** termini bilan yuritiladi. Bu termin lotincha-

fransuzcha *bo'shliq*, *tushirib qoldirilgan*, *ayirib qo'yilgan* degan ma'nolarni angladi, lekin dialektologiyada uni adabiy tildagi bo'sh o'rinni to'ldiruvchi dialektal so'z deb tushunish to'g'ri bo'ladi. Ko'rindiki, lakuna terminining "bo'sh o'ringa loyiq so'z" tushunchasi paydo bo'ladi. Axborot tizimida uni matn bilan bog'lagan holda undagi *yetishmayotgan so'z* ma'nosi ham qayd qilinadi. Demak, lakunani adabiy tildagi muhtoj tushuncha uchun sinonimi bo'limgan dialektal so'z deb qarash ham mumkin

Sh.Shoabdurahmonov o'zbek adabiy tili va xalq shevalari munosabatini yoritishda (lakuna terminidan foydalanmagan holda) adabiy tilda o'z o'rnini topishi kerak bo'lgan bir qator so'zlarni keltiradi:

hökki. Xorazm shevalarida muzlagan daryo, anhordan suv olish uchun o'yib qo'yilgan joyini bildiradi;

üsiryalıq. Andijon shevasida quloqning zirak taqilishi uchun teshib qo'yiladigan joyini anglatadi.

zirbäk. Farg'ona vodiysi shevalarida osh (palov) uchun qozonga sabzi-piyoz bosilgan va bir qaynab chiqqan holatini bildiradi.

Bunday so'zlar boshqa shevalarda ham bor. Masalan:

däšäk. Shimoliy o'zbek shevalarida qo'llanadi. U - danakli mevaning meva va mag'iz o'rtasidagi chaqiladigan qattiq po'stinining nomi. Masalan, o'rik, gilos, olcha va shaftoli *mevä~däšäk~dänäkdan* iborat bo'ladi. Shuningdek, shevalarimizda *ezü:* - og'izning ikki chekkasi, *dägdi* – jun paypoqning turi, *daldurya* – o'zan jilg'asi, *inžik* - tirsak suyagi, *käpik* – yetim qo'zi, *käjiz* – daraxt po'stlog'i kabi so'zlar borki, ularga adabiy tilda o'rin topilishi mumkin.

O'zbek adabiy tili va dialektlari avtonomiysi hamda geteronomiyasi. Avtonomiya (autonomy) termini til va shevalarning mustaqil faoliyat yuritishiga nisbatan qo'llanadi. Geteronomiya esa (heteronomy – qadimgi yunon tilida *boshqa qonun* degan ma'noni anglatgan) falsafa, psixologiya, huquqshunoslik, biologiya va boshqa fanlarda qo'llanadigan tushuncha bo'lib, uni dialektologiyaga german tillarining qarindoshligi negizida ularning mustaqil til va dialect munosabatlarini

asoslash jarayonida J. K. Chambers, Peter Trudgillar olib kirishgan¹⁶. Unga ko‘ra, u yoki bu til va shevalar bir necha mamlakatlarda joriyda bo‘lishi mumkin, lekin ular to‘liq mustaqil bo‘la olmaydilar. Buni o‘zbek tili misolida shunday izohlash mumkin: o‘zbek adabiy tili va dialektlari O‘zbekistondan boshqa davlatda ham amal qiladi. U davlatlardagi o‘zbek adabiy tili mustaqil rivojlantirilmoqda, shevalarida ham o‘ziga xosliklar bor, masalan, Afg‘onistonda o‘zbek adabiy tili arab grafikasida muayyan imlo tizimiga ega, o‘ziga xoz so‘z qo‘llash an’anasi bor, shevalari uchun o‘zbek lahjalari asos bo‘lsa-da, afg‘on tilining kuchli ta’siri bor. Bu jihatdan u avtonom faoliyatdadir. Ayni zamonda bu yerdagi adabiy til grammatik qoidalarning yagonaligi, fonematik tizimi, asosiy lug‘at tarkibi jihatidan O‘zbekistondagi adabiy tilning aksariyat qonuniyatlarini saqlab qolgan, shuningdek, shevalarining ham leksik fondi O‘zbekistondagi shevalar leksikasiga monand, lekin dialektal farqi bor, bu jihatdan esa u yerdagi adabiy til va dialektlar geteronomik munosabatda bo‘ladi, yani to‘liq mustaqil emas. Bu fikrni Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘izston Respublikalaridagi o‘zbek adabiy tili va dialektlariga nisbatan ham muayyan darajada tatbiq etish mumkin.

Tayanch tushunchalar:

Adabiy til [литературный язык, literary language] – me’yorlashgan til.

Adabiy tilning shakllari [формы литературного языка, forms of literary language] – adabiy tilning yozma va og‘zaki shakllari.

Avtonomiya [автономия, autonomy] – ayni bir til va dialektlarning turli davlatlarda mustaqil taraqqiy etishi.

Geteronomiya [гетерономия, heteronomy] - ayni bir til va dialektlarning turli davlatlarda negiz til va dialektlar xususiyatlari va qonuniyatlarini saqlab qolishi.

Dialektizm [диалектизм, dialecticism] – badiiy asarlarda shevalarga oid fonetik, leksik va grammatik unsurlarnung qo‘llanishi.

¹⁶ Chambers J. K., Peter Trudgill. Dialectology. - Cambrige University Press. – T. 4

Lakuna [лакуна, lacuna] – biror tildagi yoki adabiy tildagi bo‘shliqni to‘ldirishga qodir dialektal so‘z.

Tayanch dialekt [опорный диалект, basic dialect] – adabiy tilga biror jihatdan, ya’ni fonetik yoki morfologik jihatdan asos bo‘ladigan dialekt, sheva.

O‘lik til [мертвый язык, dead language] – muomaladan chiqqan til.

Takrorlash uchun savollar:

1. Adabiy til deb nimaga aytiladi?
2. Adabiy tilning yozma va og‘zaki shakllariga qanday izoh berasiz?
3. Tayanch dialekt tushunchasiga izoh bering.
4. Dialektizm deb nimaga aytiladi?
5. O‘z shevangizda lakuna sifatida qabil qilinishi mumkin bo‘lgan so‘zlar bormi?
6. Til va dialektlar avtonomiysi va geteronomiyasi nimani anglatadi?

14-mavzu. Areal lingvistika

Reja

1. Areal lingvistika to‘g‘risida umumiy ma’lumot.
2. Areal lingvistika metodlari.
3. Areal lingvistika manbalari.
4. Til va dialektal zona. Dialektal kontinuum.

Areal lingvistika tushunchasi va uning mohiyati. Bu termin lotincha *area – maydon, kenglik, hudud* hamda *lingvistika – tilshunoslik* degan so‘zlardan olingan bo‘lib, til va dialektlarning tarqalish hududlarini o‘rganadigan fanni anglatadi. U til va shevalarni shu hududdagi boshqa til va shevalar bilan munosabatda bo‘lish nuqtai nazardan o‘rganadi. Areal lingvistikaning asosiy metodi lingvistik geografiya hisoblanadi. Lingvistik geografiya shevalarni o‘rganishning bir metodi hamda areal lingvistikaning kartalashtirish ishlari bilan shug‘ullanadigan bir bo‘limi hamdir.

Fanda lingvistik geografiya va dialektologiya munosabatlariga ham e'tibor qaratiladi. Bu ikki fanning obyekti bir bo'lsa-da, ularning farqlari ham bor. Dialektologiya shevalarni monografiya, maqola va lug'atlar yaratish orqali o'rgansa va xulosalar chiqarsa, lingvistik geografiya ularni tizimga tushirib, kartalashtirish bilan shug'ullanadi, shuning uchun ham lingvistik geografiyanı dialektologiyaning tadqiqot texnikasi deb ham yuritishadi.

Areal lingvistika quyidagi tushunchalarga asoslanadi:

Izoglossa. Bu so'z lotincha bo'lib, **izo** – teng, **glossa** – til degan ma'nolarni bildiradi va bir dialekt, lahja doirasidagi yoki qarindosh tillardagi fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar mosligi darajasiga ko'ra tarqalishini ko'rsatadigan shartli belgidir. Izoglossalar vazifasini fonemalar, ularning variatsiyalari, morfemalar, ularning variantlari, grammatik shakllar, leksemalar bajarishi mumkin. Shu tufayli uning **izofonema**, **izomorfema**, **izoleksema** tiplari belgilanadi Masalan, turli sheva va tillarda tez-tez takrorlanuvchi cho'ziq **o:** unlisi izofonema sifatida, **-a // ä** ko'plik affiksi varianti izomorfema sifatida, vazmin ~ **salaqa**, epidemiya ~ **iran** kabi so'zlar izoleksema sifatida qatnashishi mumkin. Shuningdek, adabiyotlarda izoglossalarning **izofon** (fonetik izoglossa), **izomorf** (morfologik izoglossa), **izoleks** (leksik izoglossa), **izosema** (semantik izoglossa) haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Izoglossalar qarindosh yoki qarindosh bo'lмаган tillarga munosabati jihatidan ikki guruhga ajratiladi:

1. O'zaro aloqadagi izoglossalar. Bunday izoglossalar genetik umumiyligka ega bo'lgan tillarga aloqador bo'ladi. O'zbek tili va shevalarining qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq tillari bilan aloqadagi izoglossalar shu toifaga kiradi.

2. Konvergent izoglossalar. Bunday izoglossalar turli sistemadagi tillarning uzoq muddatli hududiy aloqalari (kontakti) natijasi samarasi sifatida yuzaga keladi va har ikkl til uchun umumiy bo'ladi. Bunda qarindosh bo'lмаган tillar o'z mustaqilligini saqlaydi. Bunga o'zbek-tojik tili munosabatlaridagi umumiylizoglossalar taalluqlidir

Areal (area). Izoglossalarning tarqalish hududini bildiradi. Yuqoridagi izoglossa turlarining bir necha hududlarda tarqalishini ko'rsatadi. Masalan, birlamchi cho'ziq unlilar Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston va boshqa hududlarda tarqalishi maxsus belgilarda kartada aks ettiriladi.

Areal termini biologiya, geografiya, kimyo, antropologiya fanlarida ham qo'llanadi. Biologiyada hayvonlar va o'simliklarning, geografiyada tabiat hodisalarining, kimyoda tabiiy boyliklarning, antropologiyada xalqlar va irqlarning tarqalish hududlari kartalashtiriladi.

Til landshafti. Muayyan hududda til va bir necha shevalardagi izoglossalar va ularning joylashishi (manzara) xususiyatidir. Ular turli ranglar vositasida ko'rsatiladi.

Innovatsiya. U izoglossalarning tarqalish markazini bildiradi. Masalan, labial singarmonizm qadimgi turkiy tilga xos bo'lsa ham, qirg'iz tilida mustahkamlanib qoldi va bu til orqali boshqa til va shevalarga tarqaldi. Demak, labial singarmonizmning innovatsion markazi vazifasini keyingi davrlar uchun qirg'iz tili bajaradi.

Lingvistik karta. Bunday kartalarning xususiy va umumiy turlari amalda bor. Aksariyat hollarda lingvistik kartalar kontur kartalarda amalga oshiriladi. Bir izoglossaning tarqalishi ko'rsatilgan karta xususiy lingvistik kartadir. Bir guruh izoglossalar aks ettirilgan karta esa umumiy lingvistik karta hisoblanadi. Lingvistik kartada sheva yoki til hodisalarini – izoglossalarni shartli belgilar vositasida ham, bevosita o'zini ham yozish mumkin.

Sheva yoki til hodisalarini kompleks joylashtirgan va ranglar vositasida jilo berilgan kartaning turi *lingvistik* yoki *dialektologik atlas* deyiladi. Lingvistik atlas umumlashtirish xarakteriga ega bolib, u sheva yoki biror tilning tarqalish chegarasini ko'rsatgan rangli kartalar yig'indisidir. Dunyo amaliyotida lingvistik atlasning klassik namunalari bor. Bular quyidagilar:

Venker G. Shimoliy va markaziy Germaniyaning dialektologik atlasi. 1881-y. (6 karta).

Jilyeron J., Edmon E. Fransiya lingvistik atlasi. 1896 -1908-yillar.

Vrede F. Nemis lingvistik atlasi. 1926 -1932-yillar (6 jild).

Yaberga K., Yuda I. Italiya va Janubiy Shvetsariya dialektlari atlasi. 1928-y.

Bular ichida J. Jilyeron, E. Edmonlarning lingvistik atlasi keyingi davrda boshqa shu xildagi atlaslarning tuzilishiga metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Lingvistik atlas faqat dialektologik maqsadda emas, balki dunyo tillarining tarqalishini ko‘rsatish maqsadida ham yaratiladi.

Til zonasi va dialektal zona. Til zonasi o‘zaro yaqin tillar (idiomlar)ni yaqinlik darajasi va bir fokus nuqtasiga ko‘ra birlashtiradigan hududdir. **Dialektal zona** bir til doirasidagi lahja, dialekt va shevalarning fokus nuqtasiga ko‘ra joylashish hududlaridir. **Fokus nuqtasi** yirik shahar shevasi bo‘lib, atrof shevalarga doimiy ravishda o‘z ta’sirini o‘tkazib turadi va qayta aloqada bo‘ladi hamda dialektal zonaning o‘ziga xos rivojlanishini ta’minlaydi.

Bunday zonalarni belgilashda davlat chegaralari hisobga olinmaydi, balki o‘zbek tili massivi (o‘zbek tili tarqalgan hudud) geografik, dialektal farqlanishi, tarixiy-etnografik xususiyatlari, ma’lumotlari asosida uning shevalari guruhshtiriladi. Shu asosda A. Jo‘rayev o‘zbek tilining 11 dialektal zonasini belgilagan (bu haqda “O‘zbek tilining dialektal bo‘linishi” mavzusida ma’lumot beriladi).

Aksariyat hollarda bunday zonalarni belgilashda qarindosh til yoki dialekt masalasi muammo bo‘ladi. Axborot tizimlarida ta’kidlanishicha, bunday vaziyatda o‘xshashik 92-96% ni tashkil etsa, ularni dialekt deb hisoblash lozim¹⁷. Til va dialektni farqlashda fanda *sotsiolingvistik* va *struktur* me’yorlarga asoslaniladi.

Sotsiolingvistik me’yorga ko‘ra, idiomlar (qarindosh til) mustaqil til bo‘lishi uchun:

- o‘z mustaqil yozuv standartiga ega bo‘lishi;
- turli sohalarda yozma va og‘zaki muloqotning amal qilishi;
- funksional jihatdan mukammal bo‘lishi lozim. Bunda siyosiy va etnik omillar muhim ahamiyatga ega.

¹⁷ **Kaufmann T.** The native languages of Latin America: general remarks // Atlas of the World’s Languages (edited by C. Moseley and R. E. Asher). – 1994.

Struktur (struktur-lingvistik) me'yorga ko'ra, mustaqil til bo'lishi uchun:

- fonetik va gramma tik qonun va qoidalar yagona bo'lishi;
- asosiy lug'at tarkibi idiom a'zolarining barchasiga tushunarli bo'lishi;
- idiom tarkibidagi lahja, dialekt va shevalar barcha uchun tushunishga oson bo'lishi lozim.

Dialektal kontinuum (lotincha *continua* to 'xtovsiz, muhit degan ma'nolarni bildiradi). Shevalarning kichik lingvistik xususiyatlari bilan farqlanishi adabiyotlarda kontinuum tushunchasi bilan ifoda etiladi. Bu jarayon uzoq yillarning mahsuli va muayyan territoriya bilan bog'langan.

Bir dialekt tarkibidagi shevalarda o'zaro bog'langan, lekin kichik va muhim bo'lgan, 3-rasmida ko'rsatilgani kabi, farqlar bo'ladi.

Adabiyotlarda dialektal kontinuumning ikki turi to'g'risida ma'lumot beriladi:

Geografik dialektal kontinuum. Bu bir geografik zonada joylashgan shevalarning va kelib chiqishi umumiyligi bo'lgan xalqlar shevalari doirasida belgilanadi. Bunga yuqoridagi – Toshkent dialekti tarkibidagi shevalarning kichik farqlar bilan ajralib turishi misol bo'la oladi. Kontinuumning bu turida shevalar bir-biridan uzoqlashgan sari dastlabki shevadan tobora farqlari ortib boradi, pirovard natijada, eng so'nggi sheva mustaqil dialekt yoki til bo'lib shakllanishi mumkin.

Ijtimoiy dialektal kontinuum. Bu siyosiy va uzoq tarixiy taqdir tufayli qarindosh bo'limgan va qarindosh tillar orasida yuz berishi mumkin. Kontinuumning bu turiga Kembrij universiteti darsligida Yamaykadagi kreol shevasi misol qilib ko'rsatiladi. Surinamda sranan tili ingliz tili asosiga qurilgan kreol (pidjin) shevasi shakllanganki, yuqori tabaqa kishilari ingliz tilida gaplashsa, pastki tabaqa kishilari esa ingliz va kreol tili o'rta sidagi shevada gaplashadilar va shu bilan o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Buni biz o'zbek – tojik, o'zbek – turkman, o'zbek – qozoq, o'zbek – qoraqalpoq xalqlari aralash va qo'shni yashagan joylarda ham ko'ramiz.

Areal lingvistika metodlari. Areal lingvistika shunday sohaki, u har bir sheva va dialekt haqida, uning madaniy, tarixiy xususiyatlari, o'ziga xosligi bilan yaxlit

ravishda tilshunoslik, tarix, etnografiya bilan shug‘ullanadigan xodimlar, mutaxassislarni keng tanishtirish imkonini beradi. Avval aytilganidek, areal lingvistikaning bir metodi bo‘lgan lingvistik geografiyada, avvalo, o‘rganilayotgan sheva kartasi uchun asos sifatida aholi geografiyasini aks ettirishga mo‘ljallangan kontur karta olinadi va aholi punktlari raqamlarda belgilab chiqiladi. Sheva faktlari uchun shartli belgilar tizimi ishlab chiqiladi. Izoglossalarning tarqalishini ko‘rsatuvchi chiziqlarni tortish rejasi tayin qilinadi. Ranglar tanlanadi va bo‘yash texnikasi belgilab olinadi.

Areal lingvistikaning asosini lingvistik tadqiqotlarda foydalaniladigan til faktlari tashkil etadi, shuning uchun *areal lingvistika metodlarini* farqlash muhim ahamiyat kasb etadi¹⁸. Ular quyidagilar:

1. Muayyan til (shevalar) areali doirasida til (sheva) faktlarini *qayd qilish*. Bu jihatdan dialektologiya va lingvistik geografiya metodlari mos keladi. Sheva faktlarining haqqoniyligi areal lingvistikaning mukammalligini ta’minlaydi.

2. Areal lingvistika uchun tanlanadigan sheva materiallarini *sharplash*. Dialektologik atlas tuzishda sheva faktlarining sharhi muhim o‘rin tutadi. Ular quyidagi aniq lingvistik vazifalarni bajaradi:

a) o‘rganilayotgan til yoki shevalarning aloqada bo‘lgan (qo‘sni) til va shevalar bilan *interferensiysi* natjalarini talqin qilish. Avvalgi sahifalarda ta’kidlanganidek, o‘zbek tili qozoq, qirg‘iz, qoraqolpoq, turkman va tojik tili hamda uning shevalari bilan kesishgan o‘rinnarga ega. Shevalar kesishgan joyda har ikkala tilga o‘xshamagan shevalar paydo bo‘ladi. So‘zsiz, bu shevalardagi o‘zbek tiliga xos bo‘lgan xususiyatni ajratib olish muammosi paydo bo‘ladi. Bu muammo sharplash, talqin qilish orqali hal qilinadi. Masalan, turkman tili bilan aralash va qo‘sni yashaydigan o‘zbeklar shevasida egalik affiksi va o‘rin-payt, chiqish kelishigi o‘rtasida *n* undoshining orttirilishi izohlar yordamida oydinlashtiriladi: qo‘lida ~ *älindä*, qo‘lidan ~ *älinnän*. Qirg‘iz tilida bunday

¹⁸Taniqli olim **V.M. Jirmunskiy** dialektologik atlas yaratish metodikasi deganda uning ikki tamoyilini tushunadi: muayyan hududdagi sheva xususiyatlarini yalpi o‘rganish va har bir kartalashtiriladigan izoglossalar chegarasini belgilash. Qarang: **Жирмунский В.М.** Немецкая диалектология. – Москва - Ленинград: ИАН, 1956. – С.134.

pozitsiyada interkalyar ***n*** undoshining yo‘qolib borishi ham o‘zbek tili shevalari bilan interferensiyaning natijasidir.



- 1.Qarluq lahjasi
- 2.Og‘uz lahjasi
- 3.Qipchoq lahjasi

14-rasm. O‘zbek tili lahjalari geografiyasi

b) *ijtimoiy omillarni hisobga olish.* Interferensiya natijalariga baho berishda turli xildagi ijtimoiy omillarni hisobga olish katta ahamiyatga egadir. Bunda ikki sheva yoki tilning interferensiya sharoitida qo‘silib ketishi chog‘idagi til qarshiligi bo‘lishi hisobga olinadi. Bunga Qashqadaryodagi (masalan, Kitob tumani Chechak qishlog‘i shevasi) “j”lovchi shevalar “з”lovchi shevalarga qorishuvi natijasida “j”lovchi shevalar aholisining ko‘pligi tufayli “j”lashishning ustun kelishi misol bo‘la oladi.

d) *muayyan hududda turg‘unlashmagan til hodisalarini sharhlash.* Ikki sheva yoki dialektga xos xususiyatlarning shu sheva va dialektlarda qo‘llanishi hamda ulardan birining g‘olib kelmasligi interferensiyaning tugallanmaganligini, ya’ni bir

sheva ikkinchi shevaga singib ketmaganligini bildiradi. Bunga o‘zbek tilidagi **ā** va **a**, **j** va **č** hodisasining parallel qo‘llanishi misol bo‘la oladi.

e) *konvergensiya hodisalarini farqlash*. Ma’lumki, o‘zbek tili taraqqiyotida shahar shevalarida **ö** ↔ **o**, **ü** ↔ **u**, **i:** ↔ **ī:** unlilari konvergensiya uchragan. Ular ham kartada izohlar bilan beriladi.

Innovatsion markazni aniqlash. Bu tamoyil, albatta, til tarixi bilan bog‘langan. U yoki bu izoglossaning paydo bo‘lish nuqtasini aniqlashda til tarixi faktlariga tayaniladi. Ma’lumki, qadimgi turkiy tilda **j** // **č** paralleli bo‘lmagan. Hozirgi qipchoq shevalarida va ba’zi turkiy tillarda so‘z boshida **č** undoshining paydo bo‘lishi keyingi hodisadir. O‘zbek shevalarida “**č**”lashish o‘rnida “**j**”lashish (qipchoq lahjasи shevalarida **čaxši** o‘rnida **jaxši**) varianti paydo bo‘lmoqda hamda u tobora kengroq tarqalmoqda. Ko‘rinadiki, **j** undoshining innovatsion nuqtasi qadimgi turkiy til bo‘lgan. Hozirgi singarmonizmni yo‘qotgan shevalar ham qadimda singarmonizmli bo‘lgan. Bunda ham innovatsiya nuqtasi sifatida qadimgi turkiy til qatnashadi.

Til substratlari ta’sirini aniqlash. Substrat hokim til yoki shevaning qoldiqlari bo‘lib, muayyan hududda uning elementlari qolgan bo‘ladi. Masalan, hozirgi Xorazm shevalarida “Avesto” tilining substratlarini uchratish mumkin, jumladan, Xorazm (Hvairizm), Asfandiyor (Spandudota), Bahrom (Varxram). O‘zbek va tojik shevalari interferensiyasi sharoitida tojik shevalariga xos xususiyatlar shu shevalarda saqlanib qoladi. Bu substratlar ham izohlar bilan kartalarda aks ettiriladi.

O‘zbekistonda lingvistik geografiyaning rivojlantirilishi. O‘zbekistonda dialektologik atlas yaratish ishi endigina rivojlanmoqda. Bu sohada V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, A. Jo‘rayev, Q. Muhammadjonov, A. Shermatov, N. Murodova, Y. Ibrohimov va Z. Ibrohimova, I. Darveshov, N. Raxmonovlarning tadqiqotlari mavjud. V. V. Reshetov dialektal kartalarning dastlabki namunalarini yaratdi, Sh. Shoabdurahmonov O‘zbekistonda birinchi bo‘lib shevalar atlasini yaratishning nazariy qoidalarini ishlab chiqdi. A. Jo‘rayev areal lingvistikating nazariy va amaliy asoslarini tadqiq qildi. Q. Muhammadjonov

shimoliy o‘zbek shevalarini, A. Shermatov Quyi Qashqadaryo shevalarini, Y. Ibrohimov va Z. Ibrohimovalar Orol bo‘yi o‘zbek shevalarini, N. Murodova va N. Raxmonov Navoiy viloyati, I. Darveshov Namangan viloyati shevalarini kartalashtirgan.

Tayanch tushunchalar:

Atlas [атлас, Atlas] – sheva, dialekt, lahjalarni turli ranglar va shartli belgilarda yaxlit idrok etish uchun xizmat qiladigan o‘quv quroli.

Interferensiya [интерференция, interference] – bir lingvistik hududda joylashgan ikki til shevalarining chegara zonasida aralashuvi.

Innovatsiya [инновация, innovation] – izoglossalarning tarqalish markazi.

Izoglossa [изоглосса, izogloss] – til, sheva faktlarining teng kelish holatlarini ko‘rsatuvchi belgi.

Kontinuum [континуум, continuum] – shevalarning kichik farqlar bilan yiroqlashib borishi.

Kreol tili [креол тили, Creolized languages] - mahalliy tillarning Yevropadagi tillar bilan aralashishidan hosil bo‘lgan tili, jumladan, Surinamdagи sranan tilining ingliz tili asosiga qurilgan kreol (pidjin) shevasi.

Areal lingvistika [ареальная лингвистика, areal linguistics] – til va sheva hududlarini o‘rganadigan fan.

Lingvistik karta [лингвистик карта, linguistic map] – izoglossalar joylashtirilgan karta.

Til landshafti [ландшафт языка, linguistic landscape] – izoglossalarning joylashish xususiyatlari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Areal lingvistika nima?
2. Areal lingvistika va lingvistik geografiya farqlarini tushuntirib bera olasizmi?
3. Area so‘zi nimani anglatadi?
4. Areal lingvistikaning qanday metodlari bor?

5. Dialektologik atlas deganda nimani tushunasiz, uning yaratuvchilari kimlar?

6. Kontinuumning qanday turlari bor?

7. O‘zbek shevalari kimlar tomonidan kartalashtirilgan?

15-mavzu. O‘zbek shevalarining tasnifi Reja

1. O‘zbek shevalarini tasnif qilish tamoyillari.

2. O‘zbek shevalarining tasnifi.

3. O‘zbek dialektologlari.

Matn

O‘zbek shevalarini tasnif qilish tamoyillari. Tilshunoslikda til sistematikasi degan tushuncha bor. U to‘rt a’zoli shkalani aks ettiradi: *sheva* → *dialekt* → *lahja* → *til*. Bunda til tarkibiga kiruvchi lahjalar, dialektlar, shevalarning muayyan tartibini belgilash *lingvistik klaster* deyiladi.

O‘zbek shevalari, asosan, 1920-1930-yillardan boshlab ilmiy asosda o‘rganila boshlandi va shu asnoda uning dastlabki tasniflari paydo bo‘ldi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida V. Nalivkin, M. Nalivkina, A. Starchevskiy, A. Vishnegorskiy, Z. Alekseyev, N. Ostroumov, T. Qiyosbekovlar jonli til faktlari asosida o‘zbek tili lug‘ati, qisman fonetik va morfologik xususiyatlarini yoritgan ishlarni amalga oshirganlar. Ulami sof dialektologik ishlar deb ham, adabiy tilni aks ettirgan deb ham bo‘lmaydi.

XX asrning boshlarida o‘zbek adabiy tiliga asos bo‘ladigan sheva va dialektlarni aniqlash, milliy tilning imkoniyatlarini belgilash shiori bilan o‘zbek shevalari keng miqyosda o‘rganila boshlandi. Shu jarayonda o‘zbek shevalari tasnif qilindi.

O‘zbek shevalarini tasnif qilishda bir necha tamoyillardan foydalilanadi. Ular quyidagilar:

- o‘zbek (turkiy) tiliga xos bo‘lgan unli va undosh tovushlarning mavjudligi yoki amalda bo‘lishi;

- ma'lum fonetik qonuniyatlarga amal qilishi, jumladan, singarmonizm va umlautning mavjudligi;
- tarixiy qatlamga oid leksik birliklarning miqdori, o'zlashgan qatlam so'zlarining ishtiroki;
- o'zbek shevalariga qarindosh va qarindosh bo'lmanan til va shevalarning ta'siri;
- shevaning asosiy xususiyatini belgilovchi xarakterga ega bo'lgan tovush yoki fonemaning tarqalish darajasi;
- so'zning fonetik strukturasi va boshqalar.

O'zbek shevalarini tasnif qilishda bir qator olimlar qatnashgan. O'zbek shevalarini professor I. I. Zarubin (1887 - 1964) tasnif qilishga harakat qilgan va uning Xiva, Farg'ona, Toshkent va Samarqand-Buxoro kabi to'rt guruhga bo'linishini ko'rsatadi, lekin ularga xos bo'lgan asosiy tamoyillarni bayon qilmaydi va hatto qipchoq va shimoliy o'zbek shevalari uning e'tiboridan chetda qolgan.

O'zbek shevalari tasnifi. O'zbek shevalarini dastlab professor K. K. Yudaxin (1890 - 1975) tasnif qilishga musharraf bo'ldi. U o'zbek shevalarining tojik tili bilan munosabati va singarmonizmni saqlashi darajasiga ko'ra tasnif qilib, **4** ta guruhni belgilaydi:

- asl turkiy tovush tizimi va singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalari;
- o'z tovush tarkibini qisman o'zgartirgan, singarmonizmni yo'qotgan shevalar;
- eron tili unlilar tizimini saqlagan o'zbek shevalari;
- o'zbek va tojik tillarida so'zlashadigan tojik shevalari.

Keyinchalik K. K. Yudaxin o'zbek shevalari bilan mukammalroq tanishib, uni 5 guruhga – Toshkent, Farg'ona, qipchoq, Xiva va shimoliy o'zbek shevalariga ajratadi.

O'zbek shevalarini o'rGANISH va ilmiy asosda tasnif qilishda **Y. D. Polivanov**(1891 - 1938)ning ulug' xizmatlari bor. U o'zbek tili va shevalari bo'yicha 250 dan ortiq nomda katta va kichik hajmda asarlar yaratgan. Hozirgi

kunda uning 150 dan oshiq ishlari e'lon qilingan. Y. D. Polivanov o'zbek shevalari bo'yicha "O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili" (1933), "Toshkent shevasining tovush tizimi" (1922), "O'zbek tilining singarmonizmni yo'qotgan shevalari namunalari" (1928) kabi ishlari mavjud.


Y. D. Polivanov o'zbek shevalarining birinchi ilmiy tasnifini yaratgan. Keyingi davr dialektologlari Y. D. Polivanov o'zbek shevalarini tasnif qilishda 2 tamoyil: 1) metisatsiya (qardosh tillarning chatishuvi) va 2) gibridizatsiyani (qardosh bo'lman tillarning aralashuvi) hisobga olgan holda tasnif qilgan degan fikrni ilgari suradilar. Bu e'tibordan chetda qoladigan fikr emas, lekin Y. D. Polivanov tasnifini metisatsiya va gibridizatsiya bilan bog'lab qo'yish ham noto'g'i bo'ladi, balki Y. D. Polivanov turkiy tillar, o'zbek tili va uning eroniylari bilan munosabati kabi holatlarni ham hisobga olgan. Aslida u deyarli barcha o'zbek shevalarini shaxsan o'r ganib chiqib, uning taraqqiyot tarixi, urug', qabila davri xususiyatlarining saqlanib qolishi nuqtayi nazardan shevalarni tasnif qilgan hamda o'zbek tili tarkibida uch yirik lahja mavjudligini belgilab bergan:

Chig'atoy lahjasি. Bu lahjani 7 tipga ajratadi: 1. Samarqand-Buxoro. 2. Toshkent. 3. Marg'ilon-Qo'qon. 4. Andijon-Shahrixon. 4-A. Chortoq yoki umlautli shevalar. 5. Qo'qon, Andijon, Norin qishloq singarmonizmli shevalari. 6. Shimoliy o'zbek shahar (Chimkent, Turkiston) shevalari. 7. Shimoliy o'zbek qishloq (Mankent) shevalari.

O'g'uz lahjasি. Uningcha, bu lahja **2** tipdag'i shevalarni o'z ichiga oladi: 1. Janubiy Xorazm (Xiva, Yangi Urganch, Shovot, G'azavot, Hazorasp, Yangiariq) shevalari. 2. Shimoliy o'g'uz (Iqon, Qorabuloq) shevalari.


Qipchoq lahjasি. Uni bir necha tipga ajratadi: 1. Xorazm qipchoq shevalari: a) Shimoliy Xorazm ("ž"lovchi); b) O'rta Xorazm ("j"lovchi) shevalari. 2. Qurama shevalari. 3. Qozoq-nayman, Farg'ona-Qoraqalpoq shevalari. 4. Shimoliy o'zbek qipchoq dialekti (So'zoq, Cho'laqo'rg'on).

Chig'atoy lahjasiga qarashli, ayniqsa, Samarqand-Buxoro shevalarini kuchli *eronlashgan* shevalar deb hisoblaydi (15-rasm).



15-rasm. Y. D. Polivanovning o'zbek shevalari tasnifi

G'ozi Olim (1893 -1939) **tasnifi**. U shevalarni leksik, morfologik va fonetik xususiyatlari jihatidan tasnif qilish lozimligini uqtiradi va o'zbek-qipchoq, turk-barlos, Xiva-Urganch lahjalariga ajratadi.



16-rasm. G'. O. Yunusovning o'zbek shevalari tasnifi

O‘zbek-qipchoq lahjasining qirq, jaloyir-laqay, qipchoq, Gurlan; turk-barlos lahjasining Sayram-Chimkent, Toshkent-Xos, Andijon, Namangan; Xiva-Urganch lahjasining Xiva, Qarluq guruhlarini belgilaydi (16-rasm).

A. K. Borovkov tasnifi. A. K. Borovkov (1904 – 1962) shevalarning fonetik xususiyatlarini hisobga olib, dastlab “*a*”lovchi va “*ä*”lovchi shevalarni farqlaydi. “*ä*”lovchi shevalarga Toshkent, Xonobod, Xos, Taqachi, Yangiyo‘l, shevalarini; “*a*”lovchi shevalarni esa, o‘z navbatida, “*j*”lovchi va “*ž*”lovchi shevalarga ajratadi. “*j*”lovchilarga Chimkent, Mankent, Turkiston; “*ž*”lovchilarga Shimoliy Xorazm (qipchoq – A.S.), Surxondaryo, Samarcand viloyati qishloq shevalari kiritiladi.

A. K. Borovkov o‘zbek tili shevalarining tarixiy taraqqiyotini hisobga olib, uni yana **4** dialektga ajratadi:

1. *O‘rta o‘zbek dialekti.* Uning ikki guruhini belgilaydi: 1) O‘rta O‘zbekiston shevalari: Toshkent, Samarcand, Buxoro, Farg‘ona va boshqalar; 2) shimoliy o‘zbek shevalari: Chimkent, Sayram, Jambul, Marki va boshqalar.

2. *Shayboniy o‘zbek yoki “*ž*”lovchi dialekti.* Bunga Samarcand, Buxoro, Surxondaryo, Ohangaron vodiysi, Shimoliy Xorazm va Farg‘ona vodiysidagi “*ž*”lovchi shevalarni kiritadi.

3. *Janubiy Xorazm dialekti.* Bunga Xonqa, Hazorasp, Shovot, Yangiariq, G‘azovot, Sho‘raxon kabi shevalarni kiritadi.

4. *Alohida guruh shevalariga* 1) Qorabuloq, Iqon, Mankent; 2) umlautli shevalarga (Namangan)ni kiritadi.

V. V. Reshetov (1910 -1979) tasnifi (tasnif to‘liq keltirilmoqda)¹⁹.

Hozirgi O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan o‘ziga xos etnogenetik jarayon hamda qardosh va qardosh bo‘lmagan xalqlar tilining bir-biriga ta’siri o‘zbek tilining juda murakkab dialektal kompleksini vujudga keltirdi. Tarixiy-lingvistik jihatdan bu kompleks uchta komponentdan iborat:

1) *shimoliy-garbiy guruh* – o‘zbek tilining qipchoq lahjasi. Bu guruhga o‘zbek tilining qipchoq shevalari, hududiy yondosh qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoq tillari kiradi.

¹⁹Qarang: **Решетов В. В.** Ўзбек шеваларининг классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966. – Б. 3-14.

2) *janubi-g'arbiy guruh* – o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasи. Bu guruhga hududiy yondosh turkman tili taalluqlidir.

3) *janubi-sharqiy guruh* - bu guruhga qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasini tashkil qiluvchi ko‘pchilik o‘zbek shahar shevalari, hozirgi o‘zbek adabiy tili va eski o‘zbek tili, qardosh turkiy tillardan esa yangi uyg‘ur tili kiradi. Mazkur lahjaga kiruvchi shevalarning ko‘pchiligi uchun shu narsa xarakterliki, ular tojik tili bilan juda qadimdan aloqador bo‘lgan.

Bundan ko‘rinadiki, o‘zbek tilining dialektal tarkibi haqiqatan ham murakkab bo‘lib, u O‘rta (Markaziy) Osiyo va Qozog‘iston hududidagi xalqlar tilining kichik lingvistik kartasini eslatadi.

Tarixiy-lingvistik faktlar ko‘rsatganidek, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston hududida mavjud bo‘lgan uchta (qipchoq, o‘g‘uz, qarluq-chigil-uyg‘ur) til birligi o‘zbek tili tarkibida ham xuddi shunga mos uch lahjaning (qipchoq, o‘g‘uz va qarluq-chigil-uyg‘ur lahjalarining) mavjud bo‘lishiga olib kelgan.

Qipchoq lahjasи. O‘zbek tilining qipchoq lahjasи har xil turkiy urug‘-qabila guruh vakillarini o‘z ichiga oladi. Bular orasida *qipchoq, nayman, qangli, mitan, laqay, uyshun, qoraqalpoq, tama, qishliq, ongut, qiyot, do‘rmon, arg‘in, uyg‘ur* kabi ko‘pgina urug‘lar mavjud²⁰.

Qipchoq lahjasiga taalluqli shevalar juda katta territoriyaga tarqalgan. O‘zbekistonning barcha viloyatlarida mazkur lahja vakillarining borligi ham bu fikrning to‘g‘ri ekanligiga dalildir. Haqiqatan ham, qipchoq lahjasining vakillari Toshkent viloyatining Ohangaron vodiysi, Fargona, Andijon viloyatlarida ham yashaydilar. Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Qashqdaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlari aholisining ko‘pchilik qismi ham qipchoq lahjasining vakillaridir. Bugina emas, o‘zbek tili qipchoq lahjasining shevalari Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston respublikalari territoriyasida ham bor.

O‘zbek tilining qipchoq shevalari faqat dialektologlar uchungina emas, balki folklorshunoslar uchun ham juda qiziqarli materiallar beradi. Avloddan-avlodga

²⁰ Qipchoq lahjasining urug‘ va qabilalari X. Dohiyorov tomonidan mufassal yoritilgan. Qarang: **Х. Дониёров.** Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: ФАН, 1968.

o‘tib kelgan juda boy xalq og‘zaki ijodi, xususan, qahramonlik eposi o‘zbek xalqining milliy g‘ururi hisoblanadi. Shu sababli aksariyat qismi qipchoqlardan bo‘lgan o‘zbek xalq baxshilarining hayoti va ijodini o‘rganish, o‘z navbatida, qipchoq shevalarining xarakterli til xususiyatlarini har taraflama tadqiq qilishni taqozo etadi. Shu bilan bir qatorda, qipchoq lahjasи o‘z fonetik va leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra, o‘zbek adabiy tili normalaridan ham ko‘p jihatlari bilan farq qiladi.

O‘g‘uz lahjasи. Xorazmning janubiy qismidagi bir qancha shevalar o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasiga taalluqlidir. Xorazmdagi Xiva, Xonqa, Shovot, Hazorasp, G‘azavot, Yangiariq, Sho‘raxon, Urganch singari aholi yashaydigan punktlarida, shuningdek, Toshhovuz viloyati va Qoraqalpog‘istonning bir qator tumanlarida o‘g‘uz lahjasining vakillari juda ko‘p.

Shimoliy o‘zbek (Turkiston-Chimkent) guruh shevalari (Qorabuloq, Mankent, Qoramurt, Iqon) ham, shubhasiz, o‘g‘uz elementlarining ishtirokida shakllangan. Mazkur lahja vakillari respublikaning boshqa tumanlarida (masalan, Jizzax yaqinidagi Bog‘don qishlog‘ida) ham uchraydi.

Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasи. O‘zbek tilining qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasи shahar shevalarini va ularga yondosh bo‘lgan shahar tipidagi qishloq shevalarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur dialekt birligining shakllanishi XI asrdagi Qoraxoniyalar harakati bilan bog‘langan.

Tarixiy jihatdan qarluq-chigil-uyg‘ur til birligiga Namangan, Toshkent, Andijon va O‘zbekistonning boshqa tumanlaridagi yirik punktlar aholisining shevalari taalluqlidir.

Bu lahjaning shevalari O‘zbekistandan tashqarida ham ko‘p tarqalgan. Masalan, Qozog‘istondagi Turkiston, Chimkent, Sayram, Qorabuloq, Qoramurt, Iqon, Mankent²¹; Qirg‘izistondagi O‘sh, Jalolobod, O‘zgan va boshqalar shular jumlasidandir. Bu lahjaga oid sheva vakillarini Afg‘onistonda ham uchratamiz.

²¹ Qorabuloq, Qoramurt, Iqon, Mankent shevalarining qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga kiritilishiga qo‘silib bo‘lmaydi. Bu shevalar o‘g‘uz lahjasiga oiddir. – A.S.

Ma'lumki, 1630-yillarda o'zbek urug'laridan qatag'onlarning bir qismi Shoshdan (Toshkent vohasidan) Afg'onistonga ko'chib ketganlar. O'zbek shevalarini tasnif qilgan tadqiqotchilar bu lahja shevalarini turli guruhlarga kiritganlar, holbuki, mazkur shevalar o'rtasidagi genetik va til jihatdan yaqinlik faqat tarixiy jihatdangina emas, balki hozirgi paytdagi holatida fonetikada ham, leksikada ham, ba'zi grammatik shakllarda ham ko'zga yaqqol tashlanadi.

Uyg'ur tiliga xos bir qator tipik xususiyatlarning, qisman "umlaut"ning mavjudligiga qarab Namangan shevasi, xususan, Namangan atrofidagi ba'zi qishloq shevalari, masalan, Uychi shevasi alohida o'rinn tutadi.

Bu lahjani tubandagi guruhlarga ajratish mumkin:

Farg'ona guruhi. U bir necha dialektlarni o'z ichiga oladi:

Namangan dialekti. Bu dialektga Namangan shahar shevasi va shahar tipidagi Namangan atrofidagi shevalar (masalan, Uychi va boshqalar) taalluqlidir (Namangan atrofidagi qipchoq shevalari, tabiiyki, bu dialektga kirmaydi).

Mazkur dialektga oid shevalar uyg'ur tiliga maksimal darajada yaqinligi bilan xarakterlanadi.

Andijon-Shahrixon dialekti. Bu dialektga Andijon shahar shevasi, Shahrixon shevasi va Andijon viloyatidagi boshqa bir qator shevalar kiradi.

O'sh-O'zgan dialekti. Bunga O'sh, O'zgan, Jalolobod va shu tipdagisi boshqa shevalar taalluqli bo'lib, ular uchun janubiy qirg'iz shevalari bilan bo'lgan metisatsiya xarakterlidir.

Marg'ilon-Qo'qon dialekti. Bu dialektga Marg'ilon, Farg'ona, Vodil, Qo'qon va boshqa shu tipdagisi shevalar kiradi.

Toshkent guruhi.

Toshkent dialekti. Bunga Toshkent shahar shevasi, Toshkent viloyatidagi qipchoq shevalaridan boshqa shahar tipidagi shevalar, masalan, Piskent, Parkent, Qoraxitoy va boshqalar taalluqlidir.

Jizzax dialekti. Bunga Jizzax, Xos(Xovos) Qashqadaryodagi Po'loti, Mo'loti, Boyterak shevalari kiritilgan.

Qarshi guruhi.


Qarshi dialekti. Bu dialektga Qarshi, Shahrисабз, Kitob, Yakkabog‘ va (qipchoq shevalaridan tashqari) Qashqadaryodagi shu tipdagi shevalar kiradi.

Samarqand-Buxoro dialekti. Bunga Samarqand, Buxoro, Xo‘jand, Farg‘она vodiysidagi Chust, Qashqadaryodagi Koson va shu tipdagi boshqa shevalar kiradi (o‘g‘uz va qipchoq lahjasiga taalluqli shevalar bu dialektga kirmaydi).

Shimoliy o‘zbek guruhi.

Iqon-Qorabuloq dialekti. Bunga Iqon, Qorabuloq, Mankent, Qoramurt va boshqa ba’zi shevalar taalluqli bo‘lib, ular o‘zining tarkib topish jarayonida avvalo o‘g‘uz, keyinchalik esa qipchoq tili elementlari bilan aralashgan.

Turkiston-Chimkent dialekti. Bu dialektga Turkiston Chimkent, Sayram va shu tipdagi boshqa shevalar kiradi. Mazkur dialekt o‘g‘uz tili elementlarining kam bo‘lishi, biroq Janubiy Qozog‘iston shevalari bilan metisatsiyaga kirganligi sababli qipchoq tili elementlarining ko‘proq bo‘lishiga qarab Iqon-Qorabuloq dialektidan farq qiladi.



17-rasm. V.V. Reshetovning o‘zbek shevalari tasnifi

O‘zbek dialektologlari. O‘zbek tili va uning shevalari XX asrning boshlaridan keng miqyosda o‘rganildi. Bu davrda tarix sahifasiga G‘. O. Yunus, Y. D. Polivanov, K. K. Yudaxinlar chiqishdi. G‘. O. Yunus “Maorif va o‘qitg‘uvchi” va boshqa nashrlarda o‘zbek shevalarining tovushlari tizimini tadqiq qildi va shevalar tasnifini yaratdi. Y. D. Polivanov esa Toshkent, Samarqand. Xorazm, Turkiston, Iqon, kabi shevalarni bevosita borib o‘rgangan hamda ularning natijasi o‘laroq o‘zbek shevalarining ilmiy tasnifini ishlab chiqdi. K. K. Yudaxin O‘rta Osiyo universitetini tugatgach, Janubiy Qozog‘iston viloyatining Sayram tumaniga qarashli Qorabuloq qishlog‘ida yashab va ishlab, shu shevaning xususiyatlarini o‘rgangan, bu shevadan qimmatli matnlar yozib olgan, uning Vodil, Laylak shevalari bo‘yicha tadqiqotlari ham bor. Shuningdek, bu davrda matbuot sahifalarida o‘zbek shevalariga bag‘ishlangan turkum maqolalar e’lon qilingan. Bunday ishlarning yuzaga kelishiga o‘tgan asrning boshlarida adabiy til normalarini belgilashdagi harakatchilik sabab bo‘ldi, ya’ni adabiy tilni qaysi sheva asosiga qurish masalasi ko‘ndalang bo‘lgan va oqibatda o‘zbek shevalari bo‘yicha tadqiqotlar paydo bo‘la boshladи.

O‘tgan asrning 50, 60, 70-yillarida dialektologik tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borildi. Bu ishlarda V. V. Reshetov, A.K. Borovkov, Sh. Shoabdurahmonov, Fattoh Abdullayev, Fathulla Abdullayev, M. Mirzayev, X. Doniyorov, H. G‘ulomov, Y. G‘ulomov, F. Ishayev, N. Rajabov, Sh. Afzalov, B. Jo‘rayev, O. Madrahimov, A. Shermatov, A. Aliyev, Q. Muhammadjonov, M. Turobova va boshqa shevashunoslар ishtirok etishdi. Mustaqillik yillarida A. Jo‘rayev, T. Yo‘ldoshev, Y. Ibrohimov, M. Abdiyev, N. Murodova va boshqa shevashunoslар yetishib chiqishdi. Ular dialekt va shevalarning fonetik, leksik, morfologik xususiyatlarini o‘rgandilar, shevalarning areal tadqiqotlarini amalga oshirdilar.

Tayanch tushunchalar:

Gibrnidizatsiya [гибридизация, hubridization] – qardosh bo‘lmagan til va shevalarning aralashib ketishi.

Klaster [кластер, cluster] – sheva, dialekt, lahjalarning yagona tilga yaqinlik darajasi.

